

ISSN: 2181-3523

Scientific Journal



idea

Innovative Development in Educational Activities

Economics
Exact Sciences
Natural Sciences
Medical Sciences
Arts and Culture
Technical Sciences
Philological Sciences
Pedagogical Sciences
Psychological Sciences
Social Sciences and Humanities

2024/3

VOLUME 3, ISSUE 3

OPENIDEA.UZ

ISSN 2181-3523
VOLUME 3, ISSUE 3
FEBRUARY 2024



<http://openidea.uz/>

INNOVATIVE DEVELOPMENT IN EDUCATIONAL ACTIVITIES

VOLUME 3, ISSUE 3, FEBRUARY, 2024

EDITOR-IN-CHIEF

I. Urazbayev

Professor, Doctor of Biological Sciences, Gulistan State University

EDITORIAL BOARD

G. Kholmurodova

Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

A. Madaliev

Professor, Doctor of Economics, Tashkent State Agrarian University

G. Sotiboldieva

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

U. Rashidova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Philological Sciences, Samarkand State University

D. Darmonov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

X. Abdusakimova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

U. Ruzmetov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Chemical Sciences, National University of Uzbekistan

M. Yusupova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

M. Kambarov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Namangan State University

S. Sadaddinova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Physics and Mathematics Sciences, Tashkent University of Information Technologies

M. Fayzullaev

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) Geographical Sciences, Karshi State University

Z. Muminova

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine

B. Kuldashov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine

Kh. Askarov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Fergana Polytechnic Institute

S. Nazarova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Bukhara State University

O. Rahmonov

Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Fergana Polytechnic Institute

G. Tangirova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

Z. Koryogdiev

Doctor of Philosophy (Phd) in Historical Sciences, Bukhara State University

S. Ubaydullaev

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology

R. Yuldasheva

Associate Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

M. Yuldashova

Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Namangan State University

D. Sarimova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Institute of the Chemistry of Plant Substances

D. Hikmatov

Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Bukhara Institute of Engineering and Technology

A. Karimov

Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Karshi Institute of Engineering and Economics

Sh. Rajabov

Doctor of Philosophy (Phd) in Philosophical Sciences, International Islamic Academy of Uzbekistan

PRAGMATIK MARKERLAR, LINGVISTIK YONDASHUV VA BOG‘LIQLIK NAZARIYASI

Safoyeva Sadokat Nasilloevna

Bukhara State University

Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrası o‘qituvchisi

Normurodova Farangiz

Tarjima nazariyasi va amaliyoti yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola pragmatik belgilar sohasini o‘rganib chiqib, ularning muhim jihatlari, funksiyalari va madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘ziga xos belgilarini ko‘rsatib beradi. Kirish qism pragmatik belgi tasnifini o‘z ichiga oladi va ularning muloqotdagi muhim rolini namoyon qiladi. Maqolada pragmatik markerlarning ko‘p taraflama funksiyalari tizimli ravishda yoritilib, ularning ma‘ruzachi niyatlarini yetkazishda, nutqni boshqarishda, ijtimoiy o‘zaro ta’sirlarni shakllantirishdagi ahamiyati ta’kidlab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Diskurs, pragmatika, marker, konsepsiya, belgi, kommunikativ, funksiya.

ПРАГМАТИЧЕСКИЕ МАРКЕРЫ, ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ ПОДХОД И ТЕОРИЯ СВЯЗНОСТИ

Аннотация: В данной статье рассматривается область прагматических знаков и показаны их важные аспекты, функции и отличительные черты культурного значения. Введение включает классификацию прагматических знаков и показывает их важную роль в общении. В статье систематически освещаются многогранные функции прагматических маркеров, подчеркивается их значение в передаче намерений говорящего, управлении речью, формировании социальных взаимодействий.

Ключевые слова: Дискурс, прагматика, маркер, концепт, символ, коммуникатив, функция.

PRAGMATIC MARKERS, LINGUISTIC APPROACH AND CONNECTIVITY THEORY

Annotation: This article examines the field of pragmatic signs and shows their important aspects, functions and distinctive features of cultural significance. The introduction includes a classification of pragmatic signs and shows their important role in communication. The article systematically covers the multifaceted functions of pragmatic markers, emphasizing their importance in conveying the speaker's intentions, controlling speech, and forming social interactions.

Key words: Discourse, pragmatics, marker, concept, symbol, communicative, function.

Kirish: Pragmatik markerlar suhbat davomida muloqotni shakllantirishda rol o'ynaydigan lingvistik qurilmalardir. Ular qo'shimcha ma'no yuklaydi va suhbatdoshning niyatini, munosabatini, his-tuyg'ularini yetkazishda yordam beradi. Ushbu maqola pragmatik belgi tushunchasi va ularning nutq tahlilidagi ahamiyatini tushunishga bag'ishlangan. Biz ularning vazifalarini, tasniflarini o'rganib chiqamiz va ulardan qanday foydalanilishini va muloqotga ta'sir qilishini misol qilib ko'rsatamiz

Pragmatik markerlarning tasnifi va vazifalari. Pragmatik belgilar - bu leksik elementlar, ko'pincha so'z yoki ifodalar bo'lib, ular so'zlovchining munosabati, niyati yoki gapning pragmatik kontseptsiyasini bildirishda juda muhim o'rin egallaydi. Muayyan semantik mazmunga ega bo'lgan so'zlardan farqli o'laroq, pragmatik belgilari asosan nutq yoki kommunikativ funksiyaga xizmat qiladi. Pragmatik belgilari taklif mazmunining tarkibiy qismlari emas, aksincha, pragmatik funktsiyalar uchun vosita sifatida qo'llaniladigan so'zlar, iboralar yoki gaplardir.

Ularning vazifasini quyidagicha ta'riflash mumkin:

1. Suhbatni boshlash yoki yakunlash: suhbatning boshlanishi yoki tugashini ifodalash maqsadida pragmatik belgilardan foydalaniladi. Masalan, "So, as I was saying..." yoki "Well, that's the end of that".
2. Fikr va ko'rsatkichlarni ifodalash: ular fikr bildirishga, e'tiborni yetkazishga yoki diqqatni jalb qilishga xizmat qiladi. Misollar: "I mean" va "You know".
3. Ko'rsatuvchi va mustahkamlovchi: nutqda signal berish, ta'kidlash yoki mustahkamlash uchun pragmatik belgilar qo'llanadi - "Look, let me explain it to you"
4. Muhokamani boshlash yoki davom ettirish: ular muhokamani boshlashda yoki davom ettirishda yordam beradi. "Anyway" yoki "To be honest" kabi so'zlar misol bo'la oladi.
5. Tafsilotlarni taqdim etish: pragmatik belgilar shaxslararo aloqani batafsil bayon qilishda yoki aniqlashtirishda yordam beradi. Misollar: "In other words" yoki "For instance".

6. Nutqni aniqlashtirish yoki rostgo'ylikni bildirishda: ular nutqni aniqroq aytishga yoki rostgo'ylikka urg'u berishga xizmat qiladi. Misollar: "Actually" yoki "To be specific".

7. Ochiq ifoda etish yoki ta'kidlash: pragmatik belgilar muayyan fikrlarni ifodalashga yoki ta'kidlashga yordam beradi - "You see" yoki "Actually".

Pragmatik belgilarining klassifikatsiyasi bu lingvistik elementlarni ularning vazifalari va muloqotdagi rollari asosida turkumlashdan iborat. Pragmatik belgilarini ularning shakli, vazifasi yoki kelib chiqishiga qarab tasniflashning turli usullari mavjud. Lorel J.Brintonning so'zlariga ko'ra, maqbul klassifikatsiyalardan biri:

-Diskurs belgilar: Gapni bir-biriga bog'lovchi va nutqqa nisbatan ma'ruzachining nuqtai nazarini ko'rsatuvchi pragmatik belgilar. Misollar: well, so, anyway, you know, I mean va hokazo.

-Modal zarralar. Biror gapning nutqdagi yoki yozuvdagi kuchini yoki kayfiyatini o'zgartirib, so'zlovchining munosabatini, hissiyotini yoki maqsadini ifodalovchi pragmatik belgilar. Misollar - just, really, actually, indeed, perhaps va boshqalar.

-Hedj: Bir gapning ta'sir kuchini kamaytirib, suhbatdoshning muloyimligi, hurmati yoki ishonchsizligini ko'rsatadigan pragmatik belgilar. Misollar - kind of, sort of, maybe, I think, I guess va hokazo.

-Kuchaytirgichlar: Pragmatik belgilar so'zning kuchini yoki ishonchini kuchaytiradi va ma'ruzachining bag'rikengligini, e'tiborini yoki ishonchini ko'rsatadi. Misollar - definitely, absolutely, surely, I know, I'm sure va boshqalar.

-Munosabat belgilari: Tinglovchining fikr-mulohazalari, kelishuvi yoki suhbatga aloqadorligini ko'rsatadigan pragmatik belgilar. Misollar: yeah, right, uh-huh, okay, wow, va hokazo.

-Undov so'zlar: So'zlovchining his-tuyg'ularini, reaksiyasini ifodalovchi pragmatik belgilari. Misollar: ouch, oops, yuck, wow, oh, va boshqalar.

Pragmatik belgilar tahliliga doir ba'zi misollar:

Well: Bu marker mavzuni tanishtirish, mavzuning o'zgarishini bildirish, ikkilanishni bildirish, qarshi ekanligini ko'rsatish uchun ishlatilishi mumkin. Masalan: Well, I think lesson will start now.. (mavzu bilan tanishtirish) Well, that's another story. (mavzuni o'zgartirish) Well, who knows?. (ikkilanishni bildiradi) Well, Chanel belt is trendy, but it costs an arm and leg... (qarshilikni ko'rsatish Well, Tony might be right. (fikrga tan berish)

Just: Ushbu belgi so‘rovni yumshatish, tanqidni yumshatish, fikrni ta’kidlash yoki aniqlikni ko‘rsatish uchun ishlatilishi mumkin. Masalan: Could you just turn off the radio for a moment? (talabni yumshatish) It’s just that I don’t like it.. (tanqidni yengillashtirish) I just obsessed with this necklace (fikrni ta’kidlash) It’s just 5 minutes to leave. (aniqlikni ko‘rsatish)

You know: Ushbu marker kelishuvga intilish, tushunishni tekshirish, daxldorlikni ko‘rsatish yoki pauzani to‘ldirish uchun ishlatilishi mumkin. Masalan: It’s so complicated, you know? (kelishuvga intilish) You know what I just said? (tushunganlikni tekshirish) You know, I respect your parents. (daxldorlikni ko‘rsatish) It was so realistic...you know, I couldn’t stop staring at it (pauzani to‘ldirish)

Pragmatik belgilari so‘zlashuvda keng qo‘llaniladi, lekin yozma matnlarda, ayniqsa norasmiy matnlarda ham uchratsa bo‘ladi. Ular kontekstga, ta’sirchanlikka va tilning o‘ziga xos xususiyatlariga qarab farq qilishi mumkin. Masalan, ba’zi pragmatik belgilar Britaniya ingliz tilisiga xosdir, masalan, "while" yoki "innit", boshqalari esa "like" yoki "guys" kabi Amerika ingliz tilisida ko‘proq uchraydi.

Pragmatik belgilaridan foydalanish tilning qiziqarli va muhim jihati sanaladi, chunki ular odamlarning bir-biri bilan qanday aloqada bo‘lishlarini aks ettiradi. Ular nutq yoki yozuvning tabiiy va qiziqarli bo‘lishini ta’minlashga ham hissa qo‘shadi. Biroq, biz ulardan to‘g‘ri foydalanishimiz zarur, chunki pragmatik belgilaridan haddan tashqari ko‘p foydalanish nutq yoki yozuvni noprofessional qilib qo‘yishi mumkin.

Madaniyatlararo muloqotda pragmatik belgilar. Pragmatik belgilar madaniyatlararo aloqani osonlashtirish yoki murakkablashtirishda katta ahamiyat kasb etadi, chunki ular turli madaniy qadriyatlarni, normalarni va maqsadlarni aks ettirishi mumkin. Kontekst va suhbatdoshga qarab pragmatik belgilar turli funktsiya va ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin, bu esa tushunmovchiliklarga, noto‘g‘ri muloqotga, hatto ziddiyatlarga olib keladi. Shuning uchun madaniyatlararo kommunikatorlar o‘zlari foydalanadigan markerlarning pragmatik vazifalari va ta’siridan xabardor bo‘lishlari va ulardan foydalanishning turli xil vaziyatlarini ko‘rib chiqishlari zarur. Masalan, ayrim belgilar ba’zi madaniyatlarda do‘stona yoki hamkorlik sifatida qabul qilinishi mumkin, ammo boshqalarda qo‘pol yoki intruziv deb hisoblanishi mumkin. Ba’zi belgilar bir madaniyatda qiziqish yoki rozi bo‘lishni bildirish uchun ishlatilishi mumkin, ammo boshqasida to‘qnashuv yoki intruziv deb hisoblanishi mumkin. Shunday qilib, markerlarning pragmatik funktsiyalari va ta’sirini tushunish madaniyatlararo kommunikatorlarga nutqni tinglovchilarga moslashtirish imkonini beradi. Amerika va Britaniya ingliz tillari o‘rtasidagi pragmatik markerlarning lingvistik farqiga misol "quite" so‘zini ishlatishdir. Amerikalik ingliz tilida "quite" ko‘pincha " She is quite beautiful " da bo‘lgani kabi, kuchli yoki mutlaq ma’noni

yetkazib beruvchi kuchaytiruvchi sifatida ishlaydi. Biroq, Britaniya ingliz tilida "quite" yumshoqroq sifatda ishlatiladi, bu o'rtacha yoki biroz degan ma'noni anglatadi. "She is quite beautiful" gapi "she is rather beautiful" ma'nosini anglatadi. Shu sababli, amerikalik ma'ruzachi bilmasdan britaniyalik odamga kuchliroq maqtov bildirishi mumkin, britaniyalik ma'ruzachi esa amerikalik tinglovchi bilan "quite" foydalanishda ularning maqtovini noto'g'ri tushinishi mumkin. Bu esa pragmatik belgilaridagi madaniy farqlar muloqotning talqiniga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini yaqqol ko'rsatadi.

Xulosa. Pragmatik markerlarni tadqiq qilish samarali muloqotni shakllantirishda ularning muhim rolini ochib beradi. Pragmatik belgilar, lingvistik qurilmalar sifatida nutqdagi ijtimoiy dinamika, niyat va hissiy nuanslarni ifodalashi orqali til imkoniyatlariga kuchli ta'sir o'tkazadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Brinton, L. The Evolution of Pragmatic Markers in English: Pathways of Change. – Cambridge University Press, 2017. – 332 p.
2. Beeching, K. Pragmatic Markers in British English. Meaning in Social Interaction. – Cambridge: Cambridge University Press, 2016. – 255 p
3. Aijmer, K. Understanding Pragmatic Markers: A Variational Pragmatic Approach. – Edinburgh: Edinburgh Univ. Press, 2013. – 192 p.
4. Nasilloeyeva, S. S. The Connotative meanings of noun and adjective lexemes in Uzbek and English languages Qayumova Nigora Muxtor kizi. Scientific reports of Bukhara State University, 79.
5. Sadokat Safoyeva, Text-reality integration and sociological analysis of literary text , центр научных публикаций (buxdu.uz): Том 26 № 26 (2022): Статьи и тезисы (buxdu.uz)
6. Sadokat Safoyeva, Linguistics features of the publicistic style , центр научных публикаций (buxdu.uz): Том 5 № 5 (2021): Maqola va tezislari (buxdu.uz)

BO‘LAJAK MAKTAB MENEJERLARINING IQTISODIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY METODIK ASOSLARI

Qo‘shmurodov Asqar Juman o‘g‘li

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Pedagogika psixologiya va musiqa ta’lim yo‘nalishlarida
masofaviy ta’lim kafedrasida o‘qituvchisi

***Annotatsiya:** O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini tashkiliy boshqaruvi hamda moliyalashtirish masalalari o‘rin olgan. Bundan tashqari maqolada Iqtisodiy kompetensiyalarni takomillashtirishning innovatsion talablar asosida taraqqiy ettirishda aholining bilimlilik darajasini oshirish, ishlab chiqarishning intellektual salohiyati, moliyalashtirishni mazmuni ham yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** innovatsion iqtisodiyot, kompetentsiya, kompetentlik, o‘rganmoq, izlamoq, o‘ylamoq, hamkorlik qilmoq, kontekst, o‘quv*

Ta’lim jamiyat hayotining ajralmas qismi va innovatsion iqtisodiyot rivojlanishining barqarorligini ta’minlaydigan eng muhim omillardan biridir.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichida jamiyatimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bu uzluksiz ta’lim tizimining barcha sohalarida ta’lim sifatini oshirishdir.

Mamlakatimiz ta’lim sohasiga kiritilayotgan barcha muhim o‘zgarishlar ta’lim sifatini va shu orqali bo‘lajak maktab menejerlarining malakasini ta’minlashga qaratilgan. Sifatni ta’minlash tizimi talabalar va bitiruvchilarning jamiyat talablariga muvofiqligini kafolatlaydigan va ta’lim muassasalari bajarishga harakat qiladigan omildir. Ta’lim sifati jamiyat talablariga muvofiqligi va moslashuvchanligi bilan uzluksizdir va kasb-hunar ta’limi tizimining sifatini ta’minlashning vazifasi ularni kafolatlashdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son Qarori bilan mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko‘rib chiqish, oliy ma’lumotli mutaxassislarni xalqaro standartlar darajasida tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida – 2017-2021-yillarda oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiyalash, ularni zamonaviy o‘quv-ilmiy

laboratoriyalar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan jihozlash kompleks chora-tadbirlari tasdiqlandi.

O‘z-o‘zidan ravshanki, ta’lim tizimini isloh qilish jarayoni mamlakatimizda zamonaviy bilim va kasblarga ega, o‘z tengdoshlari bilan jahon miqyosida raqobatlasha oladigan yoshlarni tayyorlashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning zaruriy omili hisoblanadi.

Ta’lim-bu davlat, jamiyat, fuqarolar manfaati uchun maqsadli o‘quv jarayoni bo‘lib, bu o‘quvchilarning davlat ta’lim standartlari va talablari bilan belgilangan o‘quv natijalariga erishishini ta’minlashga qaratilgan jarayondir¹.

Ta’lim jamiyat hayotining muhim omili ekanligini rivojlangan davlatlar tajribasi tasdiqlamoqda.

Ilm-fan va ta’lim tizimining taraqqiyoti rivojlangan mamlakatlarda farovonlikni ta’minlaydi. O‘quv jarayonini takomillashtirishning muhim omili oliy ta’lim tizimida bo‘lajak maktab rahbarlarining iqtisodiy kompetentsiyasini yuqori darajada shakllantirish bilan uzviy bog‘liqdir. Shu sababli, zamonaviy ta’lim texnologiyalari va yaratilayotgan o‘quv-uslubiy majmualarning imkoniyatlaridan samarali foydalanish asosida bo‘lajak maktab rahbarlarining iqtisodiy kompetentsiyasini shakllantirish jarayonining nazariy va amaliy asoslarini yaratish dolzarb vazifalardan biridir.

Xorijiy mamlakatlarda qo‘llaniladigan ta’lim mazmunini mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi nuqtai nazaridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, G‘arb mamlakatlarida asosiy o‘rinni mutaxassisning malakasi darajasi egallaydi. Aslida respublikamizning milliy ta’lim tizimi, ta’lim mazmuniga qo‘yiladigan minimal talablar bilim, ko‘nikma va malakalarga asoslanadi.

O‘tgan asrning 60-yillarida tadqiqotning yangi yo‘nalishiga aylangan kompetentsiya yondashuvining kelib chiqishi, shuningdek, xorijiy pedagogik va tibbiy-pedagogik manbalardagi “kompetentsiya” va “kompetentlik” tushunchalari bo‘lajak maktab menejerlarini oliy o‘quv yurtlarida kasbiy tayyorlash nazariyasi va amaliyotida keng tarqaldi ta’lim muassasalari.

Kompetentsiya – bu ish jarayonida ish samaradorligini oshirishga yordam beradigan aniq bilim va ko‘nikmalar to‘plami.

1959 yilda R. N. Uayt uni ilmiy maqolasida ishlatgan va sanoat motivatsiyasi tushunchasi sifatida harakat qilgan. 1970 yilda Kreyg Lundberg “ishlashni rivojlantirish dasturini rejalashtirish” da kontseptsiya tushunchasini aniqladi va 1973 yilda bu atama Devid Makklellandning “aql emas, balki sinov qobiliyati” ilmiy maqolasidan keyin yanada keng qo‘llanila boshlandi.

Kompetentsiya atamasi aynan shundan keyin R.Boyatsis, T.F.Gilbert va boshqalar tomonidan foydalanildi. Bundan tashqari, kompetentlikka yo'naltirilgan ta'lim amerikalik tilshunos N.Xomskiy (1965 yil, Massachutes universiteti) tomonidan taklif etilgan "kompetentsiya" atamasining umumiy ma'nosida shakllandi. Yevropa Kengashi dasturi bo'yicha Bern shahrida bo'lib o'tgan simpoziumda (1996 yil) "kompetentsiya" tushunchasi "o'quv", "kompetentlik", "qobiliyat", "mahorat" singari tushunchalar qatoriga kiritilgan. Yevropa davlatlarining ta'lim vazirlari Boloniya deklaratsiyasida (1999 yil) ta'lim islohotlarining kontseptual asoslari sifatida kompetentli yondashuvni e'tirof etdilar va yondashuv ta'lim sifatiga qo'yiladigan yangi talablarning natijasi bo'lib xizmat qilishida omil bo'ldi.

Kompetentsiyaning namoyon bo'lishini ba'zan vaziyat va kontekstda ko'rish mumkin va ular inson harakat qilishi kerak bo'lganda ham o'zgarishi mumkin. Favqulodda vaziyatlarda kompetensiyali odamlar ilgari muvaffaqiyatli deb hisoblagan xatti-harakatlariga rioya qilish orqali vaziyatni to'g'ri baholaydilar. Kompetensiyali bo'lish uchun odam vaziyat bilan tanishishi va darhol qaror qabul qilishi kerak.

O'qitishdan qat'iy nazar, kompetentlik tajribalardan va yillar davomida insonning moslashishga o'rganish qobiliyati orqali shakllanadi. Shu bilan birga olib borilgan tadqiqotlar, kompetentlikni va kompetentsiyani baholash oson emasligini ko'rsatadi¹.

"Kompetentlik" va "kompetentsiya" tushunchalari aslida o'zaro chambarchas bog'liq tushunchalar bo'lib, odatda kompetentlikning oshishi kompetentsiya doirasining kengayishiga olib keladi, va kompetentsiya doirasining kengayishi kompetentlik darajasining oshishi zaruratini ta'minlaydi. Olimlar "kompetentlik" va "kompetentsiya" tushunchasiga turlicha ta'rif berishadi. Masalan, Rossiyalik pedagog olim A.I.Turchinov kompetentlik deganda insonning muayyan lavozim kompetentsiyasi doirasida kasbiy tajribasi ifodalanishining darajasini nazarda tutadi. Boshqa bir olim A.V.Xutorskoyning fikricha: "Kompetentsiya shaxsning muayyan predmet va jarayonlarga nisbatan o'zaro chambarchas bo'lgan hamda samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan bo'lgan xususiyatlar (bilimlar, ko'nikmalar, malaka, faoliyat yuritish usullari) yig'indisidir; kompetentlik esa – insonning faoliyat predmetiga nisbatan shaxsiy munosabatini o'z ichiga oluvchi muayyan kompetentsiyaga ega ekanligidir.

A.I.Turchinovdan farqli o'laroq, A.V.Xutorskaya kompetentsiya tushunchasini tavsiflashda nafaqat shaxsning kasbiy tajribasini, balki uning bilimlarining kengligini, ya'ni ushbu masalaga kengroq yondashuvni ham anglatadi. Shuning uchun malakaga ega bo'lish ma'lum bilimlarga va ma'lum tavsiflarga (fazilatlariga) ega bo'lishni yoki

ma'lum bir holatdan xabardor bo'lishni anglatadi; malakaga ega bo'lish esa ma'lum bir sohada ma'lum imkoniyatlarga ega bo'lishni anglatadi.

So'ngi vaqtlarda, zamonaviy pedagogik adabiyotlarda kompetensiyalarning ko'pgina turlari taqdim etilmoqda, bu esa o'z navbatida ularni saralash va muayyan xususiyatlarga ko'ra tizimlashtirish muammosining dolzarbiligidan dalolat beradi. Masalan, "Evropa uchun hal qiluvchi kompetensiyalar" mavzusidagi Evropa Kengashining simpoziumida hal qiluvchi kompetensiyalarning quyidagi taxminiy ro'yxati belgilangan: "o'rganmoq; izlamoq; o'ylamoq; hamkorlik qilmoq; ishga kirishmoq; moslashmoq".

S.E.Shishov, V.A.Kalneylarning fikricha kompetensiya tushunchasi bilimlar sohasiga emas, balki malakaviy sohaga tegishlidir. "Kompetensiya – bu o'rganish jarayonida egallangan bilimlar, tajriba, qadriyatlar, layoqatga asoslangan qobiliyatlar yig'indisidir".

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini baholashda asosiy e'tiborni kompetensiyalarning alohida elementlari mavjudligiga emas, kasbiy vazifalarni hal eta olish layoqatlarini namoyon qila bilishga qaratish lozim. Baholash uchun beriladigan topshiriqlarni real kasbiy vazifalarning imitatsiyasi ko'rinishida shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi, bunda kasbiy masalalarni hal etish jarayonida namoyon bo'ladigan kompetensiyalarning turli elementlarining rivojlanganlik darajasi baholanadi. Bundan tashqari, baholash natijalari bo'yicha xulosalar bo'lajak mutaxassisning aniqlangan malakalari kasbiy (funktsional) vazifalarni bajara olish uchun yetarli darajadami, yo'qmi degan savolga javob berishi zarur. Agar yetarli bo'lmasa, qanday rivojlantiruvchi choratadbirlarni amalga oshirish orqali kasbiy kompetensiyalarni talab darajasiga ko'tarish mumkinligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lish lozim.

Kasbiy kompetensiyalarni baholashning asosiy shakllari umumiy kompetensiyalarni baholash shakllaridan farq qiladi. Bu kasbiy kompetensiyalar elementlarini baholash ko'rsatkichlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, bo'lajak maktab menejerlarining kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun haqiqiy kasbiy muammoli vaziyatlarga o'xshash vazifalarni ishlab chiqish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Труды научного конгресса международного научно-промышленного форума "Великие реки 2015" (Том 2)
2. Каланова Ш.М. Национальная оценка качества образования в Великобритании. //»Вестник высшей школы Казахстана», 2002, № 4.- с.134-141.
3. Thirteenth Australasian Computing Education Conference (ACE 2011), Perth, Australia, 2011. Hamer, John (ed), De Raadt, Michael (ed), Barnes, D. J., Berry, G., Buckland, R., Cajander, A.
4. Muslimov N.A. va b. Modulli-kompetentli yondashuv asosida kasb ta’limi o‘qituvchisining kasbiy (maxsus) kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: TDPU, 2014 yil. - 116 b.

O‘ZBEKISTONDA AYOLLARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIK HOLATLARI VA UNGA DOIR CHORA TADBIRLAR

Qobilova Nasiba Ismatjon qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti, stajyor o‘qituvchi

asliyatim@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida ayollarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarining oldini olish, sabablari va oqibatlarini haqida so‘z yuritiladi. O‘zbekistondagi ayollarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarining statistikasi va bu borada chiqarilgan qonunlar va qarorlar haqida so‘z yuritiladi. Jumladan, 2021-yil 19-may sanasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5116-sonli qaroriga binoan Mahalla va oilani qo‘llab quvvatlash vazirligi qoshida “Ayollarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish markazi” hamda “Himoya orderi” haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Zo‘ravonlik, viloyatlar bo‘yicha statistik ma‘lumotlar, UNICEF so‘rovnomasi, zo‘ravonlik sabablari, moddiy qaramlik sababli zo‘ravonlik chidash, ruhiy tushkunlik, depressiya, zo‘ravonlikdan keyingi stress, jismoniy zo‘ravonlik, ruhiy zo‘ravonlik, iqtisodiy zo‘ravonlik.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы предотвращения, причины и последствия насилия в отношении женщин в Республике Узбекистан. Обсуждается статистика случаев насилия в отношении женщин в Узбекистане, а также законы и решения, изданные в этой связи. В частности, с 19 мая 2021 года согласно постановлению Президента Республики Узбекистан № PQ-5116 в ведении Министерства жилищно-коммунального хозяйства и поддержки семьи созданы «Женский центр реабилитации и адаптации» и «Охранный ордер». упомянул.

Ключевые слова: Насилие, региональная статистика, исследование ЮНИСЕФ, причины насилия, толерантность к насилию из-за финансовой зависимости, психическая депрессия, депрессия, постнасильственный стресс, физическое насилие, психическое насилие, экономическое насилие.

Abstract: This article discusses the prevention, causes and consequences of violence against women in the Republic of Uzbekistan. The statistics of cases of violence against women in Uzbekistan and the laws and decisions issued in this regard are discussed. In particular, on May 19, 2021, according to the decision of the

President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-5116, under the Ministry of Neighborhood and Family Support, the "Women's Rehabilitation and Adaptation Center" and "Protection Warrant" are mentioned.

Key word: *Violence, regional statistics, UNICEF survey, causes of violence, tolerance of violence due to financial dependence, mental depression, depression, post-violence stress, physical abuse violence, mental violence, economic violence.*

So'nggi yillarda yurtimizda ayollarga va ularga nisbatan bo'layotgan zo'ravonlikning oldini olish va choralar ko'rish maqsadida bir qancha qonun hujjatlari va qarorlar ishlab chiqilmoqda. Jumladan, 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi bu masalaning qanchalik yurtimiz ayollari uchun dolzarb ekanligini ko'rsatadi. Bugungi kunda ayollarga nisbatan zo'ravonlik butun dunyoda global muammo sifatida qaralmoqda.

Jamiyatda ayollarga nisbatan zo'ravonlik zo'ravonlikning eng keng tarqalgan ko'rinishlaridan biridir. Jamiyatda, oilada biror bir shaxsning ayolga nisbatan do'q-po'pisa, ruhiy tazyiq, haqorat qilinishi yoki hatti-harakat orqali urish qiynashga aytiladi. Jamiyatda har bir inson buning qurboni va ijrochisi bo'lishi mumkin. Bunda odatda ayollar qurbon va erkaklar ijrochi rolini bajaradilar.

O'zbekistonda ayollarga nisbatan zo'ravonlik – o'zbekiston Respublikasining har bir ayol jinsiga mansub fuqorosiga nisbatan jinsiy, jismoniy, ruhiy va boshqa ko'rinishlardagi jinoyatlarning to'plami hisoblanadi. Biz ularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: kaltaklash, majburlay jinsiy aloqa qilish, qotillik, oilaviy zo'ravonlik, bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik, taqib qilish, va boshqa tazyiqlar natijasida ayollar huquqlarining poymoq qilinishini kiritishimiz mumkin.

Jumladan biz zo'ravonlikning quyidagi turlarini alohida ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

Jismoniy zo'ravonlik-bu qurbon yoki jabrlanuvchiga to'gridan tog'ri yoki biron predmet orqali ta'sir o'tkazish, jabrlanuvchini kaltaklash, tan jarohati yetkazish, turtish, tepish yoki tarsaki ko'rinishidagi hatti-harakatlar ko'rinishida bo'ladi.

Jinsiy zo'ravonlik – bu ikki shaxs o'rtasidagi hatti-harakatlar majmuasi bo'lib bunda qarama qarshi jins vakilini o'z hohishlariga qarshijinsiy aloqada bo'lishga majbur qilish, kuch bilan tahdid qilish yoki yolg'on orqali zo'ravonlik harakatiga aytiladi.

Psixologik zo'ravonlik – insonga ruhiy jihatdan zarar yetkazish, psixikasini shikaslantirish, haqorat qilish, qo'rqitish, tahdid qilish va shantaj orqali nazorat qilish kabilar kiradi.

Iqtisodiy zo‘ravonlik – bu bir insonga moddiy jihatdan bosim o‘tkazish, o‘qishni ishlashni taqiqlash, moddiy yordam berishdan bosh tortish va moddiy jihatdagi masalalarga to‘liq bir shaxsning hukmronlik qilishga harakat qilishiga aytiladi. Har bir shaxs shuni bilib qo‘yishi kerakki, shaxsiy daxlsizlik va xavfsizlik huquqi ularda bo‘lib ular bu huquqlaridan doimiy foydalanishga haqlidirlar. Respublikada ayollarga nisbatan zo‘ravonlikni oldini olish va zo‘ravonlik holatlariga qat’iy chora ko‘rish maqsadida 2019-yil 2-sentabr sanasida amal qilish muddati boshlangan O‘RQ-561-sonli “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish” to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining qonuni rasman e‘lon qilindi. Bu muammo butun dunyo uchun ham juda ahamiyatli bo‘lib uni quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin.

UNICEFning Kommunikatsiya va jamoatchilik aloqalari bo‘limi ayollarga nisbatan zo‘ravonlik muammosiga e‘tibor qaratish va xotin-qizlarning zo‘ravonlik kelib chiqish sabablarini o‘rganish va bu maslalaga O‘zbekiston aholisining munosabatini bilish maqsadida ijtimoiy psixologik so‘rovnoma o‘tkazgan. So‘rovnoma ko‘ra butun O‘zbekiston Respublikasi bo‘ylab 8900 dan ortiq respondent ishtirok etgan va ularning 37% qismini ayollar tashkil etgan. Olingan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra tahlillar shuni ko‘rsatadiki ayollar zo‘ravonlik qurboni bo‘lishi va bunga ko‘nib yashashlarining asosiy sabablari sifatida 42% ayollar o‘zlari va farzandlarini boqa olmasligidan qo‘rqib zo‘ravonlikka chidab yashashlarini 38% ayollar esa zo‘ravonlikka nisbatan bosh ko‘targan holatimda atrofdagilar jabrlanuvchidan yuz o‘girishlaridan, yaqinlarining gap so‘zlaridan andisha qilishgani uchun zo‘ravonlikka chidab kelishlarini ta’kidlashgan.

Quyidagi jadvalda O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar vazirligining 2021-yil yanvar-mart oylari bo‘yicha ayollarga nisbatan ko‘rsatilgan zo‘ravonlik holatlarida tushgan arizalar va tahlillar natijalari.

Hudud	Jismoniy zo‘ravonlik	Ruhiy zo‘ravonlik	Iqtisodiy zo‘ravonlik	Jinsiy zo‘ravonlik	Zulm va tazyiq	Himoya orderlar soni
Andijon viloyati	556 ta	?	?	4 ta	?	995 ta
Buxoro viloyati	?	?	?	?	?	606 ta
Farg‘ona viloyati	412 ta	?	?	?	587 ta	1294 ta
Jizzax viloyati	?	?	?	3 ta	?	569 ta
Namangan viloyati	?	?	?	?	391 ta	491 ta
Navoiy viloyati	?	?	13 ta	9ta	?	480 ta
Qashqadaryo viloyati	548 ta	668 ta	?	2 ta	?	1270 ta

<u>Qoraqalog‘iston Res.</u>	959 ta	?	?	?	?	973 ta
<u>Samarqand viloyati</u>	?	?	100 ta	4 ta	?	688 ta
<u>Sirdaryo viloyati</u>	540 ta	?	?	4 ta	?	841 ta
<u>Surxondaryo viloyati</u>	?	?	12 ta	6 ta	?	667 ta
<u>Toshkent viloyati/Toshkent shahri</u>	?	?	13 ta	10 ta	?	1531 ta (816/715)
<u>Xorazm viloyati</u>	?	?	?	1 ta	260 ta	665 ta

Statistik ma'lumotlarga ko'ra eng ko'p zo'ravonlik holati Toshkent viloyatida kuzatilgan.

Ushbu holatlarni bartaraf etish maqsadida hukumatimiz tomonidan bir qancha qonun qarorlar qabul qilingan. Jumladan, 2021-yil 19-may sanasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5116-sonli qaroriga binoan Mahalla va oilani qo'llab quvvatlash vazirligi qoshida "Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazi" o'z ish faoliyatini boshladi va uning hududiy bo'limlari tashkil etildi.

Yana bir asosiy chora vositalaridan biri bu ayollarga nisbatan zo'ravonlik holatlarini oldini olish va ayollarni himoya qilish maqsadida "Himoya orderi" joriy etildi. Bu orderning ahamiyati shundaki zo'ravonlikka uchragan ayollar hukumat organlariga murojaat bilan chiqishganda, ularning holati o'rganiladi va 1 oy muddatga himoya orderi taqdim etiladi. Bu bir oylik muddat davomida ayol davlat himoyasida hisoblanadi va unga nisbatan har qanday nojo'ya harakatlarga yo'l qo'yilmaydi.

Yuqoridagilardan bilishimiz mukinki O'zbekiston Respublikasida ayollarga nisbatan qilinayotgan zo'ravonlikni oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish uchun barcha chora tadbirlar ko'rilyapti.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 02.09.2019-yildagi O‘RQ-561-son
2. Zo‘rlik ishlatishdan jabr ko‘rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 19.05.2021 yildagi PQ-5116-son
3. L.Olimov, A.Nazarov Xulqi og‘ishgan bolalar psixologiyasi O‘quv qo‘llanma Toshkent Tafakkur avlodi 2020 yil
4. Qobilova N. OQUVCHILARDA IRODA RIVOJLANISHINING OZBEKISTON OLIMLARI TOMONIDAN TADQIQ ETILGANLIK HOLATI //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. – 2023. – №. I.
5. Qobilova N. KICHIK MAKTAB YOSHDAGI OQUVCHILARNING IRODAVIY SIFATLARINI SHAKLLANISHINI TEKSHIRISH VA BAHOLASH // Journal of Pedagogy and Psychology in Modern Education. – 2023. – Yo‘q. I.
6. Qobilova N. IRODA RIVOJLANISHINING XORIJIY OLIMLAR TOMONIDAN O‘RGANILGANLIGI HOLATI // Zamonaviy ta’limda pedagogika va psixologiya jurnali. – 2023. – T. 3. – Yo‘q. 1.
7. Qobilova N. TALABALARNING IROYLIK SIFATLARINI RIVOJLANISH HOVLATIDA MOTIVLARNING O‘ZBAR TA’SIRI //Fan va innovatsiya. – 2023. – T. 2. – Yo‘q. B4. – 254-257-betlar.
8. Qarshiboyeva G., Qobilova N. KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI KO‘UVCHILARDA IRODAVIY SIFATLARINI PSIXOLOG ZHIXATLARI // Journal of Pedagogy and Psychology in Modern Education. – 2022. – T. 2. – Yo‘q. 5.
9. Qobilova.N “THE PROBLEM, CAUSES AND CONSEQUENCES OF VIOLENCE IN THE SCIENCES OF PSYCHOLOGY” // International scientific online conferences – 2024 – USA Washington 431-433

LANGUAGE OF TELEVISION AND RADIO BROADCASTS: FUNCTIONS, FEATURES. NORMS AND DEVIATIONS OF SPEECH CULTURE

Eshankulov Hamrakul Mamatkulovich

Jizzakh State Pedagogical University Associate Professor

Abstract: *In our dynamic and very demanding times, a modern person, in order to achieve his goals and objectives, must have not only professional qualities, but also have clear and normative speech. Literary language is considered the basis of speech culture, as it corresponds to the norms of the modern Russian language. The article characterizes the concept of “speech culture”; the norms of literary language are considered; The most common errors of deviation from literary norms are given.*

Key words and phrases: *literary language; National language; language norm; communication culture; oral speech; written language; error.*

The current stage of development of society, which is undergoing economic processes of globalization, integration, the introduction of the principles of the Bologna system of education in Russian universities, which entailed the internationalization of education, the rapid pace of change in socio-economic living conditions and the aggravation of national contradictions, the increase in volumes of information, the introduction of communication technologies, has led to one of the first places is the problem of communication culture, which is the basis of interpersonal relationships in a changing world in which every person strives to be successful. Success largely depends on the person himself: on the level of culture of oral and written speech; speech science concepts and improvement of communicative and speech skills; the ability to make a first impression (appearance - hairstyle, clothing and jewelry - indicates success and respectability). “The appearance... must correspond to the situation and the nature of communication, the tastes of the audience and not distract the attention of the listeners” [14, p. 43]. Except

Moreover, the first impression of a person is usually formed on the basis of the speech culture demonstrated by the interlocutor. A person’s speech culture, the ability to logically express his thoughts and feelings both orally and in writing are his calling card. It has been proven that people who can speak well and beautifully will be able to achieve significant results due to their almost unique ability to speak in public. In this regard, some people can be listened to for a long time without being distracted, while others are difficult to listen to completely, because there is an irresistible desire to

immediately end the communication process. In addition, the ability to speak is the main indicator that distinguishes a person from an animal.

Speech skill is the ability to choose the most successful one from possible options, observing language norms, to express thoughts and attitudes. We emphasize that the ability to competently and concisely present information, timely and correctly respond to changes in the mood and thoughts of the interlocutor(s) contributes not only to adequate interaction between individuals, but also to the consolidation of society as a whole. In this regard, a person with a culture of communication becomes in demand in modern realities. This is especially clearly seen in professions for which knowledge of the modern Russian literary language is an integral component, in particular for diplomats, lawyers, radio and television presenters, journalists, teachers and managers at various levels. However, not only business and public people, but also those whose work activities are directly related to human resources should master the basics of cultural speech. Thus, the culture of speech acquires special importance for teachers and teachers, since they give a start in life to the younger generation. Thus, the skill is correct (in compliance with the norms and patterns

Russian literary language) to build your oral statement, to convincingly defend your own position is necessary for everyone who finds themselves in the mainstream of the modern whirlpool of life.

It should be noted that the modern Russian literary language occupies a central place in the basis of speech culture, since the use of literary language norms ensures the selection and organization of linguistic means that allow, in a specific speech situation, to ensure the desired effect in achieving the set communicative goals. In this regard, the ability to clearly and accurately formulate goals, substantiate them, put forward and defend ideas, and establish verbal contact is very important and in demand in the communication process. In addition, it is appropriate to emphasize that in the process of communication one can observe certain inaccuracies in speech, relating, in particular, to the use of certain words and expressions, emphasis, etc. This is evidence that a person has not fully mastered the norms of the modern Russian literary language.

In addition, “a typical error in speech is tautology - repetition of words of the same root or similar sound in a sentence, for example: “Regarding this point, the following should be noted.” Unfortunately, tautology is very common in speech, for example: “plan a plan”; “the following should be noted”; “recorded in the protocol”, etc.

Let’s not ignore pleonastic expressions. Pleonasm is a semantic redundancy that is unacceptable from the point of view of the modern Russian language. Below are typical pleonastic expressions: gesticulate with hands, work colleague, go back, overall dimensions, palms of hands, month of March. Note that among pleonasms there are

exceptions that are acceptable and included in the category of scientific terms, for example, second-hand book, money, information message, exhibits, etc.

An inept choice of linguistic means can lead to the appearance of stylistic defects in oral speech and writing. “Most often in speech there are stylistic errors that are the result of a deviation from the principle of appropriateness, for example: “My brother got it into his head that he would be a pilot.” The next type of stylistic error is verbosity, which is the result of a deviation from the principle of brevity of speech, for example: “Cedars are not uncommon in our taiga. They are found quite often.” Stylistic errors can currently be understood as certain speech disorders that arise as a result of stylistic diversity, disunity in the use of stylistically colored means. Thus, in a literary context, the use of slang, colloquial and abusive language is inappropriate, and in official business speech colloquial and expressive words should be avoided.

BIBLIOGRAPHY:

1. Vvedenskaya L. A., Pavlova L. G., Kataeva E. Yu. Russian language. A culture of speech. Business conversation. M.: Knorus, 2014. 424 p.

2. Vereshchagin E. M., Kostomarov V. G. Language and culture. M.: Indrik, 2005. 1038 p.

3. Levchaeva N.V. Business style: features of the use of communicative qualities of speech in the texts of documents // XI Derzhavin readings in the Republic of Mordovia: materials of the All-Russian. scientific-practical conf. Saransk: ExYuksPraktik, 2015. pp. 197-200.

4. Levchaeva N.V. Public speaking as an effective means of improving the quality of student learning // World of Science and Education. 2015. No. 1. P. 39-43.

BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QITUVCHILARI UCHUN PIRLS TA‘LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O‘QITISHDAGI AFZALLIKLAR

Safarov Botir Norboyevich

Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

botirsafarov8989@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalqaro ilg‘or tajribalarga tayanib, boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilari tomonidan o‘quvchilarga bilim berishda PIRLS ta‘lim texnologiyalari asosida o‘qitishni tashkil etish zarurligi, yangicha o‘qitish metodikasi, ko‘rgazmalilik, ko‘rsatmalilik va uzviyligi mujassamlashgan noan‘anaviylikni o‘rganish va amaliyotga tadbiq etish jihatlari to‘g‘risidagi fikrlar bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** PIRLS, texnologiya, o‘qituvchi, o‘quvchi, mashg‘ulot, taraqqiyot, innovatsiya, metod, integratsiya, ijodkorlik, ko‘nikma, malaka.*

BENEFITS OF TEACHING USING PEARLS EDUCATIONAL TECHNOLOGIES FOR PRIMARY EDUCATION TEACHERS

***Abstract:** In this article, based on international best practices, primary education teachers need to organize teaching based on PIRLS educational technologies, new teaching methodology, demonstrativeness, instructiveness and coherence. views on the aspects of studying and applying embodied non-conventionalism are presented.*

***Keywords:** PIRLS, technology, teacher, learner, training, development, innovation, method, integration, creativity, skill, competence.*

KIRISH. Bugungi kunda raqamli jamiyat va iqtisodiyotda kasblar bilan bog‘liq yuqori texnologiyalarga bo‘lgan talab tobora ortib bormoqda: jumladan, dasturchilar, tizim muhandislari, IT mutaxassislari, biotexnologlar, loyiha rahbarlari va boshqalar. Shu munosabat bilan, umumta‘lim maktablarida bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining bugungi zamon talablaridan kelib chiqib maktab sub’ektlarini zamonaviy texnologiyalar foydalanish bo‘yicha yetarlicha ko‘nikmalarga ega bo‘lish kerakligi sezilmoqda. Predmetlar, balki fanlararo bilim, ko‘nikma va malakalar ham, shakllanishi uzoq davom etadigan jarayondir. Umumta‘lim maktablarda boshlangan va faqat an‘anaviy usullardan foydalangan holda olib borish ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi.

Rivojlangan mamlakatlarda umumta'lim ta'lim muassasalarida PIRLS ta'limi asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari tomonidan o'quvchilarga ta'lim berishda global tendensiyalar va amaliyot bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi bu albatta, o'quvchilarning dars jarayonlarida fanlarni o'zlashtirishi va bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilishidan sezilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Xalqaro baholash dasturlari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalalarida B.S.Abdullayeva, A.A.Abduqodirov, N.A.Muslimov, A.A.Xoliqovlar tomonidan tadqiqotlar olib borishgan. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbga tayyorlash hamda metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari bo'yicha U.A.Masharipova, N.Sh.Ruzikulova, M.I.Toshpo'latova, A.A.Urazimbetova, M.Axmedov, B.L.Axmedova, N.U.Bikbayeva, Z.Dadanov, R.A.Mavlonova, K.T.Olimov, M.A.Zaynitdinova, M.Jumayev, R.Adizovlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda adekvat holatni o'rganishga qaratilgan usullar majmui qo'llandi: nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, modellashtirish), diagnostik (so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba-sinov va matematik metodlar (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshqalar).

Muhokama va natijalar. PIRLS ta'limi asosan AQShda dastlab XX-asr oxirlarida ishlab chiqilgan bo'lib, umumta'lim maktablarining bitiruvchilarini keyingi faoliyatini kuzatib, o'qish savodxonligi, tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik mahorati, matematika fanlarini integratsiyalashga qaror qilishdi va dastlab, STEM (Science, Technique, Engineering and Math) tizimini ishlab chiqqan. Keyinchalik unga san'at (Art) qo'shib STEAM ta'limini oxirigacha shakllantirdi.

Boshlang'ich ta'limda STEAM – ta'limning vazifasi o'quvchilarni tabiiy va texnik fanlarga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishdan iborat. ta'limda o'quvchilarni bajaradigan ishini sevib bajarish, qiziqishlarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

PIRLS ta'limi asosida yondashish bu o'quvchilarda muammoni keng qamrovli tushunishda quyidagi muhim xususiyatlari va ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

PIRLS ta'lim asosida muammolarni keng qamrovli tushunish

Umumta'im muassasalarida boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari tomonidan o'quvchilarga xalqaro tajribalar va jalb etilgan xalqaro konsultantlarning tavsiyalarini inobatga olib zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim berishni,


o‘qituvchilarni o‘quvchilarga ta’lim berishda asosan PIRLS asosida yondashib ta’limni tashkil etish zarurligini taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan maqsad va vazifalar ijrosi yuzasidan hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-sonli Farmoni, 2019-yilning 26-noyabrdagi “Zamonaviy maktablar’ni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4537-son qarorida umumta’lim maktablarini, shu jumladan, o‘quv sinflarini yangi shart-sharoitlarga mos va qulay mebellar bilan jihozlash, zamonaviy o‘quv va laboratoriya uskunalari bilan ta’minlash, o‘quvchilar uchun darsliklar va o‘quv-uslubiy materiallar, kompyuterlar va multimedia texnikasi, videokuzatuv tizimlari bilan jihozlash, o‘quv rejalari va dasturlarini optimallashtirish, innovatsion, shu jumladan, masofaviy pedagogik usullardan keng foydalanish, ushbu jarayonning samaradorligini oshirishni nazarda tutgan holda muassasa rahbari va pedagogik xodimlari malakasini oshirish tartibi va tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqilishi belgilangan. [2, 9]

Shunga ko‘ra, Respublikamizning barcha hududlarida iqtidorli yoshlarni aniqlash maqsadida Prezident maktablari ochildi va faoliyat ko‘rsatib kelinmoqda. Ular PIRLS fanlarini o‘qitishga ixtisoslashgan bo‘ldi. PIRLS ta’limi — maktab o‘quvchilarini yangi o‘qitish metodikasi bo‘lib, an’anaviy o‘qitish tizimiga muqobil tizim hisoblanadi. U o‘quvchilarni bir vaqtning o‘zida (PIRLS):

Tinglab tushunish bo‘yicha o‘qitish tizimiga asoslangan.

Bunda, o‘quvchilar amaliy va ko‘ngilochar loyihalar mashg‘ulotlari yordamida saboq oladilar. PIRLS ta’limi asosida yondoshganda o‘quvchilarda bir qancha quyidagi qobiliyatlarni rivojlantirishda yordam beradi.



PIRLS ta’lim texnologiyalari asosida rivojlantiriluvchi qobiliyatlar.

Boshlang'ich ta'limda PIRLS va STEAM – ta'limdan foydalanish bu o'quvchilarda tabiiy va texnik fanlariga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishda, bajaradigan ishini sevib bajarish, qiziqishlarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. [4, 21]

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 31-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi xalqiga yangi yil tabrigida maktab darsliklari, yoshlarga berilayotgan ta'lim, ayniqsa 2024-yilni "Yoshlar va biznesni qo'llab – quvvatlash yili" deb nom berganligi, kelgusi yildan boshlang'ich sinflarda mutlaqo yangi metodika asosida yaratilgan darsliklar bo'yicha o'qitish yo'lga qo'yiladi. Hozirgi vaqtda ular xalqaro ekspertizadan o'tib, o'zimizda sinovdan o'tkazilmoqda. Lekin yuqori sinflarda-chi? Ochiq aytish kerak, ularda berilayotgan ta'lim va tarbiya sifati, o'qituvchilarning bilimi va mahoratini talab darajasida, deb bo'lmaydi deb ta'kilagan edi.

Yurtimizda bugungi kunda yosh avlodni yetuk barkamol avlod qilib tarbiyalash eng muhim vazifalardan biri sanaladi. Bu vazifalarni bajarish, albatta pedagoglarga bog'liqligi, shu maqsadda yoshlarga bilim berishga katta e'tibor qaratish lozim.

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, yoshlarni erkin fikrlash va mustaqil hayotga yo'naltirishimiz kerak.

Bu borada umumta'lim maktablarida PIRLS ta'limi bizga qo'l keladi. PIRLS-tinglab tushunib o'qitish uslubidir. PIRLS ta'lim texnologiyasida nazariy va amaliy bilimlar uyg'unligiga e'tibor qaratiladi. PIRLS ta'limi muhitida o'quvchilar bilimga ega bo'ladi va darhol undan foydalanishni o'rganadilar. Milliy dastur asosida ishlab chiqilgan 1-2 sinflarning ona tili va o'qish savodxonligi, tabiiy, matematika darsliklarida berilgan mavzularga PIRLS ta'lim texnologiyasi asosida yondashib, darslar tashkil etsa bo'ladi. Xususan, tabiiy fanlarda har bir mavzu nazariy ham amaliy tarzda berilgan. Jumladan, 2-sinf tabiiy fanida Yer-sayyora mavzusi berilgan. Bu mavzuni o'rganishda o'quvchilar nazariy bilim bilan birga amaliy mashg'ulot ham o'tkazishadi. O'quvchilar yer shari, quyosh modelini yasashadi. Bu bilan ular yer shari quyosh atrofida aylanishini amaliy bilib oladilar shu bilan birga yer sharining global muammolarini bartaraf etish choralarini o'ylab topishadi. Biz shu mavzu asosida o'quvchilarni bilishga, fikrlashga, mustaqil ishlashga, ijodkorlikka undashimiz mumkin. Nafaqat darslarda balki sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ham PIRLS ta'limi texnologiyasidan oqilona foydalanish kerak. Mashg'ulotlarni tashkil etishda kasb-hunar egalari taklif etilsa, ular o'z kasblari haqida nazariy bilim bilan birga amaliy ko'rsatib bersa, bu bolalarda yaxshi taassurot qoldiradi. Kelajakda kasb tanlashda, o'z yo'nalishini topib oladilar. [6, 11]


PIRLS ta'limi asosida fanlarni o'zlashtirish.

PIRLS ta'limi texnologiyalari fanlar bo'yicha emas, balki mavzular bo'yicha integratsiyalashgan yani jarayonlar bo'yicha o'qitish tizimidir.

Integratsiya so'zi – bu ayrim bo'lak qismlarning birlashib, bir butun bo'lishidir. Shu sababli, ta'lim jaroyonida o'quv fanlarini integratsiyalashda asosiy masala va vazifalarning o'zaro birligini ta'minlashda, bunda maqsad, metod, shakl, vositalar va kuzatilgan natijalarni belgilab olishdir. Ta'limni integratsiyalash o'quvchilar dunyoni yaxlit tasavvur qilish qobiliyatini rivojlantirish, dunyoqarashini shakllantirish orqali o'ziga qulay turli xil g'oyalarni yaratish imkoniyatlarini beradi. PIRLS ta'limi texnologiyalari amaliy mashg'ulotlar yordamida ilmiy texnik bilimlarni hayotiy jarayonlarda qo'llay olishidir.

PIRLS ta'limi texnologiyasi asosida yondashuvining asosiy farqi shundaki, o'quvchilar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'rganish uchun ham aqlini va qo'llarini ishlatadi. Shunda ular olgan bilimlarini tezroq o'zlashtirib oladilar. Sababi, o'quvchilar bir vaqtning o'zida ham nazariy, ham amaliy bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar. O'quvchi biron-bir dolzarb muommoni kelib chiqish sabablari va unga bir necha xil yechimini topish darkor. Masalan, bu muammo tabiatning ifloslanishi yoki suvning ifloslanishi bo'lsin. Mana shu muommoning xal etish uchun bir necha fanlar majmuyini birlashtirib, muommani kelib chiqish sabablarini topish mumkin. PIRLS ta'lim texnologiyasi bizda nafaqat o'qitish usuli, balki fikrlash tizimi hamdir rivojlantiradi.

PIRLS ta'lim texnologiyasi yordamida o'quvchilarning amaliy qobiliyatiga alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchilar o'zlarining ijodkorligini, irodasini, moslashuvchanligini rivojlantiradi hamda mayda qo'l matorikasi, atrof-muhit bilan, atrofdagi do'stlari bilan hamkorlik qilishni o'rganadilar, o'quvchilarning kreativ fikrlash tizimini takomillashtiradi. Bundan tashqari, bu texnologiya o'quvchilarga hayotni yorqin ranglarda tasavvur etishga yordam beradi. Bir vaqtning o'zida to'rtta fanlarga doir metodlarni jamlab o'quvchilarni fanga yanada qiziqtirish ularning bilim va ko'nikmalarini yanada oshirish, bu oshirgan bilim va ko'nikmalarini eng asosiysi amaliyotda qo'llay bilish, keyinchalik hayot faoliyatida ishlatish PIRLS ta'limi texnologiyasining eng asosiy maqsadlaridan biridir.



PIRLS ta'lim texnologiyalari asosida o'quvchilarda rivojlantiriladigan muhim xususiyatlar va ko'nikmalar.


O'qituvchilarning ish uslublarining bir xilligi o'quvchilar orasida qiziqishning pasayishiga olib keladi. Ta'limda muammoli vaziyatlarni modellashtirish yangilik emas. Bu usul dastlab Qadimgi Gretsiyada qo'llanilgan. Muammoli vaziyat, odatda, shaxsga ma'lum bo'lgan vositalar yoki usullar orqali erisha olmaydigan intellektual qiyinchilik deb talqin etiladi. Kutilmagan qiyinchilik mustaqil qidiruv ishlarini olib borishga undaydi Umumiy holda, muammoga asoslangan ta'lim nostandart harakatlarni, "bilimlarni o'zlashtirishning reproduktiv darajasidan ijodiy qidiruv ishlariga o'tish" ni taqazo etadi.

Buning uchun bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida PIRLS ta'lim texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini takomillashtirish zarur.

Pedagogikada kompetensiya tushunchasi inglizcha "**competence**" tushunchasidan olingan bo'lib, lug'aviy jihatdan bevosita "qobiliyat" degan ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa, "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish"ni yoritishga xizmat qiladi. [7, 10]

PIRLS ta'limi texnologiyalarida fanlararo aloqa va loyihalash metodi birlashtirilgan bo'lib, uning asosida tabiiy fanlarni texnologiyaga, muhandislik ijodiyotiga va matematikaga integratsiya qilish yotadi.

PIRLS ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning quyidagi metodik kompetensiyalari takomillashadi.



Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kompetensiyalarini takomillashtirish.

PIRLS ta'limi texnologiyalari asosida:

- boshlang'ich ta'limda o'quvchilarga amaliy mashg'ulotlar yordamida ilmiy-texnik bilimlaridan real hayotda foydalanish ko'nikmalarini namoyon qiladi;
- o'quvchilar ta'limda va ijtimoiy hayotda yuzaga kelgan turli muammolarni yengishda zarur bo'ladigan tanqidiy tafakkur va muammolarni yechish ko'nikmalari shakllanadi;
- o'quvchilarning ta'lim olish jarayonida ijodiy yangiliklar yaratib borishi va uni sinovdan o'tkazib yanada takomillashtirib boradilar hamda barcha muammolarni o'z kuchlari bilan yengib maqsadiga erishadilar. Bu o'quvchilar uchun ruhlanish, g'alaba va quvonch olib kelib, har bir g'alabadan so'ng o'z kuchiga yanada ishonch ortadilar;
- o'quvchilar faol kommunikatsiya va komandada ta'lim olish bilan birga, muloqot jarayoni o'z fikrini bayon qilish va bahs-munozara olib borish uchun erkin muhit yaratiladi.

PIRLS ta'lim texnologiyalari asosida boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning metodik kompetensiyalarini takomillashtirish jarayonida o'qituvchilarda quyidagi ta'lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqalarni o'rnatish ko'nikmalari shakllanadi.

PIRLS ta'limi asosida boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning kompetensiyalarini takomillashtirish.

PIRLS ta'lim texnologiyalari asosida boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining metodik kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limda o'quvchilarni o'zlashtirilgan axborotlarni o'quv va hayotiy faoliyat turlarining standart va nostandart vaziyatlarida qo'llay olishiga tayyorlashi bilan harakterlanishini aytish mumkin. Shuningdek, boshlang'ich ta'limni zamonaviy rivojlanish talablariga moslashtirish fanlardan elektron ta'lim resurslarini takomillashtirish, o'quvchilarning elektron manbalar bilan faol muloqotini ta'minlash, mustaqil ta'limni amalga oshirish va o'z-o'zini baholash, zaruriy ma'lumotni operativ izlab topish va kreativ fikrlash, yuzaga kelayotgan muammolarni hal etishda undan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirishni ham nazarda tutadi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida talabalarini yuqori saviyadagi malakali pedagog kadrlarni tayyorlash muhim muammo sifatida qaralmoqda. Shunday ekan, ushbu talablardan kelib chiqqan holda bilimdon, mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, yuqori malakali, madaniyatli, turli soha egalarini tayyorlash dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, PIRLS ta'limi umumta'lim maktabida boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari faoliyatini amalga oshirishda innovatsion texnologiya asosida yondashuv, ta'limni aralash turda olib borish va o'quvchilar dars mashg'ulotlarida egallagan nazariy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishda quyidagi bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga imkon beradi.

PIRLS ta'lim texnologiyalari, bugungi kunda boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun bir qancha afzalliklarni taklif etadi.

PIRLS ta'limi texnologiyalari asosida fanlarni o'zlashtirishning o'ziga xos usullari mavjud. Bunda, PIRLS ta'lim texnologiyalari asosida o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirish jarayonida yangi va qiziqarli usullar ishlatishga imkon beradi. Bu esa o'quvchilarning quyidagi qiziqishlarini kuchaytiradi va bilimlarni yodga solishni mustahkamlashtiradi.

Xulosa. PIRLS ta'limi texnologiyasi asosida yondashuv o'quvchi yoshlarga dunyoni anglashga va atrofda ro'y berayotgan jarayonlarni mantiqiy mushohada qilishga, ulardagi o'zaro aloqani anglab yetishga o'zi uchun yangi, noodatiy va qiziqarli narsalarni kashf qilishga imkon yaratadi. O'quvchi yoshlarda qiziquvchanlikni rivojlantiradi, o'zi uchun qiziqarli bo'lgan masalani aniqlab olishni, yechimini matematik jihatdan topishni ishlab chiqishni, natijalarni tanqidiy baholashi, fikrlashning muhandislik jihatlarini shakllantirishga va amaliyotda san'at darajasida qo'llay olishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. SH.M.Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” – Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017-yil, 592 bet 10-bet.

2. Incheon declaration // Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015. Incheon, Republic of Korea). – 48 p.

3. Muslimov N.A. “Bo‘lajak kasb ta‘lim o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish” /Monografiya.–Toshkent.: Fan, 2004-yil, 360 bet.

4. Sayidahmedov N.”Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya”. – Toshkent: “Fan va texnologiya”- 2003-yil, 340 bet.

5. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov “Umumiy pedagogika” – Toshkent, “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2018-yil, 530 bet.

6. Safarov, B.N. (2022). PIRLS-XALQARO O‘QISH SAVODXONLIGINI O‘RGANISH BO‘YICHA TARAQQIYOT. Ta‘lim faoliyatida innovatsion rivojlanish, 1 (5), 134-138.

7. Safarov, B.N. (2022 yil, noyabr). MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGIK KOUCHINGNI TOSHKIL ETISHNING DOLZARBLIGI. 21- ASRDA INNOVATSION TA‘LIMNING O‘RNI VA AHAMIYATIGA BASHLANGAN XALQARO KONFERENSIYADA (1-jild, 8-son, 30-35-betlar).

8. Safarov, B. (2021). 6-7 yoshli bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlashda matematika mashg‘ulotlarini ahamiyati: 6-7 yoshli bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlashda matematika mashg‘ulotlarini ahamiyati. Maktabgacha ta‘lim jurnali , 2 (2).

9. Norboyevich, SB, & Axmadjonovna, BM (2023). TA‘LIM MUASSASALARIDA TA‘LIM-TARBIYA JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING BOSHQARUV PRINSPLARI. Ta‘lim faoliyatida innovatsion rivojlanish , 2 (4), 18-23.

10. Tayirov M. BOLAJAK OQITUVCHILARNING KASBIY MADANIYATIGA QOYILGAN TALABLAR //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. – 2021. – №. 3.

11. Мелиев Х. А., Сафаров Б. Н. ОИЛА, МАКТАБ ВА МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТИ ҲАМКОРЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ

МАЗМУНИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 1312-1316.

12. Bo'ltakov S., Begaliyeva H. TA'LIM JARAYONIDA KREATIV FIKRLASHNING AHAMIYATI //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 129-132.

13. Norboyevich, Safarov Botir. "XALQARO BAHOLASH DASTURLARI (PIRLS) ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH." *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* 1 (2023): 103-105.

14. Norboyevich, Safarov Botir, and Nabiyeva Gulnora. "BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI AQLIY TARBIYALASHDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI." *CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH*. Vol. 1. No. 1. 2024.

15. www.jdpu.uz

16. www.tdpu.uz

17. www.arxiv.uz

MAQOM SAN'ATI VA UNING MAKTAB DARSLIKLARIDA O'QITILISHINING MAQSAD MAZMUNI

Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti, Pedagogika psixologiya va musiqa
yo'nalishlarida masofaviy ta'lim kafedrası stajyor-o'qituvchisi

Pochta manzili: karsiyevamaftuna@gmail.ru

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek milliy merosi bo'lgan maqom san'ati haqida so'z boradi. Sharq xalqi maqom musiqasida asosiy yo'nalish va unda aks etgan mazmun mohiyati ochib bergan. Boshlang'ich sinf va yuqori sinf darsliklariga maqom san'atining kiritilishining asosiy maqsad mazmuni haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar.** Maqom, shashmaqom, san'at, sharq xalqlari, boshlang'ich sinf, yuqori sinf, musiqiy qobiliyat, badiiy did, Raga, Nuga, Kavalli.*

***Аннотация.** В данной статье речь идет об искусстве макама, которое является национальным достоянием узбеков. Восточные народы раскрывают основное направление в музыке макама и суть отраженного в нем содержания. Речь идет о содержании основного назначения введение.*

***Ключевые слова.** Маком, Шашмаком, искусство, восточные народы, начальный класс, высший класс, музыкальные способности, художественный вкус, Рага, Нуга, Кавалли.*

***Annotation.** This article is about the art of maqom, which is the national heritage of Uzbeks. Eastern people revealed the main direction in the music of maqom and the essence of the content reflected in it. it is about the content of the main purpose of the introduction of.*

***Key words.** Maqam, Shashmaqam, art, oriental peoples, primary class, upper class, musical ability, artistic taste, Raga, Nuga, Cavalli.*

Maqom san'ati o'zbek xalqining musiqiy ensiklopediyasidir. Unda xalqimizning qadimiy tarixi, ma'naviy dunyosi, badiiy falsafasi, ruhi mujassam. Shu bois necha asrdirki, maqom bebaho madaniy meros sifatida ardoqlanib kelmoqda. Dunyoda milliy maqomchilik an'analarini yarata olgan xalqlar sanoqli. Maqomni eshitganimizda qalbimizda ajib hislar uyg'onadi. Undagi dard, ohang, rang-baranglik ruhiyatimizga sokinlik olib kiradi. Musiqaning ta'siri, sehri ana shunday qudratga eg Bugun mumtoz san'atimizni chuqur o'rganish, uning nozik sir-asrorlarini targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Prezidentimizning 2017-yil 17-

noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2018-yil 6-apreldagi “Xalqaro maqom san’ati anjumanini o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorlari o‘zbek mumtoz musiqasi tarixida yangi davrni boshlab bergan muhim hujjatlar bo‘ldi. Bu hujjatlarda maqom san’atini yanada rivojlantirish va uni butun dunyo bo‘ylab tan olinishiga imkon yaratish borasida muhim vazifalar belgilab berilgan

Maqom san’atini yoshlarga singdirish, uni tinglay olish qobiliyatini shakllantirishda nimalarga e’tibor qaratish lozim?

– Maqom san’atini yoshlar ongiga singdirib borish va ularda maqom namunalarini tinglash qobiliyatini shakllantirish juda muhim. Yuqorida nomi keltirilgan qarorda belgilab o‘tilgan vazifalar asosida maqom san’atini yoshlar ongiga sindirish va ularni maqom san’atiga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish maqsadida O‘zbek milliy maqom san’ati markazi tashkil etildi.

Markaz tomonidan yillik reja asosida joylarda, ta’lim muassasalarida maqom kechalari o‘tkazish va maqom san’ati mazmun-mohiyatini hamma tushunadigan tarzda targ‘ib qilish masalasi ko‘tarilmoqda. Bundan tashqari, O‘zbek milliy maqom san’ati markazi tomonidan yoshlarni psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, maqom namunalarini saralab olish va ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonida foydalanish uchun uslubiy qo‘llanmalar va maqom alifbosi darsliklari ishlab chiqarilmoqda. Yangi o‘quv yilidan boshlab maktabgacha ta’lim muassasalaridan to oliy ta’lim muassasalarigacha darslik va audio disklar orqali darslar kiritilishi rejalashtirilgan.

Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharqda keng tarqalgan bu qadimiy san’at jahon musiqashunoslarining doimiy e’tiborida bo‘lgan. Sababi, bu hududlardan yetishib chiqqan Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Abdurahmon Jomiy, Hofiz Sheroziy kabi buyuk mutafakkirlarning adabiy merosini maqom san’atidan ayri tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ana shu jihatdan, jahon adabiyoti va san’atida mushtarak g‘oyalar va umuminsoniy qadriyatlarning shakllanishida maqomning o‘rni beqiyos. Bugun o‘ndan ortiq mamlakat o‘z maqomiga ega. Hindistonning “Raga”si, Pokistonning “Kavalli”si, Eronning “Dastgoh”i, Jazoirning “Nuga”si, Ozarbayjon va armanlarning “Mug‘om”i, arablarning “Maqom”i, uyg‘urlarning “Muqom”i bor. Ming yillik tarixga ega bo‘lgan musulmon Sharqi musiqasida asosiy tushunchalardan biri. Maqom san’ati ko‘p asrlardan buyon o‘z mohiyati, badiiy qiymatini yo‘qotmasdan kelmoqda maqomlar nafaqat Sharq musiqasi madaniyati, balki insoniyat qo‘lga kiritgan ulkan hodisadir. Zotan maqomlar insonlarda sof, muqaddas tuyg‘ularni uyg‘otuvchi, ruhiyatni nafs to‘siqlari uzra asl maqomlari sari yuksalishga da’vat etuvchi ma’naviy navolarimizdir. Maqom san’ati o‘zining ko‘p asrlik tarixiga ega bo‘lib, avloddan avlodga —ustoz-shogird an’anasi orqali meros bo‘lib o‘tib kelayotgan kasbiy musiqaning namunasidir.

Kasbiy musiqaning shakllanishida saroy madaniyati muxim o‘rin tutgan bo‘lib, xalq orasidan yetishib chiqqan istedodli musiqachilar xon saroylarida musiqachi bo‘lib xizmat qilganlar. Shu davrdan boshlab kasbiy musiqa rivojlangan. Maqom san‘ati bilan asosan kasbiy musiqachilar maxsus shug‘ullanganlar. Maqomlar kasbiy musiqaning eng salmoqli va murakkab qismini tashkil etadi O‘zbekistonda maqomlarning uch turi mavjud bo‘lib, ular quydagicha nomlanadi:

1. Olti maqom (Shashmaqom yoki Buxoro maqomlari)
2. Xorazm maqomlari
3. Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari

Shashmaqom XVIII asr o‘rtalarida Buxoroda saroy kasbiy musiqachilari va musiqashunos olimlar tomonidan Olti maqomdan iborat turkum tarzida ifoda etilgan. Shashmaqom oltita mukammal pardalar uyushmasini anglatadi. Maqom cholg‘u kuy va aytim (ashula) turkumlari shu mukammal pardalarning ma‘lum doira usullari bilan mushtarakligi natijasida yuzaga keladi. Shashmaqomdagi xar bir maqom ikki yirik bo‘limdan-cholg‘u va aytim (ashula) yo‘llaridan iborat bo‘lib, ularni —ustoz shogirdl an‘anaviy maktabida tahsil ko‘rgan malakali kasbiy cholg‘uchi va ashulachi-xofizlargina ijro etadilar. O‘tmishda bastakorlarning faoliyati turlicha bo‘lgan. Dastlab ular maqomlar va xalq musiqa asarlari asosida betakror kuy va ashulalar yaratganlar.

Yana, bastakorlar maqom pardalari negizida yangi-yangi yo‘llar, yaratganlar, tayyor kuyga yangi pardalar kiritib, yoki uni boshqa doira usuliga tushirib, jozibali va mukammal asarlarni yuzaga keltirganlar. Binobarin, she‘r matnlarining ashulaga shaklan hamda mazmunan moslab tushirilishiga ham alohida ahamiyat berganlar. Shashmaqomdagi turkumlarning yuzaga kelishiga bastakorlardagi bunday tajriba alohida ahamiyat kasb etadi. Ba‘zan sho‘balar, masalan, Buzruk maqomidagi Talqini

Uzzol, Nasri Uzzol va Ufari Uzzol qismi ohangdosh ashulalar bo‘lib, faqat doira usuli va she‘r o‘lchovidangina farq etadi. Shashmaqom turkumlari ko‘pincha ashulalarning yangidan-yangi variantlarini yaratish bilan takomillashtiriladi. Shunday qilib, Shashmaqom o‘tmishdagi bastakorlik an‘analarining mahsuli sifatida, maqomchilikdagi boy tajribaga asoslangan holda yuzaga keldi. Keyingi ikki asrdan ko‘proq, o‘tgan davr ichida, bir sozanda – xonandadan ikkinchisiga og‘zaki tarzda o‘tib kelishi jarayonida Shashmaqom tobora juda katta o‘zgarishlarga uchradi va bizgacha boyib bordi. Yuqori sinf o‘quvchilari uchun kiritilgan maqom san‘ati haqidagi nazariy ma‘lumotlar va ijro etish usullari o‘quvchilarda qadimiy san‘at uchun qiziqish bildiradi. Maqom san‘ati faqatgina yosh ulug‘ tinglovchilar uchungina emas ekanligi tinglovchilar yoshini ‘yoshartirishga’ va ommaviy madaniyatni oldini olishga ancha xizmat qilib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oqilxon Ibrohimov San'atshunoslik fanlari doktori, professor 'Maqomlar tarixiga doir'

2. MAKTABGACHA TA'LIMDA TIZIMIDA MUSIQANING TA'LIM TARBIYADAGI AHAMIYATI Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi Jizzax davlat pedagogika universiteti, Pedagogika-psixologiya va musiqa yo'nalishlarida masofaviy ta'lim kafedrası stajyor-o'qituvchisi

3. GENERAL DIDACTIC PRINCIPLES OF MUSIC LESSONS IN ELEMENTARY GRADES Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi Jizzakh State Pedagogical University. Intern-teacher of the department of distance education in the fields of pedagogy, psychology and music Mailing

4. BOSHLANG'ICH SINFLARDA MUSIQA DARSINING UMUMDIDAKTIK TAMOYILLAR Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi Jizzax davlat pedagogika universiteti, Pedagogika-psixologiya va musiqa yo'nalishlarida masofaviy ta'lim kafedrası stajyor-o'qituvchisi .

5. BOLALAR XOR JAMOALARI BILAN ISHLASHDA O'QITUVCHINI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI YOKI MUHIM JIHATLARI. .Sunnatova Sevara Islom qizi. Jizzax davlat pedagogika universiteti, Pedagogika-psixologiya va musiqa yo'nalishlarida masofaviy ta'lim kafedrası stajyor-o'qituvchisi

6. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA TO'GARAKLARINI TASHKIL ETISHDA MUSIQA O'QITUVCHISIGA QO'YILGAN TALABLAR .Sunnatova Sevara Islom qizi. Jizzax davlat pedagogika universiteti, Pedagogika-psixologiya va musiqa yo'nalishlarida masofaviy ta'lim kafedrası stajyor-o'qituvchisi .

SUT VA SUT MAHSULOTLARIGA ISHLOV BERISH KORXONASI OQOVA SUVINI TOZALASH

Boboyeva Gulmira Sodikovna

Mirzo Ulug‘bek nomidagi

Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Universiteti, v.v.b. dotsent

Buta Oralovich Xushvaktov

Mirzo Ulug‘bek nomidagi

Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Universiteti, katta o‘qituvchi

b.khushvaktov@samdaqi.edu.uz

Annotatsiya: Tindirish va filtrlash bosqichidan tashqari bioreaktorlarda faol biomassa va mikroorganizmlarni to‘liq ushlab qolishda, har xil sohali sanoat korxonalarida membranali bioreaktorlarni ishlatish tajribasi ijobiydir, sut va sut mahsulotlariga ishlov berish korxonasida berilgan texnologiyasini qo‘llash maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: xloroform, flotasiya, koagulyasiya, mikroorganizm, membrana, bioreaktor, muallaq modda, alyuminiy sulfat, efir, polietilen, polisulfon, polietilensulfon, poliakrilanitril, polivinilidenftorid, polivinilxlorid (chloroform, flotation, coagulation, microorganism, membrane, bioreactor, hanging substance, aluminum sulfate, ether, polyethylene, rolyulfone, polyethylenesulfone, polyacrylanitrile, polyvinylidenftoride, polyvinyl chloride).

Annotation: Positive experience in operating membrane bioreactors at enterprises in various industries with a multiple increase in the concentration of active biomass and complete retention of microorganisms in bioreactors, eliminating sedimentation and filtration steps, shows the feasibility of using this technology in dairy industry enterprises.

Sut va sut mahsulotlariga ishlov berish korxonasining oqova suvini tozalashda bir qancha usullar mavjud, ularning ifloslik miqdori va tavsifiga bog‘liq holda korxonaning oqova suvini tozalash usullari tanlanadi. Shahar oqova suvlarini oqozish tarmog‘iga tashlashdan oldin suv va suv mahsulotlariga ishlov berish korxonasining oqova suvini tozalash mavjud talablar mos holda, ya’ni mahalliy tozalash inshootlarida biologik tozalash talab etiladi.

Shuning uchun sut va sut mahsulotlariga ishlov berish korxonasi mahalliy tozalash shahobchasi, ixcham, oddiy va ishlatishda ishonchli, oqova suvlarni tozalashning talab qilinadigan darajalarini har qanday holatda ham ta'minlab turishlari kerak bo'ladi.

Ko'pgina sut va sut mahsulotlariga ishlov berish korxonasida tozalash shahobchasi yo mavjud emas, yo past samara bilan ishlaydi, samarali mahalliy tozalashni tashkil qilish masalasi juda dolzarb bo'lib qolmoqda.

Bu maqsadga erishishda sut va sut mahsulotlariga ishlov berish korxonasi oqova suvini tindirish yoki flotasiyalash bilan koagulyasiyalash usullari keng miqiyosda ishlatilib kelinayabdi, lekin sut va sut mahsulotlariga ishlov berish korxonasi oqova suvining tarkibi turlichadir, sutlarga ishlov berishda texnologik jarayon vaqtida ulardagi birikmalar tuzilishi o'zgaradi, sut va sut mahsulotlariga ishlov berish korxonasi oqova suvini tozalashda, yuqoridagi usullarni ishlatishda bir qator kamchiliklar mavjud, an'naviy turdagi koagulyantlar ulushi yuqori, pH muhiti doimiy ko'zatishda bo'lishi kerak, koagulyasiyalash jarayonlari ham barqaror emas, shuning uchun oqova suvdan organik iflosliklarni tozalash samarasi past yetarli darajada emas.

Sut va sut mahsulotlariga ishlov berish korxonasi oqova suvining *KKE* va *KBET* si qiymati ham keng oraliqlarda o'zgaradi va sut va sut mahsulotlariga ishlov berish korxonasi uchun mos ravishda o'rtacha 2400 va 1400 mg/l ni, pishloq ishlab chiqarish zavodlari uchun 3000 va 2400 mg/l ni tashkil qiladi. Bunda *KKE* bo'yicha organik moddalar ulushining turlicha qiymati 8000 – 12000 mg/l gacha o'sishi mumkin [1.2].

Ko'proq batafsil sinflanishida *KKE* va *KBET* moy ishlab chiqarish zavodlari uchun 1500 va 1200 mg/l ni, quruq sut mahsulotlari ishlab chiqarish uchun 1200 va 1000 mg/l ni, sut qabul qilish punktlari uchun 900 va 700 mg/l ni, sut – konservalar uchun 1200 va 1000 mg/l ni ko'rsatadi [1.4.5.6].

Ko'proq oxirgi yillardagi ilmiy ishlarda *KKE* chegarasi kengaymoqda va qiymati 2300 – 3700 mg/l ni [1], 2000 – 6000 mg/l [1], va 5000 mg/l gacha hosil qilmoqda, korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotning keng assortimenti esa ma'lum oqova suvlarning sinflanishga olib kelmaydi [1, 2, 3].

Sut va sut mahsulotlariga ishlov berish korxonasi, mahsulotlarni ishlab chiqarishning turli ko'rinishi bo'yicha nitajada alohida – alohida har bir oqova suvni koagulyasiyalash jarayonining mexanizmini chuqurroq o'rganishda kerakligi, yangi ko'rinishdagi koagulyantlarni ishlatishga, oqova suvni ko'rsatilgan turlarining mahalliy tozalash inshootlaridagi texnologik jarayonlarini takomillashtirish zaruratiga to'g'ri keladi.

Sut va sut mahsulotlariga ishlov berish korxonasi oqova suvining kimyoviy tahlilida, efir yoki xloroform bilan ajratiladigan yog'lar va yog'ga o'xshash moddalar

miqdori aniqlanadi. Yuqori yog‘li mahsulot ishlab chiqarishga mo‘ljallangan korxonalar va sexlarning oqova suvlaridan ajratilgan moddalar ulushi 200 – 400 mg/l ni tashkil qiladi, odatda boshqa turdagi ishlab chiqarish oqova suvlarida 100 mg/l dan oshmaydi [3].

Keyingi bosqichlarda sut va sut mahsulotlariga ishlov berish korxonasi ifloslangan oqova suvlari aholining xo‘jalik - maishiy yoki boshqa korxonalarining xo‘jalik - maishiy oqova suvlari bilan birgalikda tozalashga uchraydi. Umumiy tozalash inshootiga oqova suvni uzatish iqtisodiy maqsadga muvofiq va texnologik imkoniyat mavjud bo‘lmaganda faqat mustaqil tozalash inshootlari ishlab chiqiladi.

Sut va sut mahsulotlariga ishlov berish korxonasi oqova suvini tozalashning flotasionli usulini ishlatish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ya‘ni kichik samarali koagulyantlarni qo‘shmasdan flotasiyalash, chunki faqat yog‘lar ulushini 50 – 60 %, KKE 35 – 45 %, muallaq moddalarni esa 40 – 50 % gacha pasaytirishga olib keladi [1.2.3].

Muhit ko‘rsatkichi $pH = 6,7$ va KKE bo‘yicha ifloslik 1000 mg/l bo‘lganda koagulyantlar sifatida ulushi 100 mg/l (suvsiz tuzlar bo‘yicha) bo‘lgan alyuminiy sulfat yoki temir xlorid ishlatilganda muallaq moddalar bo‘yicha tozalash samaradorligi 75 – 80 %, yog‘ bo‘yicha 80 – 90 %, KBEt bo‘yicha 60 – 70 % ni tashkil qiladi.

Biroq reagentlar ulushi yuqoriligi sababli reagent xo‘jaligi murakkab va hosil bo‘ladigan cho‘kmaning (oqova suvning miqdori 10 % gacha) hajmi katta, [1, 3, 4] spravochnikdagi mualliflarning fikri bo‘yicha reagentli va bosimli flotasiyalash qo‘llash maqsadga muvofiq emas. Bundan tashqari reagentli ishlov berishdan keyingi flotoshlam ancha miqdorda metall ionlaridan iborat bo‘ladi, ya‘ni aerobli barqarorlashning keyingi jarayonini ingibirovatlash mumkin, flotoshlamni suvsizlantirish jarayoni murakkablashadi va suyuq chiqindilarni tashishda xarajatlar oshgadi.

Shuning uchun reagentsiz flotasiyalash jarayoni bu turdagi oqova suvni tozalashda ancha afzal ko‘riladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ya‘ni tasvirlardan ma‘lumki keyingi biologik tozalashda reagent bilan flotasiyalashni ishlatish oqova suvdagi fosfatlarni birdan pasayishga olib keladi, ya‘ni biologik tozalash jarayonlarni mo‘tadil o‘tishiga to‘sqinlik qiladi.

Shunga qaramasdan, sut va sut mahsulotlariga ishlov berish korxonasi oqova suvlarini dastlabki reagentli ishlov berish keng ishlatilmoqda, tadqiqot natijalari esa maqbul reagentlar va ularning ulushini tanlashga yo‘naltirilgan [5]. Sut va sut mahsulotlariga ishlov berish korxonasi oqova suvini tozalash inshootidan foydalanish

amaliyotida ham ularni alyumokremniy koagulyanti – flokulyanti, modifisirovanlash va modifisirovanlashsiz, bioflokulyant [6] va qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish chiqindilari asosidagi koagulyant bilan ishlov berish amalga oshiriladi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar ko‘rsatadiki, ya’ni alyuminiy koagulyanti, sut va sut mahsulotlariga ishlov berish korxonasi oqova suvini tozalash uchun muvaffaqiyatli ishlatilmoqda hamda an’anaviy koagulyant – alyuminiy sulfat bilan taqqoslanganda bir qator afzalliklarga ega. Oqova suvlar tarkibiga bog‘liq holda alyuminiy ishlatish bilan sut zavodlarining oqova suvlarini mahalliy tozalashning qo‘lay holati aniqlanadi.

Sut va sut mahsulotlariga ishlov berish korxonasi oqova suvidan organik iflosliklarni ketkazishning biologik usullari ko‘proq iqtisodiy samarali va ekologik qabul qilsa bo‘ladigan hisoblanadi. Amaliyotda sut va sut mahsulotlariga ishlov berish korxonasi oqova suvini tozalashning biologik usullariga asoslangan turli xil variantlari ishlatiladigan bo‘ldi.

Sut va sut mahsulotlariga ishlov berish korxonasi oqova suvining organik tarkibi sutdagi yog‘lar tarkibiga bog‘liq holda, koagulyant miqdorini o‘zgartirmay turib tekshirilganda, oqova suvdan organik moddalarni tozalash samarasi ortib boradi. Sut va sut mahsulotlariga ishlov berish korxonasi oqova suvi tarkibidagi yog‘lar miqdori, ya’ni dastlab yog‘siz oqova suvlar keyinchalik esa 33 % gacha bo‘lgan oqova suvlar koagulyant yordamida tozalanganda, pH ko‘rsatkichi 5 – 6 bo‘lganda, oqova suvdan organik moddalarni eng yuqori miqdorda tozalash samaradorligiga erishiladi [1.6].

Membranali bioreaktorda qo‘llaniladigan membrana asosan polimerlardan (polietilen, polisulfon, polietilensulfon, poliakrilanitril, polivinilidenftorid, polivinilxlorid va boshqalar), ko‘pincha esa organik bo‘lmagan materiallardan (*Al, Ti, Zr* oksidlari va boshqalar) tayyorlanadi. O‘zining geometriyasi bo‘yicha membranali bioreaktordagi membranalar quvurli, silliq romli va yarim tolaliga bo‘linadi. Yarim romli va yarim tolali membranalar sut va sut mahsulotlariga ishlov berish korxonasi oqova suvini tozalash amaliyotida keng tarqalgan [1.2.7.8.9].

Membranali bioreaktor texnologiyasining talab qiladigan muhim ma’lumotiga, ma’lum texnologiyasini ishlatish bilan sut va sut mahsulotlariga ishlov berish korxonasi oqova suvini tozalash bo‘yicha qurilmani ishlatishda qo‘shiladiganlarning doimiy o‘shish miqdori kiradi. 2010 yildan beri 7000 dan ortiq tozalash inshootida va butun jahon bo‘yicha oqova suvlarni chuqur tozalashda uning muvaffaqiyatli qo‘llanilishi aniqlandi [1.2.10].

Umumlashtirilgan ma’lumot bo‘yicha membranali bioreaktor bilan tozalash inshooti xo‘jalik – maishiy oqova suvning 60 % ini tozalamoqda va ishlab chiqarish oqova suvini ishlov berishda 40 % ishlatilmoqda. Barcha membranali bioreaktor

qurilmasining 99 % dan ko‘prog‘i botirilgan turdagi membrana moduli bilan ta‘minlangan, chunki ular 15 g/l gacha gil ulushi bilan qiyin holatlarda ishonchli ishlashini ta‘minlaydi va energiya xarajati juda pastligi va xizmat ko‘rsatish oddiyligi bilan ajralib turadi [1.3].

Oqova suvlar tarkibidan muallaq moddalarni ketkazish bilan birga membranalar yuzasida zararsizlantirish ham sodir bo‘ladi, ya‘ni oziq – ovqat sanoat korxonasi oqova suvlari uchun asosan dolzarbdir.

Sut va sut mahsulotlariga ishlov berish korxonasining real oqova suvini tadqiq qilish, sut va sut mahsulotlariga ishlov berish korxonasining oqova suvini tozalashda membranali bioreaktorni ishlatish texnologiyasini qo‘llab tozalangan oqova suvni shahar oqova suv oqizish tarmog‘iga tashlash maqsadga muvofiqligi va istiqbolligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Видякин, М.Н. Особенности внедрения мембранных биореакторов для обработки сточных вод / М.Н. Видякин, С.А. Гарипова // Экология производства. – 2014. – № 11. – С.61 – 68.

2. Oralovich , B., Xolov , F., & Namazovich , M. (2024). SHAHAR OQOVA SUVINI BIOLOGIK TOZALASHDA IXCHAM QURILMANI QO‘LLASH. *Interpretation and Researches*, 2(1(23)). извлечено от <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/1740>.

3. Buta Oralovich Xushvaqtov. (2023). OQOVA SUVLARNI TOZALASHDA HOSIL BO‘LADIGAN CHO‘KMALARGA ISHLOV BERISH. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(4), 24–27. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/765>.

4. Xushvaktov, B. (2023). AVTO PARK OQOVA SUVLARINI FLOKULYANTLAR YORDAMIDA TOZALASH. *Interpretation and Researches*, 1(16). извлечено от <http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/1465>.

5. Mirzayev, M. N., & Xushvaktov, B. O. (2024). BIOLOGIK TOZALASHDA IXCHAM QURILMANI QO‘LLAB SHAHAR OQOVA SUVINI TOZALASH. *Innovative Development in Educational Activities*, 3(2), 157–161. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/2118>.

6. Xushvaktov , B. O., & G‘ofurov, N. A. (2023). SANOAT OQOVA SUVLARINI XROM (III) DAN TOZALASHDA pH MUHITINING

TA'SIRI. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(15), 86–90. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1582>.

7. Xushvaqtov, B., Mirzayev, M., & Asadullayev, F. (2023). SANOAT KORXONASI OQOVA SUVLARINI XROM (III) DAN TOZALASH. *Interpretation and Researches*, 1(8). 361-366 извлечено от <http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/570>.

8. Oralovich, B., & Zokirov, M. (2023). KOAGULYANT VA FLOKULYANTLARDAN FOYDALANIB CHINNI ZAVODI OQOVA SUVLARINI TOZALASH. *Interpretation and Researches*, 1(17). извлечено от <http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/1490>.

9. Xushvaktov, B. O. (2023). YAKKA TARTIBDA JOYLASHGAN KICHIK AHOLI HUDUDINING OQOVA SUVINI TOZALASH. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(24), 396–400. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1994>.

10. Xushvaqtov, B. O. (2023). YER OSTI QATTIQ SUVLARINI YUMSHATISH USULLARINING TAHLILI. *GOLDEN BRAIN*, 1(2), 334–337. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1364>.

ARID HUDUDLARDA EKOLOGIK–MELIORATIV MUAMMOLAR VA BARTARAF ETISH BO‘YICHA TEXNIK YECHIMLAR

Muradov Shuxrat Odilovich, professor, tex. f. d.

Shakirova Zarina Rustam qizi, talaba

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Geologiya va konchilik ishi fakulteti

Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi kafedrası

m.oikos@mail.com

shokirovazarina8@gmail.com

***Annotatsiya.** Uzoq muddatli (1975-2023-yillar) ilmiy-tadqiqot ishlari asosida bir qator dolzarb o‘quv-ilmiy, ekologik -meliorativ muammolar belgilab olindi, ekologiya fanini o‘rganish sifatini, suv va yer resurslari holatini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar berildi. Iqlim o‘zgarishi paytida qurg‘oqchil hududlarda “Ekologiya” fanining mohiyati asoslab berilgan va ekologiyaning asoslari “AVESTO” muqaddas kitobida ilk bor qayd etilganligi isbotlangan. Biologik bo‘lmagan bakalavriat yo‘nalishlari uchun xalqaro standartlarni hisobga olgan holda “Ekologiya” fanidan yangi darslik tavsiya etiladi. Vijdon qonuni ekologik ofatlarning oldini olishning asosiy usuli sifatida qayd etilgan. Qurg‘oqchil hududlarning asosiy muammosi suv resurslari ekanligi ta’kidlangan. Aholini suv bilan ta’minlash bo‘yicha tahlil va yechimlar keltirilgan. Qo‘shimcha resurs sifatida suvni demineralizatsiya qilish texnologiyalari, qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orish tezligini pasaytirish maqsadida sug‘orish, yer osti suvlarini kritik darajadan pastga tushishining oldini olish uchun izolyatsiyalash usullari, jismoniy bug‘lanishni kamaytirish va suvni ko‘paytirish uchun tuproq meliorativ holatini yaxshilash usullari taklif etildi. Chorvachilik va tuproq unumdorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlangan. Suvlarning kimyoviy tarkibini metamorfizatsiya qilish nazariyasi ularning sifatini baholash mezonini sifatida taqdim etilgan. O‘zbekiston hududidagi Amudaryoda daryo oqimidan foydalanish loyihasining muqobil varianti keltirilgan. Qayd etilishicha, suv resurslarini kompleks boshqarish muammolarini hal etish qurg‘oqchil zonada iqlim o‘zgarishiga moslashishning fundamental usuli hisoblanadi.*

***Kalit so‘zlar:** Ekologiya, “AVESTO”, suv resurslari, irrigatsiya, demineralizatsiya, subirrigatsiya, melioratsiya, suvning metamorfizatsiyasi.*

KIRISH

Tarixan O‘zbekiston ekologiyaning vatani hisoblanadi. Buni bundan 3000 yil muqaddam ajdodlarimiz, to‘g‘rirog‘i xorazmliklar ilk bor “AVESTO” (miloddan avvalgi VII asr) kitobida qayd etgani ham tasdiqlaydi. Unda “Inson doimo o‘zini pok tutishi, o‘simliklarni asrashi, yer, suv va havoning musaffoligini ta‘minlashi” g‘oyasi ilgari surilgan [1].

Darvoqe, bugungi kunda dunyoning 23 ta hududida “AVESTO” markazlari faoliyat yuritib, kitob 1825-yilda ingliz, 1972-yilda fransuz, 1973-yilda nemis va 1901-yilda rus tillarida nashr etilgan. Nega bunday xulosaga kelamiz? Chunki inson ekologiyaning asosiy predmeti va kitobda qayd etilgan tabiatning oxirgi uchta elementi - fundamental tushunchasi - biogeotsenoz (yoki ekotizim deyish mumkin) asosini tashkil etadigan "biotop" bo‘lib, u "iqlim" "(havo, atmosfera), "gidrotop" (suv, gidrosfera) va "edafatop" (tuproq, zamin) dan iborat [2]. Mutaxassis- yurtdoshlarimiz o‘sha paytdayoq tabiatning ana shu asosiy elementlariga e‘tibor qaratishgan va ekotizimning ushbu muhim elementlarini saqlab qolish zarurligini oldindan bilishgan.

Prezidentimiz buyuk ajdodlarimizdan qolgan noyob qo‘lyozmalar haqida gapirar ekan, BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida (19.09.2023) yana bir bor :“Mamlakatimiz Al-Isлом kabi buyuk alloma va mutafakkirlarning vatani ekanligidan haqli ravishda faxrlanamiz. Jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan Xorazmiy, Beruniy, Imom Buxoriy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy...”,- deya ta‘kidlagan edi

Ta‘kidlash joizki, tabiatning ana shu muhim unsurlari kitoblarda ifodalanganidan keyingina miloddan avvalgi VI-I asrlarda Hindistonning “Mahabharata” va “Ramayana” axloqiy she‘rlarida, shuningdek, 300 yildan keyin Xitoy yilnomalarida (miloddan avvalgi VI-II asrlar) ham xuddi shunday bayonotlar berilgan. Va faqat miloddan avvalgi V asrda bu haqda qadimgi yunon mutafakkirlari - Geraklit, Agrigentumdan Empedok, Sokrat, Gippokrat (miloddan avvalgi V asr), Ksenofont, Platon, Aristotel (miloddan avvalgi IV asr), Ereziyalik Teofrast, Eratosfen (miloddan avvalgi III asr), Strabon, Lukresiy (miloddan avvalgi I asr) va boshqalar yozganlar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti BMTning mazkur sessiyasida tabiatning bugungi holatiga baho berar ekan, ekologik vaziyat haqida quyidagilarni ta‘kidladi: “Bugun dunyoda o‘tkir ekologik vaziyat hukm surmoqda. Iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi va ifloslanish oqibatida uch karra sayyora inqirozi kuchaymoqda”.

EKOLOGIYA FANINING MOHIYATI

Ushbu bahoning ahamiyatini tushunish uchun biosferani saqlash sohasida inson ongini rivojlantirish sohasi sifatida "Ekologiya" tushunchasining mohiyatini yana bir bor qisqacha esga olishimiz kerak. Ekologiyaning tom ma'nodagi predmeti "atrof-muhit" bilan o'zaro munosabatda bo'lgan "uydagi" organizmlardir. Hozirgi vaqtda pastki chegara okean tubi bo'ylab 10 km chuqurlikni egallaydi. Yuqori chegara - kuzatiladigan metagalaktika. Bu haqda Jordano Brunoning gaplaridan 300 yil avval vatandoshimiz Abu Ali Ibn Sino (Avitsenna) XI asrda yozgan edi: "Oxirat bor".

Ushbu hodisalar doirasini tushunish ekologiyaning global fundamental qonuniyatlarini o'rganishni talab qiladi, bu esa jamiyatning ekologik savodxonligi, ta'limi va madaniyatini oshiradi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Biz hamma uchun ochiq va sifatli ta'lim - barqaror iqtisodiy o'sish uchun eng samarali omil ekaniga aminmiz...".

Umuman olganda, ekologiya deyarli barcha fanlar bilan ozmi-ko'pmi chambarchas bog'liq bo'lgan sintetik fan sifatida qaralishi kerak. Integratsiya jarayonida ekologiya bir tomondan tabiiy, fundamental va texnikaviy fanlar, ikkinchi tomondan esa ijtimoiy-siyosiy fanlar chorrahasida joylashgan edi. Ehtimol, yaqin kelajakda aynan ekologiya bizning barcha ilmiy bilimlarimizni yagona bir butunlikka (umumiy bilimlar tizimi ma'nosida) birlashtiradigan superfanning o'zagiga aylanadi. Abu Rayhon Beruniy ta'kidlaganidek: "Agar odamlar tabiatga qarshi zo'ravonlik qilsa, uning qonunlarini qo'pol ravishda buzsa, ularning boshiga hech bir kuch to'g'anoq bo'la olmaydigan, aql bovar qilmaydigan ofatlarni keltiradigan vaqt keladi".

Bugungi kunda ekologiya jadal rivojlanayotgan fandır. U ham jamiyat, ham har bir inson hayotida alohida o'rin tutadi. Prezidentimiz: "...respublikada jiddiy ekologik muammolar bilan yetarlicha shug'ullanilmayapti", deb prinsipial ta'kidlagan edi ("Народное слово", 2017 yil 16 yanvar, 2-bet). Aynan shuni alohida ta'kidlash joizki, bu holat ekologik ta'lim va tarbiyaning umumiy darajasi hali ham yetarli emasligi, odamlarning ekologik madaniyati pastligi (2022-yil 2-avgustdagi videokonferensiya yig'ilishidan) tufayli yuzaga kelgan. Prezident tomonidan talab qilinadigan asosiy vazifalar O'zbekiston Respublikasi qonunida ham talab qilinadi. "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" [3], bu yerda "... barcha turdagi ta'lim muassasalarida ekologik ta'limni ta'minlash" (4-moddaning 3-bandi) qayd etilgan. Biroq respublikamizning ayrim oliy o'quv yurtlari qonun va Prezidentimiz talablaridan kelib chiqqan holda ekologiya fanining ahamiyatini tushunmay, o'ylamasdan, asossiz ravishda ushbu fanni o'quv dasturidan chiqarib tashlamoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida "O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish

konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 29-maydagi 434-son. talab: "...ekologik ta'lim samaradorligini yangi bosqichga ko'tarish".

Suqrot fikricha: "Eng osoni boshqalarga o'rgatish, eng qiyini o'zingni bilishdir"[4]. Darhaqiqat, inson ongi tirik dunyoning boshqa vakillaridan farq qiladi. Ammo biz bugun ko'proq aytishimiz mumkin bo'lgan jumlar quyidagilar: nafaqat o'zingni bil, balki butun Yerning biosferasi bo'lgan uyingni vayron qilib, o'zingga zarar berma. Odatda ekologiya deb ataladigan fan aynan shu narsaga ko'proq e'tibor qaratadi. Biroq, bu muammoning faqat bitta jihati. Hozirgi bilim darajasi va insoniyat oldida turgan muammolar majmuasi dunyoning yagona ilmiy manzarasini yaratishni taqozo etmoqda. Bu muammoni hal qilish uchun eng yaqin narsa ekologiya va uning ko'plab tarmoqlari edi. Atrof-muhitning asosiy dushmanlaridan biri bu urush ekanligini aytish bugungi kunda dolzarbdir. Ehtimol, bu kimgadir g'alati tuyulishi mumkin, lekin tinchlikni his qilish va qadrlash uchun siz urushni bilishingiz va nafaqat uni bilishingiz, balki uning g'ayriinsoniyatidan dahshatga tushishingiz kerak. Va halokatdan qanday qutulish yo'llari, vositalari, imkoniyatlarini izlash; biz buni, ehtimol, biroz paradoksal vahiy, Vijdon qonuni deb ataymiz. Va ular aytganidek, agar bizda ekologiyaga, uning asosiy predmeti - ekologik tizimga va asosiy mavzu - bosh harfli odamga nisbatan Vijdon bo'lmasa, hamma narsa befoyda bo'ladi. Prezidentimiz bugungi vaziyatdan xavotirga tushib, jahon hamjamiyatining e'tiborini shunday holatga qaratdi: "Ishonch inqirozi, global xavfsizlik institutlari faoliyatida muammolar, xalqaro huquq normalaridan chekinish kuchayib bormoqda. Bularning barchasi dunyoda keskinlikni kuchaytirmoqda. ...Iqlim o'zgarishi, ochlik va tengsizlikka qarshi kurash kabi butun insoniyat taqdiriga taalluqli masalalar bo'yicha ham muloqot sezilarli darajada buzildi".

Prezident mamlakatimizning asosiy siyosiy strategiyasini ta'kidladi: Markaziy Osiyoni tinch va farovon mintaqaga aylantirish O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor maqsadi bo'lib qoladi. U shunday talab qildi: "... BMTga a'zo davlatlar xalqaro terrorizm kabi umumiy tahdidlarga qarshi kurashda yanada hamjihatroq harakat qilishlari kerak". Shunda yana bir bor ekologiya va vijdon masalasiga to'xtalib o'tamiz: ...Tarixning mana shu burilish pallasida kelajak avlodlarga qanday sayyora qoldirishimiz haqida o'ylashimiz kerak. ...Mushtarak intilishlar va birgalikdagi sa'y-harakatlar bilangina mustahkam tinchlik va farovonlikka erishish mumkin. Bizga har qachongidan ham ko'proq o'zaro ishonch, hamjihatlik va hamkorlik kerak.

Prezidentning so'zlari Vijdon qonunining muqaddimasi bo'lib, ekologiyaning asosiy predmeti - inson: "Homo sapiens" - oqilona insonni saqlashga qaratilgan. Ekologik huquqiy normalarni unifikatsiyalash va tizimlashtirish uchun tasdiqlash bosqichida O'zbekiston Ekologik kodeksi tayyorlandi. O'zbekiston Respublikasi

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishlari vazirligi (Prezidentning 2023-yil 31-maydagi PQ-171-son qarori) viloyatlarning barcha ekologik muammolarini hal etish uchun mas'ul bo'lgan vazirlik faoliyatini ko'rish quvonarlidir.

TADQIQNING MAQSADI

Ta'kidlash joizki, O'rta Osiyoda O'zbekiston sug'orma dehqonchilikning qadimiy sivilizatsiyalaridan biri hisoblanadi. Buni arxeologik qazishmalar va tadqiqotlar S.P. Tolstov, Amudaryoning quyi oqimidagi sug'orish tarmog'i eng katta taraqqiyotga miloddan avvalgi VI asrdan boshlab erishganligini ko'rsatdi [5]. Eramizning III asriga qadar Buyuk rus iqlimshunosi A.I. Voeykov 19-asr oxirida shunday deb ta'kidlagan edi: "...Osiyoning qurg'oqchil mintaqalari (ya'ni Turkiston) kamari inson hayoti va faoliyati uchun Amerika Qo'shma Shtatlari mintaqalariga qaraganda, albatta, sug'orish yo'lga qo'yilganligi tufayli qulayroqdir," [6].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining suv xo'jaligini 2020-2030-yillarda rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni global va mintaqaviy iqlim o'zgarishi, suv xo'jaligi muammolarini olimlarning innovatsion g'oyalaridan foydalangan holda zamonaviy darajada hal etishga qaratilgan.

Svenson ta'kidlaganidek: "Suv tugaydigan joyda hayot tugaydi, o'zbeklarda shunday naql bor" [7]. Bu e'tirof, agar Quyosh Yerdagi barcha hayotning otasi bo'lsa, suv, ko'plab olimlarning fikriga ko'ra, hayotni tug'dirgan onalik "bachadon" ekanligiga asoslanadi. Gidrosfera ekologik tizimning asosiy tarkibiy qismi, aniqrog'i biogeotsenoz va uning tarkibiy qismi ekotop (yoki biotop) hisoblanadi.

BMT prognozlariga ko'ra, 2050-yilga borib dunyo aholisi 8,9 milliard kishiga yetadi, 2 milliarddan 7 milliardgacha odam suv tanqisligidan aziyat chekadi. 2023-yilda allaqachon 2 milliard odam, ya'ni dunyo aholisining to'rttdan bir qismi toza ichimlik suvisiz qoladi va yaqin 10 yil ichida ularga 700 million kishi qo'shiladi [8]. Turli xalqaro tashkilotlarning ma'lumotlariga ko'ra, 2025 -yilga borib, sayyoramiz o'sib borayotgan aholining uchdan bir qismi sug'orish uchun suv yetishmasligidan aziyat chekadi. Bugungi kunda insoniyat foydalanayotgan global chuchuk suv resurslarining 80% sug'orish uchun sarflanadi. Xalqaro oziq-ovqat siyosati instituti ma'lumotlariga ko'ra, 2030 -yilga borib sug'oriladigan yerlar maydoni 20 foizga, suv iste'moli hajmi esa 14 foizga o'sishi kutilmoqda. Chunki ular dunyoda ishlab chiqarilgan oziq-ovqatning qariyb yarmining manbayi bo'lib xizmat qiladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yil sentabr oyida bo'lib o'tgan Barqaror rivojlanish bo'yicha sammitida qabul qilingan 70-sonli rezolyutsiyasiga muvofiq, shuningdek, BMTning 2030-yilgacha bo'lgan global kun

tartibidagi Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (2018-yil 20-oktabr, 841-son) ga ko'ra, Barqaror rivojlanish manfaatlarini ko'zlab suv resurslarini saqlash va ulardan oqilona foydalanish, ularning mavjudligi va barcha uchun sanitariya sharoitlarini rivojlantirishni ta'minlash; 2030 yilgacha iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish; 2030 yilgacha suv resurslarini barcha darajalarda, jumladan, zarur hollarda transchegaraviy hamkorlik orqali kompleks boshqarishni ta'minlash kabi masalalar o'rtaga tashlandi.

Bu muammoga qaytgan O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida shunday dedi: "...Biz suvni tejoychi texnologiyalar platformasini yaratish jarayonida eng ilg'or texnologiyalarni jalb etish tarafdorimiz. "Birlashgan Millatlar Tashkiloti – Suv resurslari" mexanizmidan foydalangan holda Markaziy Osiyoda suv muammosini hal qilish lozim". Shuningdek, Prezident Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham (2018-yil 28-dekabr): "Hozircha ular qog'ozda yoritilgan, lekin biz ularni amaliy ishlarga, real natijalarga aylantirishimiz kerak, buning uchun qattiq mehnat qiling", -deya ta'kidlaydi.

Bizning asosiy maqsadimiz: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumatining qabul qilingan qarorlarini hayotga tatbiq etish bo'yicha tadqiqot va innovatsion texnik tavsiyalar ishlab chiqish.

TADQIQOT NATIJALARI

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti olimlari 45 yildan ortiq vaqt oralig'ida ekologiya va suv barqarorligini ta'minlashning yuqorida qayd etilgan dolzarb muammolarini hal etish ustida ishlamoqda. Ushbu sohadagi katta tajribamizni inobatga olgan holda, biz butun Markaziy Osiyo va dunyoning qurg'oqchil hududlarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan bir qator yetuk yechimlarni taklif etamiz.

Birinchidan, ma'lumki, ilmiy-texnikaviy siyosat, ayniqsa sanoatning turli sohalarida maxsus ekologik tayyorgarlikka ega bo'lmagan muhandis-texnik xodimlar tomonidan amalga oshiriladi. Yuqoridagilar oliy o'quv yurtlarining texnik, texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlari talabalariga ham tegishli. Shu munosabat bilan biz biologik bo'lmagan hududlar uchun tayyorlangan "Ekologiya" o'quv qo'llanmasidan universal foydalanishni tavsiya qilamiz [9], unda minimal zarur ekologik bilimlar qamrab olingan va o'ziga xos ekologik muammolar ekologik muhandislik tadbirlari bilan bog'liq. Barcha uslubiy materiallar va ekologiya bo'yicha umumiy ilmiy o'quv dasturi (tabiatni muhofaza qilish asoslari bilan) taqdim etilgan.

Ikkinchidan, aholi uchun chuchuk suv muammosiga nazar tashlasak, suvdan oqilona foydalanishni yo‘lga qo‘ysak, O‘zbekistondagi zahira suvlar uzoq muddatga yetadi. Farg‘ona vodiysi, Toshkent va Jizzax zonalari, Zarafshon vodiysi, Qashqadaryoning Kitob-Shaxrisabz bo‘yi, Surxondaryo havzasidagi yer osti suvlari zahiralardir. Olimlarning hisob-kitoblariga ko‘ra, respublika bo‘yicha chuchuk er osti suvlarining mavjudligi sekundiga 293,4 kub metrni tashkil etadi [10]. Aholisi 36 024 946 kishi (01.01.2023), bir kishiga kuniga 703,7 litr to‘g‘ri keladi. Kuniga o‘rtacha 240 litr suv iste‘moli bilan 105,6 million kishini ta‘minlash mumkin, bunda xavfsizlik 139,3 yil bo‘ladi, agar biz kuniga 120 litr Evropa standartiga o‘tsak, bu zahiralalar 211,3 million kishi yoki xavfsizlik 350, 6 yil bo‘ladi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar suv iste‘molini kuniga 80 litrgacha, kelajakda esa 60 litrgacha kamaytirish haqida o‘ylamoqda. “O‘zsuvta‘minot” AJ ma‘lumotlariga ko‘ra, 01.12. 2023 yilda bir kishi uchun o‘rtacha suv iste‘moli kuniga 99,4 litrni tashkil etdi. Bizningcha, O‘zbekistonda yagona suv ta‘minoti tarmog‘ini (elektr va gazga o‘xshash) yaratish vaqti keldi. Bu suvlar va chuchuk suv omborlari suvlari asosan ichimlik ehtiyojlari uchun ishlatilishi kerak. Shu tariqa aholini o‘zimizning chuchuk suv bilan ta‘minlash masalasini hal qilishimiz mumkin.

Bu nihoyatda hayotiy masala. Masalan, Shvetsiyada kishi boshiga suv iste‘moli 120 litr, Isroilda 100, Niderlandiyada 80 litrni tashkil qiladi. Shu bilan birga, shvedlar kuniga 5 marta dush qabul qilishadi. Biz nimani kuzatamiz? Asosiy sabab - eskirgan armatura, suv ta‘minoti tizimining past samaradorligi, qochqinlar tufayli suvning 50% dan ko‘prog‘i yo‘qoladi. Bundan tashqari, suvning yuqori narxi past rentabellikga ega eski nasos agregatlarining ishlashi bilan bog‘liq. Biz suv resurslaridan kompleks foydalanish sxemalarini ishlab chiqyapmiz. O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni [11], 106, 111, 112-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni talablaridan kelib chiqib, barcha tashkilotlar ushbu sxemalarni uzoq muddatga hisoblab chiqishlari zarur. O‘zbekistonning 2020-yil 10-iyuldagi “2020-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining suv xo‘jaligini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida: “Konsepsiyaning ustuvor yo‘nalishlarini belgilangan: suv resurslarini kompleks boshqarish tamoyillarini amalga oshirish, kafolatlangan aholini suv bilan ta‘minlash, iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror suv bilan ta‘minlash, suv sifatini yaxshilash va atrof-muhitning ekologik muvozanatini saqlash”.Qo‘shimcha resurs, kundalik hayotda sho‘r suvdan texnik ehtiyojlar uchun foydalanish. Shu bilan biz kommunal xizmatlarni yetarli miqdorda toza suv bilan ta‘minlaymiz.

Uchinchidan, agar biz suv barqarorligini, ayniqsa, Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanishni ta‘minlamoqchi bo‘lsak, bugungi kunda barcha yirik sanoat

korxonalarini, jumladan, rejalashtirilgan atom elektr stansiyalarini sho‘rlangan yer osti va yer usti suvlaridan foydalanishga o‘tkazishni zudlik bilan amalga oshirishimiz zarur. Ishlab chiqilgan va sinovdan o‘tgan suvni demineralizatsiya qilish zavodi [12] gazgidrat texnologiyasiga asoslangan va ekologik- iqtisodiy jihatdan tan olingan. Shu bilan biz ekologik muammoni ham hal qilamiz. Bugungi kunda sho‘r yer osti [13] va kollektor-drenaj suvlari hajmi ortib bormoqda (ular suv olishning 30% ni tashkil qiladi). Bular O‘zbekistondagi Sichanko‘l (600 million m³ dan ortiq), Achinko‘l (126 million m³ dan ortiq), Arnasoy ko‘llari (30 milliard m³ dan ortiq) kabi sun‘iy sho‘r ko‘llar va Orol dengizi mintaqasidagi, Qozog‘iston va Turkmanistondagi ko‘plab ko‘llardir. Ular milliardlab kubometr suvni tashkil qiladi. Endi suvni demineralizatsiya qilish va undan texnik ehtiyojlar uchun va sanoatda foydalanish haqida o‘ylash kerak. Tegishli ishlov berish bilan siz ichimlik suvini olishingiz va chiqindilardan gips, ohak, soda va osh tuzini ishlab chiqarish uchun ishlatishingiz mumkin.

To‘rtinchidan, shuni tan olish kerakki, gidrologik va meteorologik omillar bilan bir qatorda tuproq qurg‘oqchiligi ham kuzatilmoqda. O‘zbekiston Prezidentining 2023-yilda yo‘llagan Murojaatnomasida, s so‘nggi 3 yilda mamlakatimizda suv sathining pastligi qayd etilgan. ...So‘nggi 15 yil ichida jami yog‘ingarchilik 25 foizga kamaydi. Yozda g‘ayritabiiy issiq kunlar ko‘proq bo‘ldi, bu esa bizni yanada katta qiyinchiliklar kutayotganidan dalolat beradi. Tabiiyki, 2022-yildagidek, bu 2023-yilda kuchli bug‘lanish hisobiga sug‘orish me‘yorining oshishiga olib keldi, bu esa tuproq qurg‘oqchiligiga olib keladi. Aytgancha, amerikalik olimlarning prognozlariga ko‘ra, 2024 yil yozi g‘ayritabiiy yuqori haroratli yil bo‘lishi prognoz qilinmoqda. Sug‘orish suvidan oqilona foydalanish maqsadida biz o‘ta zarur chora sifatida to‘liq sug‘orishni amalga oshirish uchun keng tarqalgan giperirrigatsiya bilan bir qatorda subirrigatsiyani amalga oshirishni osonlashtiruvchi maxsus ishlab chiqilgan qurilmalarni [14,15,16] ommaviy joriy qilishni taklif qilamiz. Texnologiyani kaskadli joriy etish sug‘orish tezligini 1,5-2 baravar kamaytirish imkonini beradi. Ular bir qator ekologik va ijtimoiy muammolarni hal qiladi. Ularni kollektor-drenaj, sug‘orish va daryo tarmoqlariga o‘rnatish kerak. Chunki ular yer osti suvlarini optimal kritik chuqurlikka ko‘tarishga yordam beradi.

Beshinchidan, ma‘lumki, qurg‘oqchilikning tez-tez o‘sishi tufayli sug‘orish uchun yer osti suvlarini tortib olish kuchaygan. Bu zahiralarning kamayishiga va er osti suvlari sathining kritik darajadan pastga tushishiga olib keldi. Yig‘ilishda Prezidentimiz ta‘kidlaganidek (12.07.2022): “Yer osti suvlari tabiat va insoniyat uchun muhim chuchuk suv manbalaridan biridir. Mantiqsiz foydalanish tufayli bu resurs tugaydi. Navoiy, Samarqand, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Farg‘ona va Andijon viloyatlarining ayrim tumanlarida yer osti suvlari sathi 5 metrgacha pasaygan”. Bu

gidrogeologik derazalar orqali yer osti suvlarining pastga tushishi tufayli yuzaga keladi. Ushbu jarayonning oldini olish uchun sug'oriladigan yerlarda yer osti suvlarini izolyatsiya qilish usuli taklif qilingan [17,18,19,20], bu filtratsiyaga qarshi ekranni yaratishni osonlashtiradi.

Oltinchidan, Prezidentimizning tomchilatib sug'orish tizimini keng joriy etish bo'yicha qayta-qayta talablarini inobatga olib, bug'lanishni kamaytirish, energiyani tejash va tuproq unumdorligini oshirish bo'yicha zudlik bilan zarur texnologiyani taklif etamiz. Texnologiyaning mohiyati mahalliy minerallardan - og'ir gillardan (gidrogellardan farqli o'laroq) holatning jismoniy o'zgarishi paytida foydalanishdir. Ayniqsa, Orolbo'yida (1,7 million gektar) o'rmon plantatsiyalarini tomchilatib sug'orishda ushbu texnologiyadan foydalanishni taklif qilamiz. Ushbu texnologiya tuproqning birlashishini oshirish orqali shamol eroziyasini oldini olishga yordam beradi. Bundan tashqari, Davlat geologiya qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, Qoraqalpog'istonning Tebinbuloq konida 169 ming tonnadan ortiq vermikulit mavjud. Biroq, 1937 yildagi tadqiqotlarga ko'ra, ularning zaxiralari 1 million tonnadan ortiqni tashkil etdi. Bu texnologiyadan mahalliy foydali qazilmalar mavjudligini hisobga olgan holda butun Markaziy Osiyo mintaqasida foydalanish mumkin. Qashqadaryo viloyatida Nayman, Mabika va Oqsuv qishloqlarida glaukonit qumtoshlari zahiralari mavjud. Ular Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanida, Farg'ona viloyatining gillarida Chimion va Sho'rsu konlarida, Toshkent viloyatida glaukonitlar, Xorazm viloyatida bentonit gillari va b. O'zbekiston Prezidenti "Davlat geologiya qo'mitasi mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va ko'paytirish Dasturi" loyihasini ishlab chiqishda alohida e'tibor talab qilishini ta'kidladi. Shu munosabat bilan biz "Tuproqning meliorativ holatini yaxshilash usuli"ni ishlab chiqdik [21]. U mahalliy tabiiy minerallardan - vermikulit, perlit va boshqalardan foydalanishga asoslangan bo'lib, ular unumdorlikni oshiradi va tuproqdagi jismoniy bug'lanishni kamaytiradi. Yuqorida sanab o'tilgan minerallarni kiritish mexanizmi va sug'orish eroziyasini oldini oladigan va tuproqning suvni ushlab turish qobiliyatini oshiradigan jo'yak tubi bo'ylab konvolyutsiyalarni kesish usuli taklif etiladi. Afsuski, Tebinbuloq konidagi vermikulit hozirda Rossiya va Turkiyaga eksport qilinib, 2021 yilda 623 ming dollarga sotilgan. (Jamiyat gazetasi, 12.02.2022).

Yettinchidan, ma'lumki, hosildorlikni oshirishda asosiy narsa suv emas, balki tuproq unumdorligidir. Olimlar chorvachilik bilan yer unumdorligi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqladilar. Masalan, 40 bosh qo'ydan olinadigan organik o'g'itlar 1 gektar yerning unumdorligini saqlashi mumkin. Yoki 5-6 bosh qoramol. Respublikamizdagi 4,3 million gektar sug'oriladigan yerlarni hisobga oladigan bo'lsak, arsenalimizda 172 million bosh qo'y va echki bo'lishi kerak. 2022 yil

ma'lumotlariga ko'ra 22626,3 ming bosh (bu 7,7 barobar kam), qoramol 12611,8 ming boshni tashkil etgan. Jami 35238,1 ming bosh sug'oriladigan yerlarning 63 foizini organik o'g'itlar bilan ta'minlashga xizmat qildi. Agar 20,3 million gektar qishloq xo'jaligi yerlarini hisobga olsak, ular 13,3 foiz organik moddalar bilan ta'minlangan. Mana rasm: unumdorlik yo'q va go'sht va sut mahsulotlari etishmaydi. Hosildorlikka kelsak, barchamizga ma'lumki, yerlarimiz sifati (respublika bo'yicha - 55, Qoraqalpog'iston - 41, BMT ma'lumotlari [22] bo'yicha qarang) juda pasayib ketgan, bu qishloq xo'jaligi hosildorligida ham o'z aksini topmoqda. Biz tabiiy ekotizimimizni yo'qotdik va to'liq ekologik xavf yaqinlashmoqda. Olimlar donli ekinlar somoni tuproq unumdorligini organik o'g'itlarga qaraganda 10 barobar oshirishini isbotladilar. Shuningdek, almashlab ekish tizimini jadal joriy etish nihoyatda zarur.

Sakkizinchidan, uzoq muddatli prognoz bilan zamonaviy sharoitda yer usti va yer osti suvlarning sifatini tezkorlik bilan baholash zarur. Buning uchun tabiiy suvlarning kimyoviy tarkibining metamorfizatsiyasini (o'zgarishini) tahlil qilish kerak [23]. Bu bizga tuproqdagi sho'rlanish miqdorini oldindan bilish va shunga mos ravishda tuproqni himoya qilish choralarini oldindan ko'rish imkonini beradi. Hozirgi vaqtda tog' oldi hududlarida tuproqlarning mahalliy sodali sho'rlanishi kuzatilmoqda. Olimlar isbotlaganlarki, agar ular sug'oriladigan maydonning 20-30 foizini egallasa, hosildan foyda olish dargumon. Soda sho'rlanishining oldini olish uchun biz tuproqni tuzsizlantirish usulini taklif qilamiz [24], bu bir vaqtning o'zida kimyoviy melioratsiya paytida o'simliklar uchun juda zarur bo'lgan Chili nitratining chiqarilishiga ham yordam beradi.

To'qqizinchidan, Afg'onistonda Qo'shtepa kanali qurilishi munosabati bilan Amudaryo oqimining qisqarishiga to'xtaladigan bo'lsak, XVIII asr oxirida muhandis Annenkov Amudaryodan suvning tortishish kuchi bilan sharqiy qismiga yetkazib berish imkoniyatini tasdiqladi. Buxoroning bir qismi va Qashqadaryo tizimining quyi oqimiga [6] hozirda Qashqadaryoning quyi oqimiga nasos stansiyalari orqali yetkazib berilayotgan suv eng qimmat suv deb baholanmoqda. 2023-yilda 1 m³ 482 so'm (4 tsent), iste'moli 3281,2 million m³ bo'lsa, umumiy iste'moli qariyb 1,544 trln. daryo. Tojikiston hududidagi Amudaryo uzunligi 500 km dan ortiq bo'lgan Qarshi magistral kanaligacha va shu orqali O'zbekistonning janubi-g'arbiy qismi – Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro va Navoiy viloyatlarini suv bilan ta'minlaydi.

O'ninchidan, yuqoridagi barcha innovatsion yechimlar jahon amaliyotiga muvofiq suv resurslarini kompleks boshqarish texnologiyasini ishlab chiqishga yordam beradi [28,29,30,31,32,33,34,35]. Ularni qishloq xo'jaligi tomorqalari, yirik sanoat korxonalarini, ma'muriy tumanlar va viloyatlar, daryolar havzalari darajasida

tashkil etish zarur. Biz ishlab chiqarish darajasida hisob-kitoblar, tadqiqotlar va amalga oshirish bo'yicha etarli tajribaga egamiz [36].

O'n birinchidan, mavjud, foydalanilayotgan va chiqindi suv resurslarini aniq hisobga olish uchun gidrometrik tarmoqni tiklash zarur.

O'n ikkinchidan, mintaqaning iqlim sharoitiga ta'sir etuvchi asosiy omil bo'lgan suv resurslarimiz manbalari – daryolarni zudlik bilan tartibga solish zarur. Buning uchun imkoniyalar yetarli, bizda gidrologiya fani ancha rivojlangan.

XULOSA.

Ta'kidlash joizki, barcha takliflar laboratoriya va dala sharoitida sinovdan o'tkazilgan, AQSh, Yevropa, Rossiya, Qozog'iston, Turkmaniston mutaxassislari tomonidan sinovdan o'tkazilgan va ma'qullangan. Texnik yechimlar ekologik jihatdan qulay va bosqichma-bosqich amalga oshirishga tayyor.

Xulosa sifatida, Yevropa parlamentining "Yashil ittifoq" partiyasi a'zosi, germaniyalik siyosatchi Viola fon Kramonning so'zlarini keltirishimiz mumkin (Tashqi ishlar qo'mitasining YI va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishga bag'ishlangan yig'ilishidagi nutqidan) "Mamlakatda suv resurslaridan samarasiz foydalanilmoqda, shaharlar zaharli changga botgan, mamlakat cho'lga aylanmoqda. Agar bu jarayonlar to'xtatilmasa, O'zbekistonning 35 milliondan ortiq aholisi ekologik halokatga duchor bo'ladi" (10.09.2023 yil)

Umid qilamizki, ushbu texnik yangiliklar majmuasi suv xo'jaligi tashkilotlari va klasterlari, tomorqa hovlilari aholisi, tegishli bo'limlar va amaliyotchilar tomonidan ushbu masala bo'yicha "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqishda inobatga olinadi va ekologik vaziyatni yaxshilash maqsadida amalga oshiriladi. nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo qurg'oqchil zonasining ijtimoiy sharoiti va oziq-ovqat xavfsizligi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. AVESTO. Tarixiy va adabiy meros. O'zbek tiliga tarjima til Asqar. - Mahkam. -Toshkent: "Sharq", 2001. - 384 b.
2. Valukonis G.Yu., Murodov Sh.O. Ekologiya asoslari-T.1.Umumiy ekologiya. 1-kitob. -Toshkent: "Mehnat", 2001. -328 b.
3. O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni. – Toshkent: Adolat, 1992. – 14 b.
4. Нерсесянц В.С. Сократ. -М.: Издательская группа ИНФРА. -М-НОРМА, 1995. - 312 с.
5. Толстов С.П. Древний Хорезм.- М.:16-я тип. треста «Полиграфкнига», 1948.- 352 с.

6. Mamedov A.M. O‘zbekistonda irrigatsiyaning rivojlanishi.- Toshkent: “FAN”, 1967.- 297 b.
7. Peter Swanson. Water: The Drop of Life, North Word press, Minnetonka, Minnesota, 2001. USA. P.143
8. Suv tanqisligi tahdidlari: Yechimlar muammolarga nomutanosibdir//AGUA, UZSUVTAMINOT, 2023. № 24/7. - 39-41.
9. Murodov Sh.O. Ekologiya. -Qarshi: “Intellekt” nashriyoti, 2022. -376 b.
10. Mirzaev S.Sh. O‘zbekistonning yer osti suv zahiralari. -Toshkent: FAN, 1974. -224 b.
11. O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni. – Toshkent: Adolat, 1993. – 30 b.
12. O‘zbekiston Respublikasi Patenti No IDP 04339. 2000 y
13. Borisov V.A., Vavlenko L.I., Musaeva T.P., Sultonova D.G. O‘zbekistonda ichimlik yer osti suvlari sifatini indeksli baholash // Ichimlik suvi ta’minoti va ekologiya muammolari. Toshkent: Universitet nashriyoti, 2002. - B. 83091.
14. Mualliflik huquqi guvohnomasi No 990952. 1980
15. Mualliflik huquqi guvohnomasi No 1491953. 1989
16. Mualliflik huquqi guvohnomasi No 1656053. 1991
17. Mualliflik huquqi guvohnomasi No 1076533. 1983
18. Mualliflik huquqi guvohnomasi No 1079754. 1984
19. Mualliflik huquqi guvohnomasi No 1620536. 1990
20. Mualliflik huquqi guvohnomasi No 1659445. 1991
21. O‘zbekiston Respublikasi Patenti No 4539. 1997 y
22. Atrof-muhit samaradorligini ko‘rib chiqish. O‘zbekiston, sek. sharh, № 29 - Nyu-York va Jeneva: UNECE. 2010.- 245 b.
23. Валукоис Г.Ю., Ходьков А.Е. Роль подземных вод в формировании месторождений полезных ископаемых. - Л.: «Недра», 1978. -296 с.
24. O‘zbekiston Respublikasi Patenti No IDP 04470. 2000 y
25. 23.S.P. Bindraa, A. Hamid, H. Salem, K. Hamuda, S. Abulifa, Sustainable integrated water resources management for energy production and food security in Libya. Procedia Technology 12 (2014) pp. 747–752, doi: 10.1016/j.protcy.2013.12.558
26. 24.H.H.G. Savenije, P. Van der Zaag, Integrated water resources management: Concepts and issues. Physics and Chemistry of the Earth 33 (2008) pp. 290–297, doi: 10.1016/j.pce.2008.02.003
27. 25.Xiao-Jun Hu, You-Cai Xiong, Yong-Jin Li, Jian-Xin Wang, Feng-Min Li, Hai-Yang Wang, Lan-Lan Li, Integrated water resources management and water users’ associations in the arid region of northwest China: A case study of farmers’ perceptions. Journal of Environmental Management 145 (2014) pp. 162-169. <http://dx.doi.org/10.1016/j.jenvman.2014.06.018>
28. 26.V.A. Dukhovny, V.I. Sokolov, D.R. Ziganshina, Integrated Water Resources Management in Central Asia, as a way of survival in conditions of

- water scarcity. *Quaternary International* 311 (2013) pp. 181-188. <http://dx.doi.org/10.1016/j.quaint.2013.07.003>
29. 27.P. Gourbesville, Challenges for integrated water resources management. *Physics and Chemistry of the Earth* 33 (2008) pp. 284–289. doi:10.1016/j.pce.2008.02.002
 30. 28.A. Pires, J.Morato, H. Peixoto, V. Botero, L. Zuluaga, A. Figueroa, Sustainability Assessment of indicators for integrated water resources management. *Science of the Total Environment* 578 (2017) pp. 139–147. <http://dx.doi.org/10.1016/j.scitotenv.2016.10.217>
 31. 29.T. Roach, Z. Kapelan, R. Ledbetter, Comparison of info-gap and robust optimisation methods for integrated water resource management under severe uncertainty. *Procedia Engineering* 119 (2015) pp. 874–883. doi: 10.1016/j.proeng.2015.08.955
 32. 30.G. Anzaldi, E. Rubion, A. Corchero, R. Sanfeliu, X. Domingo, J. Pijuan, F. Tera, Towards an Enhanced Knowledge-Based Decision Support System (DSS) for Integrated Water Resource Management (IWRM). *Procedia Engineering* 89 (2014) pp. 1097 – 1104. doi: 10.1016/j.proeng.2014.11.230
 33. 31. Murodov Sh.O. Janubiy O‘zbekiston qurg‘oqchil hududlarining suvga chidamliligini ilmiy asoslash. – Toshkent: FAN, 2012. – 376 b.
 34. Roach T., Kapelan Z., Ledbetter R. Comparison of info-gap and robust optimisation methods for integrated water resource management under severe uncertainty. *Procedia Engineering* 119 (2015) pp. 874–883. doi: 10.1016/j.proeng.2015.08.955
 35. Anzaldi G., Rubion E., Corchero A., Sanfeliu R., Domingo X., Pijuan J., Tera F. Towards an Enhanced Knowledge-Based Decision Support System (DSS) for Integrated Water Resource Management (IWRM). *Procedia Engineering* 89 (2014) pp. 1097 – 1104. doi: 10.1016/j.proeng.2014.11.230
 36. Murodov Sh.O. Janubiy O‘zbekiston qurg‘oqchil hududlarining suvga chidamliligini ilmiy asoslash. – Toshkent: FAN, 2012. – 376 b.

ПРИМЕНЕНИЕ ГИС ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ ОЦЕНКИ ЭРОЗИИ ПОЧВ: ВОЗМОЖНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Жасмина Викторовна Герц

Докторант (Ds) Национального исследовательского
университета «ТИИИМСХ»

jasminagerts@mail.ru

Надежда Игоревна Исмаилова

Инженер Национального Исследовательского
Университета «ТИИИМСХ»

nadejda.ismoilova@mail.ru

АННОТАЦИЯ

В статье рассмотрены возможности применения ГИС технологий для оценки состояния и угрозы эрозии почв. Приняты во внимание такие факторы, как уклон местности, виды землепользования, типы почв и местонахождение водных объектов. Результат, полученный при анализе каждого из параметров на основе взвешенного коэффициента позволил создать итоговую карту, в которой отмечены три зоны: высокой, средней и слабой возможности эрозии на изучаемой территории.

Ключевые слова: эрозия почвы, факторы эрозии, уклон местности, землепользование, дистанционное зондирование, ГИС

APPLICATION OF GIS TECHNOLOGIES FOR SOIL EROSION ASSESSMENT: OPPORTUNITIES AND PROSPECTS

ABSTRACT

The article discusses the possibilities of using GIS technologies to assess and threaten soil erosion. Factors such as the slope of the terrain, types of land use, soil types and location of water bodies are taken into account. The result obtained by analyzing each of the parameters based on a weighted coefficient allowed us to create a final map in which three zones are marked: high, medium and weak erosion possibilities in the studied area.

Keywords: soil erosion, erosion factors, terrain slope, land use, remote sensing, GIS.

ВВЕДЕНИЕ

Проблема эрозии почвы в Узбекистане является серьезной проблемой, вызванной различными факторами, такими как изменение климата, недостаточное управление земельными ресурсами, несанкционированная вырубка лесов и неправильное использование почвы [1]. Это приводит к ухудшению плодородия почвы, снижению уровня грунтовых вод и увеличению риска образования оползней и селей. Для решения проблемы эрозии необходимо проведение комплексных мероприятий по охране природы, землепользованию и восстановлению экосистем [2].

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ

Для предотвращения эрозии можно принять ряд мероприятий, который поможет оценить и замедлить процессы эрозии на местах, а именно:

1. Посадка деревьев и кустарников для укрепления почвы и уменьшения скорости стока воды.
2. Строительство берм и дамб для удержания почвы и воды.
3. Применение методов консервационного земледелия, таких как пахота по контуру, посев защитных поясов из растений и использование навесных культур.
4. Проведение инженерных работ для улучшения дренажа и предотвращения образования оврагов.
5. Обучение местных жителей методам устойчивого использования земельных ресурсов и охране природы.
6. Применение ГИС технологий для оценки и предотвращения процессов эрозии в наиболее опасных участках [3].

Так как одним из наиболее эффективных инструментов являются геоинформационные системы, в данной работе была проведена работа по изучению возможностей ГИС в данном вопросе. ГИС могут быть использованы для определения эрозии путем анализа данных о рельефе, почвенном покрове, осадках и других факторах, влияющих на процессы эрозии. С помощью ГИС можно создать карты уязвимости к эрозии, идентифицировать участки с высоким риском эрозии и разрабатывать стратегии для предотвращения или уменьшения ее воздействия. Также ГИС позволяют проводить мониторинг изменений в рельефе и почвенном составе на протяжении времени, что помогает оценить динамику процессов эрозии и оценить эффективность применяемых мер по их предотвращению [4].

В качестве основных факторов были выбраны следующие: уклон местности, типы почв, виды землепользования и близость водных объектов.

На первоначальном этапе с помощью функции Slope из цифровых моделей возвышения была получена карта и выделены участки, на основе трех групп: высокий уклон (более 65 градусов), средний (от 30 до 65), низкий (менее 30 градусов). На карте участки с высоким уклоном показаны красным цветом, средним – желтым и низким – зеленым.




Рис. 1. Карта уклона

Далее по второму фактору были выделены различные типы почв. Тип почвы (песок, глина) имеет существенное влияние на процессы эрозии. Например, песчаные почвы более подвержены водной эрозии из-за их относительной легкости и тенденции к образованию быстрых потоков воды. Глинистые почвы, с другой стороны, имеют большую устойчивость к водной эрозии из-за своей более плотной структуры. Ветровая эрозия также зависит от типа почвы. Песчаные почвы могут легко быть перемещены ветром из-за своей легкости и мелкой текстуры, тогда как глинистые почвы обычно более устойчивы к ветровой эрозии из-за своей более тяжелой текстуры.




Рис. 2. Типы почв

На изучаемой территории были выделены участки с песком (красный цвет), суглиняные и торфяные почвы (желтый цвет), глиняные почвы (зеленый цвет).

В качестве третьего фактора был выбран вид землепользования. Территории, покрытые лесным покровом были выбраны как наименее подверженные эрозии (на карте зеленый цвет), сельскохозяйственные участки (желтый цвет) – средний уровень, и как наиболее подверженные процессам эрозии участки, не покрытые растительным покровом (красный цвет).




Рис. 3. Типы землепользования

В качестве последнего фактора были выделены участки, приближенные к водным объектам. Была создана буферная зона в размере 100 метров. На рисунке данная буферная зона показана красным цветом.




Рис. 4. Буферизация водных объектов

РЕЗУЛЬТАТЫ

В результате проведенных работ была создана карта участков, наиболее подверженных процессам эрозии. Участки с высоким уклоном, песчаного типа, непокрытые лесом или другой растительностью, приближенные к водным

объектам были объединены в класс, показанный красным цветом и отображающий наиболее опасные участки. Желтым цветом показаны участки со средней возможностью эрозионных процессов, а зеленым – с самой низкой.




Рис. 5. Карта подверженных эрозии участков.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Проблема эрозии приводит к ухудшению плодородия почвы, снижению уровня грунтовых вод и увеличению риска образования оползней и селей. Географическая информационная системы могут быть использованы для оценки эрозии путем анализа ряда геопространственных данных, таких как наклон местности, тип почвы, рельеф и т.д. С помощью ГИС можно создать карты уязвимости к эрозии, определить участки с высоким риском эрозии и разработать стратегии для ее предотвращения. ГИС также помогает в прогнозировании возможных последствий эрозии на окружающую среду и общество. Созданная карта наиболее подверженных эрозии участков может быть использована специалистами для решения проблем связанных с процессами эрозии, а также подобного рода карты могут помочь в проведении комплексных мероприятий по охране природы, землепользованию и восстановлению экосистем.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Gafurova L.A., Djalilova G.T, Kodirova D.A., Ergasheva O.X. Measures on erosion-preventive forest melioration in mountain areas of Uzbekistan// Journal of Critical Reviews Vol 7, Issue 2, 2020, pp. 283-286
2. Ahmad, N.S.B.N., Mustafa, F.B., Yusoff, S.Y.M., and Didams, G. 2020. A systematic review of soil erosion control practices on the agricultural land in Asia. Int. Soil Water Conserv. Res., 8: 103-115.
3. Durán Zuazo, V.H., Rodríguez Pleguezuelo, C.R., 2008. Soil-erosion and runoff prevention by plant covers. A review. Agron. Sustain. Dev. 28, 65–86. <https://doi.org/10.1051/agro:2007062> 2020
4. Kuchkarova N.P. Makhsudov Kh.M. - Qualitative assessment of irrigated lands according to the degree of erosion. Belarus 2020 204-208 pp.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA TAYYORLOV GURUHI TARBIYALANUVCHILARINI MAKTAB TA'LIMIGA SIFATLI TAYYORGARLIK MONITORINGINI TASHKIL ETISH USULLARI

Sultanova Nilufar

JDPU o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktab ta'limiga sifatli tayyorgarlik monitoringini tashkil etish usullari va ulardan qanday foydalanish yo'llari hamda uning afzalliklari haqida keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim sifati, tarbiyachi-pedagog, ijodiy, noan'anaviy usullar, monitoring, ertak janri, yakka ish, individual, kichik soha, maktabgacha yosh.

Аннотация: В данной статье упоминаются методы организации контроля качества готовности к школьному обучению воспитанников подготовительной группы в дошкольной организации образования и способы их использования, а также его преимущества.

Ключевые слова: качество образования, воспитатель-педагог, творческие, нетрадиционные методы, мониторинг, жанр сказки, индивидуальная работа, индивидуальность, малое поле, дошкольный возраст.

Annotation: This article mentions methods for organizing quality preparatory monitoring of preparatory group Educators for school education in a preschool educational organization and how to use them, as well as its advantages.

Keywords: quality of Education, educator-educator, creative, unconventional methods, monitoring, fairy tale genre, solo work, individual, small field, preschool age.

Ta'lim sifatini va samaradorligini oshirish, birinchi navbatda tarbiyachi – pedagoglarning mahoroti va ularning ta'lim faoliyatlariga mas'uliyat bilan yondoshishiga bog'liq albatta. Buning uchun tarbiyachi – pedagoglar mashg'ulotlar jarayoniga, markazlarda ishlashga va o'rganilayotgan yangi bilimlarni bolalarga yetkazib berish jarayoniga nisbatan ijodiy – kreativ yondoshgan holda uyushtirishi lozim. Tarbiyachi o'z oldiga o'zi tarbiyalayotgan bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlashni maqsad qilib qo'yar ekan, buning uchun avvalo mashg'ulotlarni

maqsadini aniq belgilab olishi va bilish jarayonini tashkil etishda sifat o'zgarishlariga erishishni nazarda tutishi kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga turli noan'anaviy usullar asosida ta'lim berish 6-7 yoshli bolaning maktab ta'limiga sifatli tayyorgarligining samarali kechishiga ko'maklashadi. Noan'anaviy usullar bilan tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarning qobiliyatlarini sayqallaydi va qiziqishlarini uyg'otib, mashg'ulot mobaynida zerikish va toliqishlarsiz ijodiy va mantiqiy fikrlashlarini rivojlantiradi. Tarbiya me'yorlariga amal qilish ko'nikmalarini mustaxkamlaydi hamda atrof-olam to'g'risidagi tasavvurlarini tartibga soladi. Maktabga tayyorlov guruhi bolalarini ta'lim – tarbiya jarayonini turli interfaol usullarni qo'llay olish bilan uyushtirishning ahamiyoti katta. Bu esa o'z o'rnida maktabga tayyorlov guruhi tarbiyachi – pedagoglaridan o'z ustida muntazam shug'ullanishni, yetuk tajribani hamda kasbiga nisbatan mas'uliyatni talab qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda, ayniqsa tayyorlov guruhi bolalarida ilk matematik tasavvurlarni shakllantirish juda ahamiyoti kattadir. Farzandlarimizni kelajakda qaysi kasbni egallashidan qat'iy nazar o'z kasbini mahorat bilan egallashi uchun unga matematik bilimlar zarurdir. Shu boisdan ham, tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga sifatli tayyorlashda matematika mashg'ulotlarini turli xil interfaol usullardan, xususan, ertaklar, qisqa hikoyalar, harakatli o'yinlar, arifmetik topshiriqlar, matematik savollar, jamoa bo'lib shug'ullanish, juftliklarda ishlash, masala tuzish, tushuntirish, tetiklashtiruvchi mashqlar, matematik bilimlarni mustaxkamlash uchun o'yinlar bilan tashkil qilinsa ta'limiy jarayonlar mazmunli bo'ladi va bolalarni maktabga tayyorgarlik monitoringini oshishida xizmat qiladi.

Ertak janri obrazlar talqini, g'oyaviy mazmuni va konflikti, syujet va kompozitsiyasi, uydirmalarning o'rnini va vazifasi, til va uslubiga ko'ra shartli ravishda hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, maishiy ertaklar va hajviy ertaklarga bo'linadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ertak tinglashni yaxshi ko'radilar va ertaklardan hech ham zerikmaydilar. Ertaklar bolalar uchun sehrli tarixgina emas, balki ruhiy muammolarni hal qiluvchi shifokor hamdir. Ertaklar bolaning his – tuyg'ularini rivojlantiradi, hayolotini tarbiyalaydi hamda o'zbek xalq ertaklarining eng sara namunalari bilan tanishtiradi. Bugungi jadal rivojlanayotgan davrda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi maktabga bolalarni tayyorlashda interfaol usullarni mashg'ulotlar, rivojlanish markazlarda shug'ullanish va boshqa faoliyatlarda to'g'ri qo'llay olishi kerakligini anglashi lozimki bu albatta bolaning maktab ta'limiga sifatli tayyorgarligida xizmat qilsin. Ana shunday interfaol usullardan biri bu matematika mashg'ulotlari va ertaklarni birgalikda uyg'un holda tashkil etishdir.

Taniqli rus olimi, bolalar adabiyoti namoyondasi Korney Ivanovich Chikovskiy shunday yozgan edi: “Menimcha ertakning maqsadi bolada birovning g‘am tashvishi uchun qayg‘urish, o‘zganing shodligi uchun xursand bo‘lish, begona insonning taqdirini xuddi o‘zinikidek boshdan o‘tkazish orqali insoniylikni tarbiyalashdan iboratdir”deya aytib o‘tadi o‘z davrida. Shunday ekan, ertaklar nafaqat bolalarni tarbiyalaydi balkim ularni sifatli va mazmunli ta‘lim olishlariga ham ko‘maklashadi. Bu usul nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida va atrof – olam bilan tanishtirish jarayonlarida qo‘l keladi. Ushbu usulni qo‘llash bilan maktabga tayyorlov guruhi bolalarining faqatgina nutqini rivojlantiribgina qolmay, uning intellektual qobiliyati, ruhiyati, e‘tibori hamda hayotining boshqa jabhalariga ham ta‘sir ko‘rsatishimiz mumkin. Mazkur usul bilan tarbiyalanuvchilar o‘z ona tilida obrazli va mantiqiy fikrlashi, eshitishi, eslab qolishi, umumlashtirishi, taqqoslashi kabi aqliy tayyorgarlikka ega bo‘ladilar. K.D.Ushinskiyning aytishicha, bolalarning nutqini egallashlari ularning maktab ta‘limiga tayyor ekanligini bildiruvchi dalildir. Shu sababli ham maktabga tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta‘limiga tayyorlashda o‘z tilini puxta egallashlariga, lug‘at boyligini orttirishga, ravon so‘zlashga va to‘g‘ri talaffuz qilishga, jummalarni to‘g‘ri tuza olishiga e‘tibor qaratish talab qilinadi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturining MTT ta‘lim va tarbiya jarayonining maqsad va tamoyillari asosida bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyasining 3 sohasi - nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari bo‘lib ta‘lim va tarbiya jarayoni yakunida 6-7 yoshli bola:

- ona tilini eshitadi va tushunadi;
- ona tilida to‘g‘ri talaffuz, mos grammatik shakllar va turli gap tuzilmalaridan foydalanadi;
- chet tilini o‘rganishga qiziqish bildiradi;
- chet tili bo‘yicha dastlabki bilimlarini namoyish etadi;
- badiiy adabiyotga qiziqish bildiradi;
- so‘zning lug‘aviy ma‘nosi, bo‘g‘inli va fonetik tuzilishi to‘g‘risida tasavvurga tushunchaga ega bo‘ladi;
- gapning turli ma‘no shakllarini mustaqil ravishda tuzadi va so‘zlab bera oladi; ona tilida yozishning dastlabki malakalari va vositalaridan foydalanishni biladi.

Tarbiyalanuvchilaridagi deyarli barcha nutqiy muloqotlar va ko‘nikmalar mashg‘ulotlar va mashg‘ulotlardan tashqari vaqtlarda shakllanadi. Masalan; mehnat jarayonida, o‘yin faoliyatida, faollik markazlarida shug‘ullanishda, sayr hamda ertalabki suhbatlar mobaynida bolalarning lug‘ati boyiydi, faollashadi va aniqlashadi. Bolalarni yoshligidan nutqiy tarbiyalash, atrofni o‘rab turgan olamdagi narsa va hodisalarni anglash hamda so‘zlab berish, atrofdagilar bilan munosabatini va

so‘zlashishini yo‘lga qo‘yish hamda tilni - uning ovoz tarkibini, grammatik qurilishini, lug‘atini oddiy anglashga asos bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar eshitadigan hamda ma‘nolarini anglaydigan, yodida saqlab qoladigan va foydalanadigan so‘zlarni sekin – astalik bilan atrof –olam bilan tanishishlarida ota – onalari, do‘stlari va tarbiyachining ma‘lumotlari orqali hamda o‘zining lug‘atidagi bor so‘zlariga tayanib bilib oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ulg‘ayib borar ekan, ularning qiziqishlari va hohishlari ham o‘z o‘rnida ko‘payadi. Shu boisdan ham maktabgacha ta‘lim tashkilotining maktabga tayyorlov guruhi bolalarini ayrim talaffuzi qiyin so‘zlarni, iboralarni o‘rganishlari bilan bir qatorda o‘zbek xalq maqollari va topishmoqlarini, tez aytishlarini o‘rganishlari ularning bog‘lanishli nutqini o‘stirishga ma‘lum darajada ijobiy natijalarni ko‘rsatadi. Bizga ma‘lumki, maktabgacha yoshdagi bolalarni nutqini o‘stirish turli xil faoliyatlar jarayonida amalga oshiriladi. Masalan; mashg‘ulotlar, rivojlanish markazlarida shug‘ullanish, o‘yin jarayonida, ijtimoiy mehnat bilan shug‘ullanish davomida va boshqalar.

Shunday faoliyatlarda 6-7 yoshli maktabga tayyorlov guruhi bolalarining nutqiy rivojlanish jarayonini boshqaruvchi tarbiyachi mazkur jarayonning qonuniyatlari va uning turli yosh bosqichlaridagi xususiyatlarini bilishi, bolalarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda uning nutqiga pedagogik ta‘sir ko‘rsatishning eng samarali yo‘llarini tanlashi kerak. Shuning uchun ham bizning fikrimizcha, sizga havola etiladigan mazkur usul 6-7 yoshli maktabga tayyorlov guruhi bolalari nutqining to‘g‘ri rivojlanishiga pedagogik ta‘sir ko‘rsatishning o‘ziga xos va samarali usullaridan biri deb hisoblaymiz.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotining tayyorlov guruhi bolalarini son va miqdor, buyumlarning shakli hamda katta - kichikligi, geometrik figuralar haqidagi tushunchalarni shakllantirish uchun bir xil usullarini amaliyot jarayonida qo‘llash biroz zerikarli, sodda bo‘lib qoldi. Matematik tushunchalar maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilariga, shu vaqtda qadar nimani bilib olganliklari va nimalarni bilishni hohlashlarini qolaversa, nimalarni uddasidan chiqa olishlarini hisobga olgan holda, aniq tizimlilik asosida hamda ketma-ketlikda berib borilishi kerak. 6-7 yoshli tayyorlov guruhi bolalarining matematik tushunchalarni tez, oson va muoffaqiyotli o‘zlashtirishi, bilish jarayonini, idrokini, ya‘ni sensor tuyg‘ularini rivojlantirish bilan bevosita bog‘liqdir. Shu boisdan ham bola maktabga chiqquniga qadar unda matematik tasavvurlarni shakllantirish uchun maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida barcha faoliyatlar bir-biri bilan chambarchas bog‘langan holda ish olib boriladi. Ana shunday faoliyatlardan biri nutq o‘stirish mashg‘uloti bo‘lsa, ikkinchisi esa matematika mashg‘uloti hisoblanadi. Bu ikkita mashg‘ulot ham tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta‘limiga sifatli tayyorlashda muhim ahamiyot kasb etadi. Shuni to‘liq anglagan holda

biz yangi usulni e'tiboringizga havola etmoqchimiz. Mazkur usul 6-7 yoshdagi bolalarda matematik bilimlarning mustaxkam, aniq-ravshan bo'lishi xotiraning, tafakkurning, analiz va sintez, mantiqiy fikrlashlarning yaxshi rivojlanishida xizmat qiladi. Ushbu usulni qo'llashdan asosiy maqsad mantiqiy tafakkurni oshirishdir, ammo matematik o'qitish aniq faktlardan iborat bo'lishi lozim. Ushbu usul yordamida bola tarqatilgan geometrik shakllarni qo'li bilan ushlab ko'rib, uni aylantiradi va uni burchaklarini barmoqlari bilan his etib sanaydi, doira yoki oval bo'lsa barmoqlari bilan aylantirib barcha analizatorlari qatnashgan holda ularda burchaklar yo'qlini yodida yaxshi saqlab qoladi. Mazkur usul orqali ijod qilgan holda matematik tushunchalarni o'rganib, bilimlarini rivojlantirib boradi.

Bugun globallashuv asrida yashayapmiz. Har bir soha innovatsiyalarni talab qiladi. Shunday ekan innovatsiyalarni qo'llashni maktabgacha ta'lim davridan boshlasak, buning mevasi sermahsul bo'ladi. Maktabgacha ta'lim ta'lim tizimining ajralmas bo'lagidir, chunki bola maktabgacha ta'lim tashkilotida ilk bora ijtimoiy jarayonlari shakllandi. U do'stlari, tengdoshlari bilan muloqotga kirishadi, maktabga tayyorgarlik uchun mashg'ulotlar, faollik markazlarida va ta'limiy o'yin jarayonlarida qatnashadi. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda mashg'ulotlarni oddiy va sodda tashkil etish bolalar uchun juda zerkarli, samarasiz bo'lib qolmoqda. Chunki hozirgi zamon bolasi juda sezgir va zukko. Shu boisdan ham mashg'ulotlarni, faollik markazlarida shug'ullanishni, ta'limiy jarayonlarni yangi inovatsion va interfaol texnologiyalardan foydalanib tashkil etish zarur deb hisoblaymiz. Shunday innovatsion usullarni san'at markazlarida shug'ullanishda ham qo'llash zarurdir. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda ularni tasavvur olamini va fantaziyalarini boyitish orqali atrof-olam haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish muhim vazifalardan biridir. Kompyuterdan foydalanish ayniqsa ta'lim jarayonida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ta'lim faoliyatida zerikarli an'anaviy usulardan chetlab o'tib, turli ranglarni oson va tez chizish uchun bu usul juda qulay. Bu usul bolaning psixikasining irodaviy va hissiy rivojlanishiga ta'siri ijobiy bo'ladi. Diqqat va aniqlikni mustahkamlaydi, natijada esa bola miyasidagi boshqa o'y-fikrlardan ozod bo'ladi va o'zi bajarayotgan ish bilan band bo'ladi. Va bor e'tiborini shu ishga qaratadi, shu ishni puxta tugallashga bor kuch, g'ayratini ko'rsatadi, bolada qunt bilan ishlash ko'nikmasi shakllanadi va ushbu ishni tugallagach albatta o'z ishidan g'ururlanish va o'z-o'zidan mamnunlik tuyg'usi vujudga keladi, vohalanki buning natijasi albatta ijobiy samara beradi.

Tarbiyachi kompyuter texnologiyasi oldiga 6-7 yoshli bola bilan shug'ullanganda unga kompyuterdan qancha masofa saqlab o'tirish lozimligini va stulda qay tariqa o'tirish kerakligi haqida tushuntirib o'tadi. Hamda yakka ish jarayonida bolani nazorat qilib turadi. Yakka ish jarayoni 10-15 daqiqagacha bo'lishi mumkin. Chunki bolaning

kompyuter qarshisida soatlab o‘tirib qolishi mumkin emas. Shuni inobatga olib tarbiyachi bolaga vaqt beradi. Va buni o‘zi bolani to‘g‘ri yo‘naltirish orqali nazorat qilib boradi. Tarbiyachi mazkur usulni bola bilan yakka holda ishlab olib borsa, natijasi tez va biz kutgandek samara beradi. E‘tiboringizga havola etilayotgan usullar 6-7 yoshli bolalarni muammolaga yechim topishiga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim Vazirining 2021-yilning 30-dekabrda 255-son buyrug‘i “Maktabgacha ta’lim xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari” to‘g‘risida.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-sonli Qarori 2020-yil 22-dekabr.
3. “Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash metodikasi” o‘quv qo‘llanma.T-2020 D.Q.Asqarova.
4. Maktabgacha pedagogika – 2019. F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova, N.Kayumova, M.A‘zamova.

TA'LIM JARAYONIDA KREATIV FIKRLASHNING O'RNI VA AFZALLIKLARI

Bo'ltakov Sanjar Xazratqul o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti "Maktabgacha va boshlang'ich yo'nalishlarida masofaviy ta'lim kafedrası" o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'limning turli shakllarida kreativ fikrlashning ahamiyati, uning ta'lim taraqqiyotidagi o'rni, ta'lim jarayonida an'anaviylikdan voz kechish hamda jahonning rivojlangan davlatlari darajasiga chiqishda ta'limdagi kreativlikning roli borasida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** Kreativlik, fan texnika, ijod, ixtiro, kashfiyot, intuitsiya*

THE PLACE AND ADVANTAGES OF CREATIVE THINKING IN THE EDUCATIONAL PROCESS

***Аннотация:** В данной статье обсуждается важность творческого мышления в различных формах образования, его роль в развитии образования, роль творчества в образовании в отказе от традиций в образовательном процессе и достижении уровня развитых стран.*

***Ключевые слова:** Креативность, Наука технический, творчество, изобретение, открытия, интуиция.*

***Annotation:** This article discusses the importance of creative thinking in various forms of education, its role in the development of education, the role of creativity in education in abandoning tradition in the educational process and reaching the level of developed countries.*

***Key words:** Creativity, science technics, creative work, invention, discovery, intuition.*

KIRISH. Mavzuning dolzarbligi shundaki biz ta'lim jarayonida rivojlangan davlatlar modelini tatbiq etmoqdamiz. Ularni o'rganish jarayonida ta'limda noan'anaviylik, o'quvchilarga mantiqiy va kreativ fikrlashga undovchi qiziqarli mashg'ulotlar olib borilishi kuzatilgan. Bunga misol qilib, ta'limda tatbiq etishni boshlaganimiz Piza o'quv dasturini olaylik. Piza testlari o'quvchini bir masala yuzasidan chuqur mantiqiy fikrlashga undaydi. Unda fikrlar xilma-xilligini paydo

qiladi. Aynan ushbu dastur orqali mamlakatning ta'lim sohasidagi salohiyati, erishilgan yutuq va kamchiliklari aniqlanadi. Buning ahamiyatli jihati shundaki ta'lim jarayonida erkinlik va fikrlar xilma-xilligi tadbiq etilsa, bu tezda samara beradi.

Mustaqillik yillarida yurtimizda ta'lim sohasida tub islohatlar amalga oshirildi. Xususan, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ham bu sohaga alohida e'tibor qaratib, shunday degan edilar. *“Olimlar va ijodkor xodimlarimizga e'tiborni kuchaytirish kerak. Chunki ma'naviy boylikni aynan shular yaratadi. Ularga g'amxo'rlik qilish samarali faoliyat uchun barcha zarur moddiy, ma'naviy sharoitlarni yaratib berish, davlat hokimiyati va xo'jalik tashkilotlari rahbarlarining burchi va ma'suliyatli vazifasidir”* [1.111]. Darhaqiqat ijodkorlarga erkin imkoniyat yaratilgandagina ular turli xil ixtirolar qilish mumkin. Tarixga nazar tashlasak, mustabid tuzum davrida kreativ fikrlovchi ijodkorlar, davlat arboblari, “xalq dushmani” sifatida qatog'on qilingan. Ko'plab ma'rifatparvar bobolarimiz o'zlarini fikrlarini erkin bayon qila olmagan. Buning oqibatida iqtisodiyot va ta'lim faqat bir yoqlama rivojlangan.

Ta'lim sohasida erkin ijodkorlikni joriy etar ekanmiz, bunda ta'limni quyi bosqichi maktabgacha ta'lim sohasidan boshlashimiz lozim. So'ngi yillarda bu sohaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta'lim vazirligining tashkil etilishi bunga yaqqol misoldir. Bu borada amaldagi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini eslash o'rinli *“Birinchi vazifa maktabgacha ta'lim sohasida ochiq tan olishimiz kerak, biz bu muhim sohadagi ishlarni e'tibordan chetda qoldirdek. Ushbu sohada bolalarni qamrab olish 27 foizni tashkil etadi. Yaqinda tasdiqlangan dasturga ko'ra bu yo'nalishda 2 ming 200 ta muassasaning moddiy texnik bazasini mustahkamlandi”*. [2.45]

ADABIYOTLAR TAHLILI. Kreativlik asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalalarida A.A.Abduqodirov, N.A.Muslimov, A.A.Xoliqovlar tomonidan tadqiqotlar olib borishgan. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbga tayyorlash hamda metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari bo'yicha U.A.Masharipova, N.Sh.Ruzikulova, M.I.Toshpo'latova, A.A.Urazimbetova, M.Axmedov, B.L.Axmedova, N.U.Bikbayeva, Z.Dadanov, R.A.Mavlonova, K.T.Olimov, M.A.Zaynitdinova, M.Jumayev, R.Adizovlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda adekvat holatni o'rganishga qaratilgan usullar majmui qo'llandi: nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, modellashtirish), diagnostik (so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba-sinov va matematik metodlar (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshqalar).

Muhokama va natijalar. Bog‘cha yoshida o‘quvchida mustaqil fikrlash iqtidorini ro‘yobga chiqarish va unga to‘g‘ri yo‘nalish berish juda muhim. Shuning uchun bog‘cha ta‘limida ham o‘quvchilarga mantiqiy izchillikka asoslangan mashg‘ulotlar berilsa, o‘quvchining yuksalishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda yurtimizda maktab ta‘limiga juda katta e‘tibor berilmoqda. Ayniqsa jahon andazalariga javob beruvchi Prezident maktablari va xususiy maktablarning joriy etilishi bunga yaqqol misoldir. Aynan ushbu o‘quv muassasalarida amaliy va nazariya uzviy tarzda erkin fikrlashga va kreativlikka asoslanadi. Oliy ta‘limdagi yaratilgan imkoniyatlar haqida quyidagilarni eslab o‘tish kifoya. Ushbu ko‘rsatkichlar mustaqillikning dastlabki davridagi oliy ta‘limdagi ko‘rsatkichlardir. So‘ngi paytlarda yurtimizda barcha sohalar singari oliy ta‘limda ham islohatlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa professor o‘qituvchilarning ilmiy kashfiyotlari evaziga rag‘batlantirilishi ularning oylik maoshlarining oshirilishi, oliy talimda kirish imtihonlarining yanada shaffoflashuvi bunga misoldir. So‘ngi yillarda dunyoning rivojlangan oliy o‘quv yurtlari bilan hamkorlikda ilmiy ijodiy kashfiyotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida turli fan sohalarida yuksalishi ro‘y berishi kuzatilmoqda. Respublikaning bosh qonuni Konstitutsiyamizda ham ta‘lim tizimi, erkin ijodkorlik va ilmiy kashfiyotlarni qo‘llab-quvvatlash borasida 41-42 moddalarida so‘z yuritilgan. Xususan, 41-moddada shunday deyilgan *“Har kim bilim olish xuquqiga ega. Bepul umumiy ta‘lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir”*.

42-moddada esa, *“Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qiladi”*. [4. 6,7]

Bundan ko‘rinib turibdiki, yurtimizda ilmiy kashfiyotlar va bilim olishga katta yo‘l ochildi. Ular davlat tomonidan rag‘batlantiriladi. Shuning bilan birgalikda bu kashfiyotlar vatan taraqqiyoti va xalq farovonligi uchun amalga oshirilishi lozim. Insonlar hayotiga rahna soluvchi taraqqiyotga zid bo‘lgan ilmiy texnik kashfiyotlarga yo‘l ochilmaydi, jinoioy javobgarlikka tortiladi.

Jamiyat taraqqiyoti ilmiy tadqiqot faoliyatiga asoslanadi. Jamiyatda turli xil tadqiqotlar bo‘lsa unda yuksalish bo‘ladi. XX asrning oxirida ro‘y bergan fan-texnika inqilobi ham insonlarning yuksak ijod mahsuli hisoblanadi. [Bu davrga kelib turli xil tadqiqotlar yaratildi. Bu xususida faylasufning quyidagi fikrlarini eslash o‘rinli *“Ilmiy tadqiqot faoliyati insonga o‘z-o‘zini baholashga yordam beradi, ya’ni agar inson haqiqiy olim bo‘lishni istasa, o‘zining ehtiros va intilishlarini boshqarishi, oqilona, samarali va optimal qarorlar qabul qilishi, ezgulikka xizmat qiladigan evristik faoliyat*

bilan mashg'ul bo'lishi lozim. Bunday faoliyatning natijasi kashf qilish va yaratuvchanlik sifatida namoyon bo'ladi [5. 4]

4. R.Xalilov, Risunok, Izdatelʼstvo «Navroʻz» 2013

ISLOMIY MAROSIMLAR

Jumayeva Muattar Zohid qizi

Buxoro Davlat Universiteti,

Tarix va yuridik fakulteti “Buxoro tarixi va arxeologiya” kafedrası magistranti
Ijtimoiy gumanitar sohalar yo‘nalishi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Islom dinida mavjud bo‘lgan marosimlar, ularning insonlar ijtimoiy hayotiga ta’siri va bu marosimlarga qo‘shilib ketgan qadimgi dinlardan qolgan ba’zi odatlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Valiyima, aziyra, xatna, vakiyra, vaziyima, aqiyqa, noixa, nikoh to‘yi, kuyovnavkar, hovli to‘yi.

Аннотация: В данной статье рассказывается о ритуалах, существующих в исламе, их влиянии на общественную жизнь людей и некоторых обычаях, оставшихся от древних религий, которые были добавлены к этим ритуалам.

Ключевые слова: Валийима, азийра, хатна, вакийра, вазийма, акийқа, ноиха, никоҳ, куёвнавкар, ҳовли тўйи.

Abstract: This article talks about the rituals that exist in Islam, their influence on the social life of people and some customs left over from ancient religions that were added to these rituals.

Key words: Valiyima, aziyra, xatna, vakiyra, vaziyima, akiyka, noikha, nikoh, kuyovnavkar, hovli tuyi.

Diniy marosimlar muayyan dinning talabi, xususiyati, aqidasi va ehtiyojidan kelib chiqib vujudga keladi. Islom dinida o‘tkaziladigan marosimlarning barchasi ijtimoiy va axloqiy ahamiyatga egadir. Bu marosimlar orqali beva-bechoralardan xabar olinadi, muhtojlarga yordam beriladi va ijtimoiy aloqalar mustahkamlanadi.

Ulamolarimiz marosimlar haqida kelgan shar’iy qoidalarni batafsil o‘rganib, tahlil qilib, qanday marosimlar shariatda borligini belgilab berishgan.

Valiyima- kelin tushirish(nikoh to‘yi) marosimi- hanafiy mazhabi bo‘yicha sunnat amaldir. Nikoh to‘yini kuyov taraf kelinning sharafiga uyushtiradi¹.

¹ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Isrof”.-T., 2015. 60-bet.

O‘zbek xalqi nikoh to‘ylarida o‘tkaziladigan ayrim udumlarda qadimiy e’tiqodlar- fetishizm, totemizm, shamanizm elementlarini uchratishimiz mumkin.

Nikoh kuni kuyov o‘z yaqin do‘stlari bilan kelin uyiga “kuyovnavkar”ga boradi. Kuyov o‘z do‘stlari qurshovida, karnay-surnay va turli qiyqiriqlar sadosi ostida yo‘lga tushadi. Ushbu amallar faqat to‘y shodiyonasini anglatibgina qolmay, yovuz kuchlar, ins-u jinslardan saqlovchi afsungarlik vositasi ham sanalgan. To‘y marosimlarida keksa yoshli, ko‘p farzandli kishilar ishtiroki zarur va o‘ta muhim hisoblangan. Ular to‘y marosimining ma’lum bosqichlarida o‘ziga xos afsungarlik funksiyalarini bajarganlar. Biz buni bo‘lg‘usi kelin sepini tayyorlash jarayonidan boshlab kuzatishimiz mumkin. Odatda, bo‘lg‘usi kelin-kuyovlarning ko‘rpa-to‘shaklarini tikish, ya’ni “ko‘rpa soldi” marosimida bichish-tikish ishlari keksa ayollar tomonidan boshlab berilgan. Bunda nuroniy, ko‘p farzandli ayollar xislatlari bo‘lg‘usi kelin-kuyovga ham o‘tsin degan afsungarlik niyati mujassamlashgan¹.

Keyingi marosim -aziyra ya’ni xatna marosimidir. Islom dinida o‘gil bolalarni xatna qildirish sunnatdir. O‘g‘il bolalarni kichiklik chog‘ida xatna qildirish musulmon xalqlarining tark qilmaydigan odatiga aylangan. Qolaversa, bu ishning inson sog‘ligi uchun qanchalik foydali ekanini bugungi zamon ilmi ham isbotlaydi. Shuning o‘zi Islom shariatida buyurilgan amallarning hech biri behikmat emasligini tasdiqlaydi. Xatna munosabati bilan jonliq so‘yib, ziyofat uyushtiriladi. Xatna bolaning hayotida muhim hodisalardan biri bo‘lgani uchun bu marosim uning haqiga duo olish niyati bilan o‘tkaziladi².

Xalqimiz orasida xatna to‘yi bilan bog‘liq bir qancha kichik udumlar ham mavjud. Masalan, bolaberkitar- xatna qilinishi kerak bo‘lgan bolani yashirib qo‘yish odati. Bu udum hazil tariqasida o‘tkazib kelingan bo‘lib, to‘ychilardan biror bir sovg‘a olinib, keyin to‘ybola xatnachi ustaga topib berilgan.

Keyingi islomiy marosimlardan biri Xursa, ya’ni bola tug‘ilishi munosabati bilan o‘tkaziladigan marosimdir. Bu marosimni bizda ayollar uchun qilish odat bo‘lib qolgan. Yangi farzand ko‘rgan onaning to‘lg‘oq va tug‘ishdan xalos bo‘lganiga shukrona sifatida o‘tkaziladi. Yana bir marosim Vakiyra- yangi uy munosabati bilan o‘tkaziladi. Bu marosim bizda “Uy to‘yi” yoki “Hovli to‘yi” deb ataladi. Shukronaning bir turi sifatida va yangi qo‘shnilarga o‘zini tanitish maqsadida ushbu marosim tashkil qilinadi³.

Farg‘ona vodiysi o‘zbeklarida yangi uyga ko‘chib kiriladigan kuni barcha qo‘ni-qo‘shni va qarindosh-urug‘lar chaqirilib albatta jonliq(qo‘y yoki echki) so‘yib xudoyi qilingan. Bu kuni o‘choqqa olov yoqilib qozonga uch qoshiq yog‘ quyilgan. Odatda,

¹ Адхамжон Аширов. “Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари”.-Т., 2007. 90-91 бетлар.

² Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Isrof”.-Т., 2015. 61-bet.

³ O‘sha asar. 62-bet.

bu ish qaynona yoki keksa ayollar tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu xonadondan o'tgan ajdodlar ruhi poklariga atab pishirilgan uch dona qatlama, uch dona chalpak qo'ni qo'shnilariga ulashilgan¹.

Birovning safardan qaytib kelishi munosabati bilan o'tkaziladigan marosim islomda Naqiy'a deb ataladi. Turli sabablarga ko'ra oiladan, mahalladan uzoqda bo'lgan shaxs eson-omon yurtiga, oilasiga qaytib kelgani shukronasiga o'tkaziladi. Bu marosimni safardan kelgan odamning o'zi yoki biror yaqin kishisi qilishi mumkin. Bunda ham boshqa marosimlarga o'xshash xursandlik shukronasi, xayr-ehson savobi va duo umidi mavjud. Aqiyqa- bola yetti kunlik bo'lganidan keyin o'tkaziladigan marosim².

Islomda aqiyqa qilish ota-onaning burchi hisoblanadi. "Aqiyqa" lug'atda "yormoq" ma'nosini anglatib, aslida yangi tug'ilgan bolaning sochiga nisbatan qo'llangan. Shariatda esa aqiyqa niyat va maxsus shartlar bilan, Alloh taologa shukur sifatida, farzand nomidan so'yilgan jonlikdir. Bola tavalludining yettinchi kuni sochi olinib, qo'y so'yiladi. Aqiyqaga so'yilgan hayvonning go'shti faqir miskinlarga tarqatiladi yoki pishirilib odamlarga ziyofat beriladi³.

Vaziyama-motam munosabati bilan qilinadigan marosim. Vaziyamaning kuni, hajmi unga pishiriladigan taomning turi va boshqa narsalari belglangan emas⁴.

Xalqimiz orasida motam marosimi bilan bog'liq urf-odatlar juda ko'p va ular hududiy jihatdan bir-biridan farq qiladi. Motam tarkibiga nafaqat marhumni dafn etish bilan bog'liq, balki motam va u dunyo bilan bog'liq tasavvur va magik urf-odatlar, turli-tuman tabular, ehson va qurbonliklar, marosimiy yig'ilar, qabr toshlar, aza marosimlari va liboslari ham kiradi.

Motam marosimlarida yig'i alohida o'rin tutadi. Dafn kunidagi yig'ida erkaklar va ayollar baland ovozda dod solib, marsiya aytib yig'laydilar. Vafot etgan kishiga marsiya aytib yig'lash dunyoning ko'plab xalqlarida uchraydi. Bu odat ildizlari ibtidoiy davrlarga borib taqaladi. Qadim zamonlarda ibtidoiy odamlar nazarida o'lim hayotning yakunlanishi hisoblanmagan. Jonsiz ko'rinishda yotgan o'lik aslida fiziologik va ruhiy hayot bo'lib, eshitadi va ko'radi. Islom dinida yig'lab aytuvchilar-marsiyachilar-noix va noixa deyilib, motam marosimida marhum uchun yig'lash navha solish deb ataladi⁵.

Musulmonchilik odatiga ko'ra, marhum dafn etishdan avval suv bilan yuvib poklanadi. Vodiyning aksariyat yerlarida marhumni yuvish mayit yotgan xonaning

¹ Адхамжон Аширов. "Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари".-Т., 2007. 167-бет

² Шах Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. "Isrof".-Т., 2015. 63-бет.

³ Шах Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. "Бахтиёр оила".-Т.,2013. 309-311-бетлар

⁴ Шах Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. "Isrof".-Т., 2015. 63-бет.

⁵ Адхамжон Аширов. "Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари".-Т., 2007. 110-бет

yuqori qismida, ya'ni odamlar kam bo'ladigan joyda bajarilgan. Yerga solongan sholcha yoki palos yig'ishtirib olingan. So'ngra yerdan bir ikki ketmon tuproq olib tashlanib suv tushishi uchun chuqurcha qilingan va uning ustiga taxta tashlangan. Marhum yuvib bo'lingandan keyin dafn marosimi urf-odatlariga ko'ra mayitga xushbo'y o'simliklar, masalan, atirgul, rayhon qo'yilgan. Marhumni yuvishdan oldin murda yotgan xonada g'assollar yoki kekxa qariyalar tomonidan mayitga kafan bichilgan. Mayit kafanlangandan so'ng hali tutilmagan ko'rpa o'ralib, boshining ostiga yostiq teskari qo'yilgan holda tobutga solinadi. Tobutni xonadondan olib chiqib ketishda bu xonadonda qayta o'lim bo'lmasin degan niyatda uch marta yerga qo'yib ko'targanlar¹.

Xulosa qilib aytganda, islomiy marosimlar insonlar ijtimoiy hayotida ma'lum ta'sirga ega bo'lib, uni tartibga soladi, odamlarni hamkorlikka o'rgatadi. Islom marosimlari muayyan demokratik xarakterga ega, ya'ni ularga rioya qilishda jamiyatdagi turli tabaqalar birdek huquq va majburiyatga egadirlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Адхамжон Аширов. “Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари”.-Т., 2007
2. Исо Жабборов. “Ўзбеклар: турмуш тарзи ва маданияти”.-Т.,2003
3. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. “Бахтиёр оила”.-Т.,2013
4. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. “Isrof”.-Т., 2015.

¹ Адхамжон Аширов. “Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари”.-Т., 2007. 113-бет

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARDA FIZIKANI INGLIZ TILIDA O‘QITISH VA FANNING TEXNIK YUTUQLARINI O‘ZLASHTIRISHDAGI INGLIZ TILI AFZALLIKLARI

Munixon Rajabova,

Sarvar Xudoyqulov

Tashkent State Pedagogical University

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada ixtisoslashtirilgan maktablarda ta'limni ingliz tilida olib borish va fizikani ingliz tilida o'qitishning afzalliklari haqida, fizika fanining ingliz tilida chop etilgan darsliklar maqolalarni o'zlashtirishdagi bir muncha qulayliklar, zamonaviy axborot yutuqlaridan foydalanishdagi ingliz tilining zaruriyati borasida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** pedagogika, fizika, chet tillari axborot texnologiyalari, yutuqlar, ta'lim, metod, o'zlashtirish.*

Kirish: Tabiiy fanlar sinfiga kiruvchi ushbu fan hayotimizning turli tarmoqlarida o'zining namoyon etadi. Tibbiyotdan sanoatgacha, yer osti ishlaridan koinotni tadqiq etishgacha bo'lgan sohalarda ushbu fanga bo'lgan katta ehtiyojni ko'rishimiz mumkin. Iqtisoslashtirilgan maktablarning ko'plarida ta'limni turli tillarda keng qamrovda olib borishmoqda buning natijasida o'quvchi yoshlar fan sohalari bo'yicha o'zlari uchun zarur bilim ko'nikmani erkin topish va o'zlashtirishda bir muncha qulayliklarga erishishlari mumkin.

Asosiy qism: Xususan ingliz tilida ta'lim tashkil etilayotgan iqtisoslashtirilgan maktablarda fizikani o'qitish o'zining ijobiy jihatlarini namoyish etadi. Fizikani o'qir ekan uni nafaqat o'z ona tilida balki ingliz tilida o'zlashtirishi uning uchun yangi imkoniyatlar olib keladi. Xorij olimlarning darsliklarni maqolalarni o'qishda o'zlashtirishda qulayliklarga ega bo'lishadi hali biz uchun yangi bo'lgan axborot dasturlari zamonaviy texnika yutuqlarini o'zlashtirish uchun imkoniyatlarini oshishiga olib keladi. Nobel mukofoti laureanti fizik K.Viman tomonidan "Physics Education Technology" (PhET) sayti yaratilgan. PhET saytida 100ga yaqin fanlar mavjud bo'lib ularda simulyatsion tajribalarni bajarishda qulayliklar yaratadi. Ma'lum sharoitni talab etadigan va hayot uchun xavfli bir qancha tajribalarni o'zlari reallikka yaqin sharoitda

bajarishlari va bu borada ko'nikma hosil qilishlari uchun imkoniyatni oshiradi. Fizika aniqlikni talab qiladigan sohalardan bo'lganligi boisi har qanday tajriba ham aniq ma'lumotlar olish uchun bir necha marotaba takroriy o'tkazishni talab qiladi. Bu kabi ilg'or texnologiyalardan foydalanish inson ko'nikmasini oshishiga olib kelsa bulardan foydalanishda esa ingliz tili bilish darajasi juda qo'l keladi. Birgina "PhET tizimining o'zida kimyo fizika matematika biologiya fanlaridan bir qancha tajribalarni simulyatsiya tarzida asliga yaqin darajada bajarish imkoniyatiga ega. Fizikada hozirgi axborot texnologiyalardan foydalanish o'zining qulayliklarini namoyon etadi va o'quvchi uchun darsni o'zlashtirish fanni o'rganishga yaqindan yordam beradi. Bu kabi dasturlardan yana biri "**Stellarium Windows va Linux**" uchun yaratilgan astronomik dastur "Stellarium" dasturi asosan koinotni kuzatishda yaqindan yordam beradi u orqali osmon sferasi elementlari yulduzlar koordinatalari yulduzlargacha bo'lgan masofalarni aniqlash mumkin. Ushbu dastur shu bilan birga quyoshning kunlik, yillik ko'rinma harakatlari kabi bir qancha mavzularni o'z ichiga oladigan 3D formatidagi dastur ham hisoblanadi yuqorida keltirib o'tilgan dasturlar fizikan o'qitish uni rivojlantirish uchun muhim yordam bersa ularni mustaqil o'rganish va ishlata bilish uchun ingliz tilini bilish darajasi talab etilad. Bularning barchasini ixtisoslashtirilgan va ma'lum yo'nalish bo'yicha chuqur bilim o'zlashtirmoqchi bo'lgan yoshlar uchun imkoniyat eshiklarni keng ochadi. Jahon tillaridan hisoblangan ingliz tili bo'lsa ularni o'rganish va o'zlashtirishiga zarur hisoblanadi

Xulosa: O'quvchining kelajakda rivojlanishini to'xtatmaydigan, balki takomillashtiradigan, yangi bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishga imkon beradigan muhim asos sifatida, talim asosiy rol o'ynaydi. Ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktablarda fizik fanining rivojini ta'minlash uchun zamon talablariga mos ravishda ingliz tilining o'rgatilishi ham alohida o'rin kasb etadi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib ingliz tili afzalliklari nafaqat o'quvchi uchun balki uning kelgusida jamiyat hayotida tutgan o'rniga ham tasir etadi. Ularni yetuk mutaxassis bo'lib yetishishiga ko'maklashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Buxoro davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2018/1(69). Saidova Nazokat Sayfullayev. PhET saytidagi Modellardan fizika faniga oid tajribalarni o‘tkazish, laboratoriya ishlarini tashkillashtirish va modellashtirish imkoniyatlari.
2. Kamiljonov To‘lqinjon Tilaboyev, Shohruh Usmonov "Fizikani o‘qitishda zamonaviy uslublardan foydalanish". Academic Research Educational in Sciences " 2022/11(3).
3. Mirzayeva, G. (2023). The role of digital educational technologies in teaching physics. *Science and innovation*, 2(B4), 211-216.
4. Muniskhon, R. (2023). Improving the use of design thinking methodology in teaching English for specific purposes (ESP). *Genius Repository*, 26, 58-60.
5. Munisxon, R. (2022). Theory of Teaching Skills in Pedagogy. *Czech Journal of Multidisciplinary Innovations*, 12, 31-33.
6. Pulatbek, S. (2023). Importance of digital educational technologies in teaching foreign languages. *American Journal of Pedagogical and Educational Research*, 18, 298-304.
7. Rajabova Muniskhon Rajabovna. (2022). Modern approach to teaching foreign languages and making students interested in the lesson. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(4), 109–113.
8. Sagdullaev Pulatbek. (2023). Improving the language competencies of future teachers by means of digital technologies. *Academia Science Repository*, 4(04), 116–124.
9. Sagdullaev, P. (2022). Modern approaches and innovations in teaching foreign languages. *Андррияновские педагогические чтения*, 1(1), 210-212.
10. Sagdullaev, P. (2023). The innovations and variety of approaches in teaching foreign languages. *Science and innovation*, 2(B4), 142-148.
11. Sagdullayev, P. K. (2020). Raqamli texnologiyalar vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarning til kompetensiyalarini rivojlantirish. *PEDAGOGIKA*, 5(1), 19-21.
12. Sagdullayev, P.K. (2023). Bo‘lajak o‘qituvchilarning til kompetensiyalarini oshirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni. *PEDAGOGIKA*, 2(1), 342-345.
13. Sarvarbek Xudoyqulov. "Amaliy va tabiiy fanlar ilmiy jurnali "2024/01(03).

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MA'NAViy-AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Eshmuxanova Banu Uliqpanovna

Qoraqalpog'iston Respublikasi

Nukus tumani 10-sonli DMTT tarbiyachisi

***Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'limi tashkilotlarida ma'naviy tadbirlarni o'tkazish bolalarni yuksak ma'naviyatli barkamol shaxs qilib tarbiyalashdagi o'rni katta ekanligi, ma'naviy axloqiy tarbiyalash imkoniyatlari, afzalliklari, muammo va echimlari xususida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, bolalar, ta'lim, ma'naviy-axloqiy tarbiya, tarbiya usullari*

Maktabgacha ta'limi tizimida ma'naviy ma'rifiy ishlarni tashkil etishning alohida jihatlaridan biri shuki ayni bu davrda insonning asosiy ma'naviy dunyoqarashi shakllanadigan davr hisoblanadi. Shu sababli maktabgacha ta'limi tashkilotlarida ma'naviy tadbirlarni o'tkazish bolalarni yuksak ma'naviyatli barkamol shaxs qilib tarbiyalashdagi o'rni katta. Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning amaliy pedagogik maqsadi shuki unda mashg'ulotlar davomida olingan bilimlarni mustahkamlanadi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. Bunday davrda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarga ommaviy-ma'naviy tadbirlar orqali ma'naviy tarbiya berish muhimdir.

Bunda quyidagilarni e'tiborga olish lozim.

-Tarbiyalanuvchilarni milliy xalq ertaklari va dostonlari namunalaridan foydalanib axloqiy sifatlarini shakllantirish;

-Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini milliy ma'naviyatimizga yot bo'lgan rasmlar, didaktik materiallar, o'yinchoqlar bilan bezatishdan voz kechib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini milliyligimizni aks ettiruvchi jihozlar bilan bezatish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning asosiy tamoyillari insonparvarlik, uzliksizlik, ilmiylik, hayotiylik, yosh va bilim saviyasiga moslik tarzida tashkil etilishi kerak. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar davomida bolalarning ma'naviy tarbiyasi shakllanadi. Ma'naviyat tushunchasining

mazmuni bugungi kunda faqat ma'ni, ma'no degan so'zlar doirasida chegaralanib qolmaydi. Nega deganda insonni-inson qiladigan, uning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog'langan bu tushuncha har qaysi odam jamiyat, millat va xalq hayotiga hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan darajada alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'naviyat asrlar davomida uzliksiz taraqqiyot natijasida kamol topgan, xalqimizning ongu tafakkurida ozodlik, mustaqillik, ona Vatan, mehr oqibat, or-nomus kabi ezgu tushunchalar asosida shakllangan. Tabiatga yaqinlik jonajon o'lkaning benihoya go'zalligidan bahramand bo'lish ma'naviyatga oziqa beradi, uni kuchaytiradi va yetuk shaxs sifatida shakllanishi va ta'lim tarbiya jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy fazilatlar majmui sifatida amal qiladi. Bu fazilatlar insonning moddiy va ma'naviy faoliyatida ham boshqalar bilan muloqatda ham, jamiyat va o'zgalarga munosabatida ham namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2019 yil 15 martdagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida Ma'naviyat kuni"ni tashkil etish to'g'risidagi buyrug'ida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har haftaning juma kunlari tarbiyalanuvchilarning ma'naviy fazilatlarini shakllantirish maqsadida ma'naviyat kunini o'tkazish va har oyning oxirgi juma kunlari pedagog xodimlarni ma'naviy dunyoqaraishini boyitish maqsadida ma'naviyat soatlarini tashkil etish belgilangan.[1]

Shuningdek buyruqda tarbiyalanuvchilar uchun ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish ko'rsatilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ta'lim tarbiya jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatib tarbiyalanuvchilarda Vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, milliy qadriyatlarimiz, urf odat va an'analarimizga sodiqlik ruhida tarbiyalashga yordam beradi. [2]

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Ma'naviyat kuni"ni tashkil etishda quyidagilarga e'tiborni qaratish talab etiladi:

- yuqori malakali, ma'naviy salohiyatga boy pedagoglardan iborat tashviqot guruhlarini tashkil etish;

- axloqiy-tarbiya, madaniy-ma'rifiy targ'ibot va tashviqot ishlarini kuchaytirish;

- milliy ma'naviyatimizning mazmun-mohiyati, qadimiy ildizlarni, noyob va betakror namunalari, bugungi kunda rivojlanish tamoyillarini aks ettiruvchi, aniq maqsadga qaratilgan tadbirlar rejasini ishlab chiqish;

- tarbiyalanuvchilarning o'quv tarbiya jarayonida olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida so'ngi yillarda yurtimizda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari, ayniqsa ta'lim sohasida erishilgan yutuqlar bilan tanishtirish;

- maktabgacha ta'lim tashkilotlari kutubxonalarida tarbiyalanuvchilar o'rtasida "Jajji kitobxon", "Kitoblar mo'jizasi", "Kitoblar olamiga sayyohat", "Ertaklar-yaxshilikka yetaklar" mavzularida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va sahna ko'rinishlari tashkil etish;

- pedagog va tarbiyalanuvchilar uchun ma'naviy-ma'rifiy intellektual tadbirlar va sport musobaqalari uyushtirish;

- ta'lim-tarbiya jarayonini muvofiqlashtirish maqsadida o'zini-o'zi boshqaruv tizimlari faoliyatidan keng foydalanish.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazishdan asosiy maqsad ma'naviy tarbiya berishdir. Ma'naviy tarbiya inson va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan tushunchadir. Ma'naviy tarbiya tufayli ajdodlarimiz asta-sekin tadrijiy tarzda avlodlarga o'tgan. Ma'naviy tarbiya tushunchasi keng ma'noda inson shaxsini shakllantirishga uni ishlab chiqarish va ijtimoiylashtirishdir.[3]

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali bolajonlarda buyuk allomalarimiz, milliy qahramonlarimiz, sarkardalarimiz bilan faxrlanish va ularning boy ma'naviy merosi to'g'risida tushunchalarga ega bo'ladilar.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviy tarbiyaning tarbiyalanuvchilarda shakllantirish dolzarb vazifadir. Ana shu vazifani sidqidildan bajarish bugungi pedagog tarbiyachi, o'qituvchi zimmasiga ulkan ma'suliyat yuklaydi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida" PQ-3160-sonli qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4307-son qarori.

3. "Manaviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati". T.:2009. G'.G'ulom nashryoti.

NEOLOGIZMLAR HAMDA ULARNI TARJIMA QILISH MASALALARI

Bakiyev Faxriddin Jamshidovich

Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi,

Shavqiyeva Maftuna Salimboy qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi

maftunasalimovna@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada neologizmlarning o'ziga xos xususiyatlari, neologizm tushunchasi, uning turlari hamda neologizmlarni tarjima qilish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: neologizmlar, qisqartma, abbriviatura, akronim, konversiya.

NEOLOGISMS AND TRANSLATION PROBLEMS

Abstract. The article deals with the problem of studying of the main peculiar features of the neologisms, the notion of the neologism, its types, functions and the translation issues of neologisms.

Key words: neologisms, abbreviation, acronym, conversion.

KIRISH

Yangi tushuncha va atamalar leksikamizga kirib keladi. Bunday so'zlar sirasiga **neologizmlarni** misol qilishimiz mumkin. Tarjima jaroyinida neologizmlar ham muhim o'rinni egallaydi. Negaki ularni tarjima qilish davomida tarjimon ba'zi bir qiyinchiliklarga uchraydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Neologizmlar (jamiyatning rivojlanishi, yangi tushunchalarning kirib kelishi tufayli tilda yangi so'zlarning paydo bo'lishi) ni tarjima qilish muammolari tarjima amaliyotida asosiy o'rinni egallaydi. "Neologizm" tushunchasining o'zi nisbiydir. 100 yil oldin neologizm hisoblangan samolyot, uchuvchi, televideniya, nishonlangan atom kabi so'zlar jamiyat, fan va texnika, shu bilan bir qatorda, tilning rivojlanishi natijasida hozirgi kunda neologizmlar hisoblanmaydi.

NATIJARLAR

Neologizmlar hosil qilishning bir nechta usullari mavjud:

1. Tilda mavjud bo'lgan so'z yasovchi vositalar (sufiks, prefiks, qo'shma so'z) orqali yangi so'z yasash.

Neologizmlarni yasashda qo'llaniladigan mahsulli sufikslardan **-ian, -ation** ni misol qilish mumkin:

ballistician – ballistika (o'q- snaryadlarning harakat qonunlarini haqidagi fan bo'yicha mutaxassis (musician kabi).

commodification – pulni sotish yoki boshqasiga almashtirish mumkin bo'lgan tovar kabi ishlatish.

- **ship:** craftsmanship – mahorat, mohirlik
showmanship – insonlarni qiziqтира olish, zavqlantira olish qobiliyati
- **dom:** bangdom - uyushgan banditlik
bogdom - hayotdagi to'siq
- **ize:** itemize - ro'yxat tuzmoq
institutionalize - qonunlashtirmoq
unionize - kasaba uyushmasi a'zosi bo'lmoq

MUHOKAMA

Ingliz tilida so'z qo'shish yo'li bilan neologizm yasalib turadi. Masalan,

- know-how texnikani bilish, tushunish
- break-down buzilib qolish
- break-up parchalanish, buzilib ketish
- shut-down yopilish
- brain-drain ziyoli va aqlli insonlarning mamlakatdan chiqib ketishi

2. So'zga yangi ma'no yuklash.

Bunda bir so'zning o'z ma'nosida tashqari boshqa bir anglashilgan ma'nosi qo'llaniladi. Ammo ularda ma'lum bir ma'noda o'xshashlik sezilib turadi. Masalan,

- Egg (tuxum) - aviabomba
- Summit (baland nuqta) - oliy darajadagi uchrashuv
- Domino (o'yin) - organlarni almashtirish bo'yicha operatsiya

Yana bir so'zni tahlil etadigan bo'lsak, colour-blind ushbu so'z dastavval ranglarni ajrata olmaydigan daltonik insonni anglatgan bo'lsa, XX asrining oxirgi choragida uning ma'nosi odamlarni irqiga, millatiga qarab ajratmaydigan insonni bildiradigan so'zga aylandi.

3. *Boshqa tillardan so‘z olish.*

Ingliz tili boshqa tillarga so‘z beruvchi til sifatida ajralib turadi, ayniqsa, biznes va moliya sohasida (masalan, lag - kechikish, marketing, dealer). Ammo kam holatlarda boshqa tillardan so‘z olish yo‘li bilan ingliz tilida neologizmlar hosil bo‘ladi. Bunday so‘zlardan bir qanchasi ingliz tili hujjatlaridan joy egallagan.

khozaschot – sel-supporting running (moliyaviy jihatdan o‘zilni o‘zi ta’minlash)

perestroika – russian

gai-ge – chinese

tranche(fransuzcha) – kredit qismi, ulush

4. *Qisqartmalar orqali yangi so‘z yasash.*

Abbreviatura qisqartmalar. Masalan,

PC [pi:si] - personal computer (shaxsiy kompyuter)

Akronim – so‘zga o‘xshab o‘qiladigan qisqartmalar.

ALGOL (Algorithmic Language)

LISP (List Processing)

So‘z yoki so‘z birikmasini qisqartirish yo‘li bilan tez-tez ingliz tilida neologizmlar yasilib turadi. Bunday so‘zlar akronim hisoblanadi, ammo qisqartma sifatida qaralmasligi mumkin:

scuba - self-contained underwater breathing aratus.

radar - radio detecting and ranging

Qisqartirishning turlari:

1) harflab qisqartish; 2) bo‘g‘inlab qisqartirish.

Benelux - Belgium, Netherland, Luxemburg

Hi-Fi - High Fidelity (ishonch)

3) harf, bo‘g‘in, raqam va so‘zlardan iborat qisqartmalar

mesoeconomic – medium-sized economic (macroeconomic va microeconomic so‘zlaridan kelib chiqqan)

stagflation – stagnation va inflation so‘zlaridan kelib chiqqan (harakatsizlik)

Biznesda e’tiborni tortish uchun qo‘llaniladigan qisqartmalar:

promotools–promotional tools(ko‘rgazmali materiallar, reklama uchun ishlatiladi)

showbiz – show business (shoubizness)

Ingliz tilida quyidagicha qisqartmalar amalga oshiriladi:

a) qisqa yozish uchun unlilar tushirilib qoldiriladi;

ctr (centre)

fwd (forward)

jr (junior)

b) so‘zning boshi saqlanadi:

libs (liberals)

dept (department)

nukes (nuclear weapons)

c) aralash qisqartmalar:

E-mail (Electronic mail)

X-rays - rentgen nuri

H-bomb (Hydrogen bomb) - vodorod bombasi

XULOSA

Neologizmlar tarkibidagi harf qisqartma bo‘lmasdan o‘z ma’nosiga ega bo‘lishi ham mumkin.

T-shirt (futbolka, kalta yengl T shaklidagi ko‘ylak)

U-turn (mashinlar 180 gradusga burilishi U shaklida)

O‘qilishidan so‘z yoki gapga teng qisqartmalar:

B4U - before you

4U - for you

2B - to be

5. Konversiya.

Bunda bir so‘z turkumi orqali boshqa bir so‘z turkumi yasash orqali yangi so‘z hosil qilinadi.

The gap is to be bridged in the near future.

bridge- ko‘prik(ot so‘z turkumidan fe‘l yasalmoqda).

6. Metafora va frazali birliklar bilan neologizm hosil qilish.

Dead-cut bounce - (so‘zma-so‘z tarjimasi o‘lgan mushukning oyoq bilan tushishi)

Birja bozorida aksiyalar narxini vaqtincha yolg‘ondan tiklash.

Dutch-bargain - gollandcha kelishuv

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мўминов О., Қўлдошева., ҲошимовЎ. Инглиз тили дарслиги (English for Translators) – Тошкент, “Шарқ” нашриёти, 2005.

2. Muminov O. A Guide to Simultaneous Translation – Tashkent, 2005.

4. Shavqiyeva M.S. Hozirgi o‘zbek tili sintaktik aloqalarining lingvistik tahlili // Innovative development in educational activities – 2023. – T.2. – № 12 – С.128-132.

5. Shavqiyeva M.S. Sintaktik aloqalar hamda ularning lingvistik tahlili // Innovative development in educational activities – 2023. – T.2. – № 12 – С.124-127.

LINGUOCULTURAL INVESTIGATION OF UZBEK AND TAJIK LINGUOCULTUREMAS

Shodiyev Sanat Ergashevich

a head of the Department Language and translation.

Samarkand state institute of foreign languages.

shodiyev198004@gmail.com

Saifulloeva Shahnoz Izatullaevna

a head of the Department of Art History,

State Institute of Fine Arts and Design.

saifulloeva86@mail.ru

***Annotation.** This article is devoted to the investigation of Uzbek and Tajik linguoculturemas. These shared aspects contribute to a sense of mutual understanding and solidarity between the speakers of Uzbek and Tajik, and they play a crucial role in shaping the identity and cultural life of both countries. Overall, the linguistic and cultural similarities between Uzbek and Tajik serve as a testament to the close historical and social ties that bind the people of Central Asia together.*

***Key words:** Uzbek, Tajik, languages, historical ties, social ties, term, mutual understanding, solidarity, identity, cultural life, Uzbekistan, Tajikistan*

INTRODUCTION

Linguoculturology is a branch of linguistics that focuses on the relationship between language and culture. It examines how language and culture are interconnected, how language reflects cultural values and norms, and how culture influences language use.

Moreover, linguoculturology also explores the impact of cultural factors on language learning, communication, and intercultural interactions. It is an interdisciplinary field that draws on insights from anthropology, sociology, psychology, and other disciplines to better understand the complex interplay between language and culture.

LITERATURE ANALYSIS AND METHODOLOGY

Linguoculturology is a fascinating and interdisciplinary field that explores the intricate relationship between language and culture. It delves into how language

shapes and reflects cultural norms, values, and behaviors, as well as how culture influences the development and use of language.

V. N. Telia writes about it: "Linguoculturology is a science that studies the individual and cultural factor as a whole" and V. Maslova's analysis the term "linguoculturology" means that the science, that appeared at the intersection of linguistics and culturology.

This science investigates the question of reflection and consolidation of nation's culture in language¹. "The object of linguoculturology is studied at the "crossroads" of two fundamental sciences: linguistic and cultural studies²".

By studying the intersection of language and culture, linguoculturologists gain valuable insights into the diversity of human communication and the ways in which language and culture coalesce to shape our identities and interactions.


This dynamic field offers a rich and complex terrain for exploration, shedding light on the intricate connections between language and culture in societies around the world.

RESULTS

"Linguoculturology is a branch of linguistics that arose at the junction of linguistic and cultural studies and explores the manifestations of the culture of the people, which are reflected and entrenched in the language³".

"Notions are our understanding concerning reality, but lexical meaning appears when we decide to convey certain notions and ideas through language units⁴.

Figure -1



In previous work, the relation of language and culture through cognitive processes of understanding reality, all aspect of interrelationships among units. And all these aspects of numbers interconnected and interdependent [figure-1].

¹Маслова В.А. Лингвокультурология: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / В.А. Маслова. – М. : Издательский центр «Академия», 2001. – 208 с.

² Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры.–М.: Академический Проект, 2001.– 990 с

³Телия В.Н. Роль человеческого фактора в языке: язык и картина мира / Сост.–М.: Рус. Язык, 1988.– 267 с.

⁴Shodiyev S.E. "Bio-social need to the study of lexical meaning" Journal of Positive School Psychology <http://journalppw.com> 2022, Vol. 6, No. 9, 4771-4777.

1. Human bio-need and social need
2. Time and place
3. Reality (objects and processes) and notions (ideas)
4. Sign (word, number) and meaning(content)

Generally, it can be seen that in the study of linguoculturological research the following issues:

- 1) linguoculturological features of a particular speech genre. It often deals with myths, the language of folklore genres;
- 2) the study of the expression of the linguocultural concept in a work written in a certain style. It mainly analyzes the language of fiction;
- 3) comparative work. In this case, linguistic and cultural units;
- 4) aspects of linguoculturology related to pedagogical science.

DISCUSSION

Linguocultural and semantic analysis of comparing Uzbek and Tajik languages highlights the interrelations of two nations. Uzbek is a language which belong to Turkish family and belong to the Iranian branch of the Indo-European language family, but they are two closely related languages in terms of linguoculturology. They are spoken in Uzbekistan and Tajikistan, two neighboring countries in Central Asia. Despite some differences in vocabulary and pronunciation, these two languages share many similarities in their linguacultural aspects.

Moreover, the word *navruz* came out from tajik language which means nav-new, ruz- day. The traditional New Year festival celebrated in both Uzbek and Tajik cultures. Oshi palov is a meal which is called palov. A traditional rice dish, reflecting their shared culinary traditions.

One of the most striking similarities between Uzbek and Tajik linguocultures is their shared history and cultural heritage. Both languages have been heavily influenced by Persian, which was the lingua franca of the region for many centuries. As a result, they share a significant amount of vocabulary, grammar, and literary traditions. At the same time, both languages use the Arabic script and have borrowed many words from Arabic and Persian. For example, *adabiyot* is connected with Arabic language and culture. Literature, reflecting the shared literary traditions and heritage.

Furthermore, Uzbek and Tajik linguocultures share many customs, traditions, and social norms. Both languages have a strong tradition of hospitality, respect for elders, and emphasis on family values. For example, linguoculturema *mehmon* is borrowed from tajik language which means guest, reflecting the emphasis on hospitality in both cultures. They also share many culinary traditions, such as the use

of pilav (a rice dish) and various types of bread. Mantu(manti), fatir(patir), sambusa (somsa),tuxum are borrowed from tajik language. Many words which express fruits as shaftolu (shaftoli), gelos(gilos) kadu(kadi) are borrowed from tajik language.

Moreover, both languages have a rich tradition of music, dance, and other forms of artistic expression that reflect their shared cultural heritage. For example, dutor(du-tor) means two string musical instrument, another word from tajik is *Doira* which means round, circle. A traditional drum used in music and dance, showcasing their shared musical traditions.Tanbur is borrowed from Arabic into Persian and then moved to Uzbek language.

In terms of linguistic structure, Uzbek and Tajik also exhibit many similarities. Both languages interconnected with each other, one is the Turkic language family, the second the Indo-European,and as a result, they share similar and divers grammatical features such as agglutination and vowel harmony. Additionally, both languages have a complex system of honorifics and politeness markers that reflect their shared cultural values.

It is also found that the professional terms used in different historical periods of the Uzbek language were formed by adding Uzbek or Arabic parts to the pure Persian-Tajik or Persian-Tajik part. Let's get acquainted with the linguistic analysis and description of purely Persian-Tajik professional terms.

Abzal – (Persian – tool, working tool) – 1) a tool used in work, making: Sartaroshlik abzallari (hairdressing tools) – razor, shaver, mirror, etc.; Duradgorlik abzallari (carpentry tools) - hand hoe, plane, handsaw, etc.; 2) ot-arava abzallari (horse-drawn carriage accessories) - saddle, yoke, etc.

Andaza – (Persian - measure, template) - sample, copy. It is specially made from paper, cardboard, etc. It is used for copying the shape in such works as making clothes from fabric and shoes from leather.

Duradgor – craftsman, who makes buildings and various other things from wood.

Sozanda – musician, a person who plays a musical instrument, especially as a profession, or is musically talented.

Mirob – A person who supervises water distribution and irrigation networks.

Bastakor – creator of traditional, classical music (composer).

Chavandoz – left-handed arrow (bow) shooter; left-handed, skillful horseman, jockey). A person who has mastered the art of riding a horse, riding a goat, playing on a horse.

CONCLUSION

In conclusion, Uzbek and Tajik linguocultures share many similarities due to their shared history, cultural heritage, and linguistic structure. Despite some differences in vocabulary and pronunciation, these two languages have much in common in terms of their religious, social, and artistic traditions. These similarities highlight the deep connections between the people of Uzbekistan and Tajikistan and their rich linguistic and cultural heritage.

REFERENCES:

1. Маслова В.А. Лингвокультурология: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / В.А. Маслова. – М. : Издательский центр «Академия», 2001. – 208 с.
2. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры.–М.: Академический Проект, 2001.– 990 с
3. Телия В.Н. Роль человеческого фактора в языке: язык и картина мира / Сост.–М.: Рус. Язык, 1988.– 267 с
4. Shodiyev S.E. “Bio-social need to the study of lexical meaning” Journal of Positive School Psychology <http://journalppw.com> 2022, Vol. 6, No. 9, 4771-4777.
5. Shavqiyeva M.S. Sintaktik aloqalar hamda ularning lingvistik tahlili // Innovative development in educational activities – 2023. – Т.2. – № 12 – С.124-127.

ADENOID HYPERTROPHY AND SLEEP DISORDERED BREATHING

Khushvakova Nilufar Jurakulovna

D.M.Sc, Professor, Head of the department of Otorhinolaryngology №1
Samarkand State Medical University
Uzbekistan

Ruzikulova Nilufar Ravshanovna

Researcher in department of Otorhinolaryngology №1
Samarkand State Medical University
Uzbekistan

Ithomova Shirin Sherzodovna

Student of pediatrics faculty
Bukhara State Medical Institute
Uzbekistan

Abstract: Summarize and synthesize the most recent evidence about adenoid hypertrophy, impact on craniofacial growth, role in sleep disordered breathing, and effects of treatment.

Key words: adenoids, adenoidectomy, craniofacial growth, diagnosis, palatal expansion, obstructive sleep apnea, orthodontics, sleep disordered breathing.

The adenoids are a collection of lymphatic tissue located in the most superior-posterior aspect of the nasopharynx. They are situated at the inflection point between the horizontally oriented nasal passage and the vertically oriented oropharynx. Being a lymphoid tissue, the adenoids play a role in immunity housing large numbers of immunocompetent cells such as B cells, T cells, lymphocytes, and macrophages. As a result, the adenoids are highly prone to inflammation when an immune response is elicited against foreign antigens. Even in healthy children, a physiologic amount of adenoid enlargement is a part of normal craniofacial growth and development. The adenoid lymphoid tissue naturally increases to its largest size sometime between age 5-10 years, then continually decreases in size until adulthood. Since children of this age range naturally have some element of relative lymph enlargement, additional inflammation—actual inflammatory hypertrophy beyond physiologic adenoid enlargement—can introduce partial or complete nasopharyngeal obstruction.

Adenoid Hypertrophy and Altered Craniofacial Growth Although previous research studied the link between nasal function and facial pattern, it was Linder-Aronson's seminal work that helped solidify the association between adenoid hypertrophy and altered human craniofacial growth. He noted that adenoid obstruction occurred in all facial types, but children with adenoid hypertrophy presented more frequently with a recurrent craniofacial phenotype. This phenotype was characterized by a narrow maxillary dental arch, posterior dental crossbite, steep mandibular plane, and long anterior face height. Such a craniofacial phenotype was often termed "adenoid facies."

Sleep disordered breathing is a spectrum of disorders unified by respiratory disturbance or inadequate ventilation during sleep. In this context, sleep disordered breathing can range from primary snoring to upper airway resistance syndrome to severe obstructive sleep apnea. In the pediatric population, the epidemiology of sleep disordered breathing is poorly described, as its presence and consequences on overall health and wellness have been widely underappreciated. Only recently has pediatric sleep disordered breathing become more widely acknowledged as a public health problem. Best available estimates suggest the frequency of obstructive sleep apnea is approximately at 1% to 5%,²⁰ while the frequency of sleep disordered breathing (i.e., snoring) is estimated much higher, ranging from 3% to 27%. The consequences of sleep disordered breathing to overall health can be severe. Neurocognitive dysfunction including attention deficit, hyperactivity, reduced grades in school, and aggression, and cardiovascular dysfunction including hypertension, ventricular hypertrophy, valvular damage, and cor pulmonale and delayed growth have all been reported.

Numerous tools are available to evaluate the nasal and nasopharyngeal airway. Clinical exam alone, acoustic rhinometry, lateral cephalometry, multi-row detector CT imaging, video fluoroscopy, and cone beam computed tomography (CBCT) have all been described as methods for evaluating nasopharyngeal patency. However, each of these methods has significant drawbacks. Clinical exam alone lacks the sensitivity to be useful. Lateral cephalograms provide fair diagnostic value but tend to overestimate adenoid size. Multi-row detector CT scans and video fluoroscopy are both very accurate but require specialized equipment and expose patients to unjustifiably high levels of radiation. Beyond all other diagnostic methods, nasoendoscopy using a standardized grading system is the gold standard for diagnosis of adenoid hypertrophy. Nasoendoscopy is minimally invasive, highly reliable, and easy for an otolaryngologist to perform. However, performing nasoendoscopy is outside the scope of practice for other health-care providers concerned with adenoid size, such as orthodontists or sleep medicine specialists. While nasoendoscopy is an excellent diagnostic procedure,

gaining access to an otolaryngologist is the most difficult step to getting a reliable diagnosis of adenoid hypertrophy.

At the present time dentist's most important role in airway management is to act as an early detector of airway dysfunction, and coordinate timely referral to appropriate health professionals. However, if recent research is any indication of future clinical practice, dentists are likely to gain increasing prominence also in managing specific sleep related problems.

In summary, chronic adenoid hypertrophy is the most common etiology of pediatric sleep disordered breathing. It has been strongly implicated in the altered craniofacial growth pattern termed "adenoid facies"—that is, long face, maxillary constriction with an associated dental crossbite, increased overjet, and weak chin projection. Currently adenotonsillectomy is the front-line treatment for pediatric sleep disordered breathing. A new paradigm is emerging that recognizes a multitude of additional causes for nasal obstruction and pediatric sleep disordered breathing. Recognition of the comorbidities and collaborative disease contributors can be very important for evaluating individual patient risk profiles and prognosis of treatment. Unsurprisingly, new treatment options are emerging as alternative or collaborative therapy modalities that specifically address these alternative disease etiologies. Dentists and orthodontists have an increasingly important role in the early detection of children with sleep disordered breathing and adenoid hypertrophy. Dentists' ability to recognize altered craniofacial growth patterns and access to alternative diagnostic techniques enables dentists to screen children with sleep disordered breathing with high accuracy. Furthermore, new research suggests that dentists and orthodontists may have a critical role in treating select subgroups of children with sleep disordered breathing.

REFERENCES:

1. Baugh RF, Archer SM, Mitchell RB, et al. Clinical practice guideline: tonsillectomy in children. *Otolaryngol Head Neck Surg* 2011;144:S1-S30.
2. Linder-Aronson S, Leighton BC. A longitudinal study of the development of the posterior nasopharyngeal wall between 3 and 16 years of age. *Eur J Orthod* 1983;5:47-58.
3. Vogler RC, Li FJ, Pilgram TK. Age-specific size of the normal adenoid pad on magnetic resonance imaging. *Clin Otolaryngol Allied Sci* 2000;25:392-5.
4. Lang C, Grützenmacher S, Mlynski B, Plontke S, Mlynski G. Investigating the nasal cycle using endoscopy, rhinoresistometry, and acoustic rhinometry. *Laryngoscope* 2003;113:284-9.

5. Aydin S, Sanli A, Celebi O, et al. Prevalence of adenoid hypertrophy and nocturnal enuresis in primary school children in Istanbul, Turkey. *Int J Pediatr Otorhinolaryngol* 2008;72:665-8.
6. Abreu RR, Rocha RL, Lamounier JA, Guerra ÂF. Etiology, clinical manifestations and concurrent findings in mouth-breathing children. *J Pediatr (Rio J)* 2008;84:529-35.
7. Bitar MA, Birjawi G, Youssef M, Fuleihan N. How frequent is adenoid obstruction? Impact on the diagnostic approach. *Pediatr Int* 2009;51:478-83.
8. Zicari AM, Magliulo G, Rugiano A, et al. The role of rhinomanometry after nasal decongestant test in the assessment of adenoid hypertrophy in children. *Int J Pediatr Otorhinolaryngol* 2012;76:352-6.
9. Linder-Aronson S. Adenoids. Their effect on mode of breathing and nasal airflow and their relationship to characteristics of the facial skeleton and the dentition. A biometric, rhino-manometric and cephalometric radiographic study on children with and without adenoids. *Acta Otolaryngol Suppl* 1970;265:1-132.
10. Solow B, Siersbaek-Nielsen S, Greve E. Airway adequacy, head posture, and craniofacial morphology. *Am J Orthod* 1984;86:214-23.
11. Behlfelt K, Linder-Aronson S, McWilliam J, Neander P, Laage-Hellman J. Cranio-facial morphology in children with and without enlarged tonsils. *Eur J Orthod* 1990;12:233-43.
12. Huynh NT, Morton PD, Rompré PH, Papadakis A, Remise C. Associations between sleep-disordered breathing symptoms and facial and dental morphometry, assessed with screening examinations. *Am J Orthod Dentofacial Orthop* 2011;140:762-70

ACUTE AND CHRONIC RHINOSINUSITIS

Khushvakova Nilufar Jurakulovna

